

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“IQTISODIYOT” KAFEDRASI**

**INNOVASIYALARNI TASHKIL ETISH  
FANIDAN  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>300 000 – ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot</b>
<b>ta'lim sohasi:</b>	<b>310000 – ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar</b>
<b>ta'lim yo'nalishi:</b>	<b>70310102 – iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)</b>

**GULISTON – 2022**

“Innovasiyalarni tashkil etish” fanidan o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus vazirligining 2017 yil 1 martdagi № 107-sonli buyrygi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

A.X.Burxanov - “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

O.Sattorqulov - “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.;

A.Mamatov - “Iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d.

O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o’quv-uslubiy kengashining 2022 yil 30 avgustdagi № 1 - sonli qaroriga muvofiq o’quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

## SILLABUS

<b>OTMning nomi va joylashgan manzili:</b>	Guliston davlat universiteti	Guliston shahri 4-mavze		
<b>Kafedra:</b>	<b>Iqtisodiyot</b>	Magistratura bo`limi tarkibida		
<b>Fan modul kodi</b> <b>ITE2306</b>	<b>O`quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan modul turi</b> Tanlov	<b>Ta`lim tili</b> O`zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
<b>I</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg`ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta`lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Milly iqtisodiyot</b>	90	90	180
	<b>Fanni (kursni) olib boradigan o`qituvchi to`g`risida ma`lumot:</b>	Burxanov A.		<b>e-mail:</b> alisher892gentra@gmail.com
	<b>Ta`lim sohasi va yo`nalishi:</b>	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar		70310102 – iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
	<b>Dars vaqti va joyi:</b>	Bosh bino 333-auditoriya	Kursning davomiyligi:	05.09.2022-20.01.2023
	<b>Individual grafik asosida ishlash vaqti:</b>	seyshanba shanba 13.30 dan 17.00 gacha		

### II. Fanning mazmuni:

<b>Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:</b>	<p style="text-align: justify;"><b><u>Fanni o`qitishdan maqsad</u></b> – innovasiyalarni tashkil etishning mazmun-mohiyati bo`yicha nazariy va amaliy bilimlar berish. O`zbekiston Respublikasining ta`lim to`g`risidagi qonuni talablaridan kelib chiqqan holda Davlat ta`lim standartlari bo`yicha bakalavriyat darajasidagi malakali iqtisodchi-mutaxassislar tayyorlash.</p> <p style="text-align: justify;"><b><u>Fanning vazifasi</u></b> - talabalarni innovasiyalarni tashkil etish bo`yicha tasavvur hosil qilish; milliy innovasiyalarni rivojlanishiga ta`sir etuvchi zarur nazariy va amaliy bilimlar berish; innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish kontseptsiyalari shakllantirish va amalga oshirish chora–tadbirlarini tushuntirish, innovasiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion infrastrukturasi shakllantirish, innovatsion faoliyatni boshqarish, innovatsion klasterlarni shakllantirish kabi muhim vazifalarni bajaradi.</p>
<b>Talabalar uchun talablar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o`qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lish;</li> <li>- universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;</li> <li>- uyali telefonni dars davomida o`chirish;</li> <li>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish;</li> <li>- ko`chirmachilik (plagiat) qat`iyan man etiladi;</li> <li>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o`zlashtirilishi shart;</li> <li>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;</li> <li>- talaba o`qituvchidan so`ng, dars xonasiga - mashg`ulotga kiritilmaydi;</li> <li>- talaba reyting ballidan norozi bo`lsa e`lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin</li> </ul>
<b>Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi</b>	<p>Professor-o`qituvchi va talaba o`rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, <b>telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda</b> va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha</p>

### III. Fan mavzulari va ularga ajratilgan soatlar taqsimoti:

T/r	Ma'ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Innovatsiyalarni tashkil etish va boshqarishning maqsadi va vazifalari	2
2.	Innovatsion faoliyatning mohiyati va turlari, innovatsion faoliyat kontseptsiyasi	2
3.	Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion rivojlanishi	2
4.	Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti	2
5.	Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati	2
6.	Real sektorda innovatsion taraqqiyot va innovatsion faoliyatni boshqarish	2
7.	Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari	2
8.	Innovatsion loyihalarni boshqarish muammolari	4
9.	Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	4
10.	Korxonalar innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy jihatlari tahlili	4
11.	Milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari	4
12.	Hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasi	4
13.	Milliy iqtisodiyotda klasterlarni tashkil qilishning ustuvorliklari va muammolari	4
14.	O'zbekiston Respublikasi hududlarida klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning vositasi sifatida	4
<b>Jami</b>		<b>42</b>

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari hajmi
15.	Innovatsiyalarni tashkil etish va boshqarishning maqsadi va vazifalari	2
16.	Innovatsion faoliyatning mohiyati va turlari, innovatsion faoliyat kontseptsiyasi	2
17.	Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion rivojlanishi	2
18.	Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti	2
19.	Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati	4
20.	Real sektorda innovatsion taraqqiyot va innovatsion faoliyatni boshqarish	4
21.	Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari	4
22.	Innovatsion loyihalarni boshqarish muammolari	4
23.	Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	4
24.	Korxonalar innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy jihatlari tahlili	4
25.	Milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari	4
26.	Hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasi	4
27.	Milliy iqtisodiyotda klasterlarni tashkil qilishning ustuvorliklari va muammolari	4
28.	O'zbekiston Respublikasi hududlarida klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning vositasi sifatida	4
<b>Jami</b>		<b>48</b>

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:**

Talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni echish ko'nikmasini hosil qilish uchun mustaqil talim tizimiga asoslanib mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar.

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Soat hajmi</b>
1	Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida innovasion rivojlanish	3
2	2022-2026-yillarga O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi	3
3	Инновацион экотизим	3
4	Мамлакат инновацион ривожланишининг мавжуд муаммолари	3
6	Инновацион инфратузилма субъектлари тармоғини шакллантириш орқали стартап ташаббусларни қўллаб-қувватлаш ҳамда йирик ҳажмли ишлаб чиқаришни (капитал яратиш) ташкил этиш	3
7	Инновацион фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг институционал механизмларини такомиллаштириш орқали инновацион фаол ташкилотлар улушини ошириш	3
8	Кичик тадбиркорликнинг инновацион фаоллигини ошириш орқали хуудларнинг ижтимоий-иқтисодий жадал ўсишини таъминлаш	3
9	Янги турдаги маҳсулотлар ва инновацион технологиялар яратишнинг ғоядан якуний истеъмолчигача бўлган комплекс тизимини таъминлаш орқали инновацияларга бўлган талабни рағбатлантириш	3
10	Яратилган капитални «тубдан янгиловчи» инновацияларга қайта йўналтириш тизимини шакллантириш	3
11	Таълимнинг барча босқичларида яратувчанлик, инновацион тадбиркорлик ва рационализаторлик кўникмаларини ривожлантириш орқали инновацион фаолиятни бошқаришда инсон капиталини янада ривожлантириш	3
12	Innovasiyon iqtisodiyotga o'tish sharoitida ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish	3
13	Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda innovasiyalarni roli	3
14	Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda innovasion omillar	3
15	Innovasion loyihalarni boshqarish muammolari	4
16	Innovasin klasterlarni tashkil etish va uning samaradorligi	4
17	Innovasion texnologiyalarni tijoratlashtirish	4
18	Davlatning innovatsion siyosati	4
19	O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyotini istiqbollari	4
20	Innovasion g'oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tadbiq qilish	4
21	Qishloq xo'jaligida innovasion rivojlanish omillari	4
22	Farmasevtika sanoatida innovasiyalarni joriy etishning dolzar muammolari	4
23	Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida innovasiylarni joriy etish	4
24	Sanoatning etakchi tarmoqlarida innovasiyalarni joriy etish muammo va istiqbollari	4
25	Energetika sohasida innovasiyalar	4
26	Qurilish sohasida innovasiyalar	4
	<b>Jami</b>	<b>90</b>

#### **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar):**

**Talaba bilishi kerak:**

- Innovasiy tushunchasi, nazariyasi va turlari, innovasiyon faoliyat, ixtiro va uni innovasiyaga

aylantirishda tijoratlashirish to'g'risida **tasavvurga ega bilishi kerak;( bilim)**

- Fundamental tadqiqotlar, innovasiyon ishlanmalar, loyihalar va ularni tijoratlashirish, innovasiyon klasterlar, IT texnoparklari mazmuni va mohiyatini o'zlashtirish, muammo va istiqollarini batafsil taxlil etish va ulardan foydalana olishi;**(ko'nikma)**
- talaba innovasiyani ishlab chiqarishga tadbiiq qilish, ixtironi tijoratlashirish, mumlashtirish va taxlil etish, ulardan ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish va takliflar bera olish, asosiy innovasiy kategoriyalarini mazmun-mohiyatini ochib berish, uning iqtisodiy samaradorligini tahlil qila olish **ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.( malaka)**

#### **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. Sillabusda belgilangan baholash tartibi asosida ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan talim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

#### **VIII. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TIZIMI:**

Talaba bilimini baholash kredit-modul tizimiga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida amalga oshiriladi.

<b>Nazorat turi</b>	<b>1-OB</b>	<b>2-OB</b>	<b>YaB</b>
<b>O'tkazilish vaqti</b>	8- hafta	16-hafta	17-18 hafta
<b>Nazorat shakli</b>	Yozma*	Yozma*	Yozma

**Oraliq baholash:** fanning ma'ruza qismiga tegishli teng yarmi o'tib bo'lingandan so'ng so'ng OB olinadi. Bunda o'tilgan mavzularga doir 3 ta nazariy yozma savollari varianti tarqatiladi. Oldindan tuzilgan 3 ta yozma variantlarini to'la yechgan talabaga xar bir to'g'ri javob uchun maksimal 5 baho beriladi.

**Yakuniy baholash** o'tilgan barcha mavzular bo'yicha tuzilgan variantlari asosida o'tkaziladi. Bunda xar bir talabaga semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha 3 ta nazariy va 1 tadan laboratoriya ishi bo'yicha og'zaki savol variantlari tarqatiladi. Talaba og'zaki javobning xar biridan maksimal 5 baho to'plash imkoniyatiga ega. Umumiy baxo o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.

\*Izoh. Nazoratlardagi har bir savol va topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

a) **“5” (a'lo)** baho uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Hulosa va qaror qabul qilish;
- Ijodiy fikrlay olish;
- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

b) **“4” (yaxshi)** baho uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

v) “3” (qoniqarli) baho uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

g) talabning bilim darajasi “2” (qoniqarsiz) deb quyidagi hollarda baholanadi:

- Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- Javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
- Bilmaslik.

### **IX. Asosiy va qo'shimcha axborot manbalari:**

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: NMIU, 2010 y. 40 bet.</li><li>2. Innovasion iqtisodiyot darslik A.Taniyev Samarqand 2021 y.</li><li>3. Innovasion iqtisodiyot O'quv qo'llanma Y.Aliyev. TDIU 2021</li><li>4. Innovatsion menejment A.Mardonova. o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 yil</li></ol>
<b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-Farmoni. “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”.</li><li>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent 2020 yil 28 dekabr.</li><li>3. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillirga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi. T.: -O'zbekiston. 2022.</li><li>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gining PQ-3697-sonli qarori.</li><li>5. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2022 yi 6 iyul.</li></ol>
<b>Axborot manbalari</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a>.</li><li>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a>.</li><li>3. <a href="http://www.norma.uz">www.norma.uz</a>.</li><li>4. <a href="http://www.minfin.uz">www.minfin.uz</a>.</li><li>5. <a href="http://www.wto.uz">www.wto.uz</a>.</li><li>6. <a href="http://www.imf.uz">www.imf.uz</a>.</li><li>7. Mininnovasiya.uz</li></ol>

# **1-MAVZU. INNOVATSIYALARNI TASHKIL ETISH FANINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, MAQSADI VA INNOVATSION FAOLIYAT FUNKSIYALARI VA INNOVATSIYALAR TASNIFI**

## **1. Innovatsiyalarni tashkil etish va boshqarishning maqsadi va vazifalari**

Mustaqil O‘zbekiston rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o‘zgarishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Innovatsiya xo‘jalik yuritish sub’ektlarini modernizatsiyalashga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Samarali innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish strategiyasi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi. Innovatsiya deb yangi ko‘rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko‘rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o‘rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o‘rnatilishini o‘zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2022 yil 6 iyulda “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi.

Unga ko‘ra: 2019 — 2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta’minlash va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi<sup>1</sup>. Xususan:

respublikamiz 81 ta indikator bo‘yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015 yilga nisbatan 36 ta pog‘onaga ko‘tarildi;

innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 2018 yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so‘mga etkazildi;

yosh olimlar 2018 yilda 6,5 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi, ya’ni bir yarim baravarga o‘ydi;

oxirgi 4 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg‘armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga etkazildi;

2018 yildan boshlab har yili o‘tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi — «Innoweek.uz» xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo‘lida jamlovchi innovatsion texnologiyalar platformasiga aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni Manba: lex.uz.



Shu bilan birga, iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohasini rivojlantirish maqsadida:

1. 2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Strategiyaning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

innovatsion infratuzilma sub'ektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

yaratilgan kapitalni «tubdan yangilovchi» innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirish;

ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Innovatsion faoliyatni boshqarishdan maqsad – innovatsion jarayonlarni boshqaruv mexanizmlari bo'yicha umumiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish, innovatsion fikrlash, ma'lumotlar oqimini qabul qilish va umumlashtirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi zaruriy ichki resurslarni rivojlantirish bo'yicha bilimlarni shakllantirish hisoblanadi.

Vazifa – o'rganuvchida innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo'yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk ob'ektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini ta'minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va ta'riflarni, O'zbekiston va boshqa davlatlarning innovatsion tizimi va shu sohadagi qonunlarni o'rgatishdan iboratdir.

Innovatsion faoliyatni boshqarishni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida o'rganuvchi:

- innovatsion faoliyat kontseptsiyasi, innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, makro va mikro darajada innovatsiyalarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning innovatsion tizimlari va soha bo'yicha qonunlar, tashkilotlar, ularni tashkil qilish va tuzilmalari,

innovatsion g'oya egasining huquqi va majburiyatlari, intellektual mulk ob'ekti, ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish haqida tushunchalarni bilishi kerak;

- o'quvchilar ShEHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasi, ixtiro, asosiy tushunchalar, turlari, ixtiro tavsiyanomasi, tarkibi, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalari, brend siyosati, ixtiro ob'ektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellarning himoyalalanuvchanligi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;

- innovatsion faoliyatni boshqarishni o'zlashtirishda seleksiya yutuqlarining asosiy tushunchalari, sanoat mulklari, ixtiro, sanoat namunalari, tovar va xizmat belgisi ob'ektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellarning himoyalalanuvchanligi, xalqaro patent tasnifi, patent axboroti, ma'lumotlar bazasi, Evropa, AQSh, MDH mamlakatlarining patentlash bo'yicha qonunchiligi va ulardan foydalanish, qiyosiy tahlil o'tkazish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalarining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni patentlash, litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o'rnini salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu masala o'z navbatida patent olish va uni sotish orqali tartibga solinadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojlanishining so'nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2008 yildagi "Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari" №916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo'yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to'g'ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyot salohiyati 3,0 trln. AQSh dollaridan ortiqdir. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga

YalMning 5-7 %ini sarflaydi. O‘zbekistonda esa bu raqam biroz past. Shu bilan birga respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlarini, ya’ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik resurslar;
- moddiy va nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- xodimlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.

Shundan kelib chiqib, korxonada innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:

- g‘oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun etarli pul mablag‘lar;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
- har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi original (rasman) g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

Intellektual salohiyat xususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u innovatsion salohiyatning ajralmas qismidir. Mamlakatda intellektual salohiyat, ya’ni muhandis va iqtisodchi olimlar, ularning yangilik yaratish imkoniyati qanchalik oshib borsa, shunga qarab innovatsion salohiyat ko‘payib boradi. Korxonada intellektual salohiyati undagi “innovatsion g‘oyalar portfeli” sig‘imi bilan aniqlanadi. Demak, innovatsion g‘oyalar portfeli sig‘imini oshirish esa korxonada innovatsion faollik bilan bog‘liqdir. Innovatsion faollikning mazmun-mohiyati deganda korxonada innovatsion o‘zgarishlarni jadallashtirish tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning xususiyatlaridan biri, korxonalarda yangilikka moyillikdir. Shu sababli innovatsiyani faollashtirish bilan birga uni qabul qilish jarayonlarini o‘rganish ham zarur. Yangilik kiritish doimo foyda keltiravermaydi. Ko‘pincha u noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lgani uchun innovatsion faollikda tavakkalchilikka ham e‘tiborni qaratish lozim. Innovatsion salohiyatni oshirish kichik korxonalarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalariga qaraganda, 4 barobar ko‘p innovatsiyalar yaratadi yoki ilmiy tadqiqotga kiritilgan har bir AQSh dollarga kichik innovatsion korxonalar 2,5 barobar ko‘p mahsulot yaratadilar. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni; bir xodimga to‘g‘ri keladigan oqilonaizatorlik takliflar soni; patentlar soni va boshqalar);

- kommersializatsiya ko'rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi; litsenziya shartnomalari soni va h.k.zlar);
- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);
- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shakllari; yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi; innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta'minlanishi).

Innovatsion faoliyat maqsadlarni amalga oshirish miqyosi va xususiyatlardan kelib chiqib, innovatsion strategiyani ishlab chiqish mumkin. Innovatsion

strategiya korxonaning uzoq muddatga rivojlanishida innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasidir. Innovatsion o'zgarishlar raqobat afzalliklari asosida o'rganilib, quyidagi strategiyalar ishlab chiqiladi:

- differentsiatsiyalash;
- harajatlarni pasaytirish;
- eng yaxshi qiymat.

Ushbu strategiyalar korxonalarda innovatsiyadan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bunda nafaqat yuqorida ko'rsatilgan strategiya uchun, balki korxonaning faoliyatni samarali rivojlantiruvchi jihatlarini tahlil qilish lozim. Masalan, resurs va energiya tejamkorligini ta'minlaydigan texnologiya, behuda harajatlarni pasaytirish, samarali mehnatni tashkil etish va h.k. Innovatsion salohiyatga xos bo'lgan strategiyalarni o'rganish juda muhim, chunki ishlab chiqarish va biznesni rivojlantirish bir qator tarmoq va sohalarga bog'liqdir. Shu sababdan uchta strategik yo'nalishni ishlab chiqish foydali, birinchidan, jamlangan o'sish strategiyasi, bunda korxonani bir biznes asosida yangi tovar ishlab chiqarish va yangi bozorni egallash; ikkinchidan, integrativ kengaytirish o'sish strategiyasi, ya'ni yangi tuzilmalar asosida qo'shimcha bo'linmalar, shu'ba korxonalarini shakllantirish yoki mulkchilikni rivojlantirish; uchinchidan, diversifikatsiya strategiyasi - ko'p profilli (ixtisosli) biznes strategiyasini rivojlantirish. Ushbu strategiya turlarini amalga oshirishda innovatsion strategiyani hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda innovatsion salohiyatni oshirishda investitsion loyihalarni tuzish va ularni amalga oshirishning o'zni beqiyosdir. Bu borada mustaqillik yillarida yangi-yangi avtomobil, yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi, Qo'ng'irotda soda zavodlari ishga tushirildi. Bu zavod va majmualarning barchasi xorijiy davlatlar investitsiyalari bilan birgalikda amalga oshirildi.

O'zbekistonda innovatsion salohiyatni kuchaytirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, boy intellektual va infratuzilmaviy salohiyatga qaramasdan, mamlakatda innovatsiyalarni joriy etish ishlari tizimli asosda yo'lga qo'yilmagan, bunga

*Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, bu iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi.*

*Sh.M.Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"*

quyidagi tizimli muammolar mavjudligi sabab bo'lgan:

davlatning rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalarning yutuqlari va rivojlanish tendentsiyalari lozim darajada kompleks tahlil qilinmasdan va o'rganilmasdan kelgan;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni strategik prognoz qilish, qo'llab-quvvatlash va joriy etishni, shuningdek, mamlakatning ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash zarur;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlarini keng tatbiq etish, investitsiyalarni jalb etishga, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun infratuzilmani takomillashti- rishga etarli e'tibor qaratilmayapti;

yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarni joriy etishni talab qiluvchi ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash bo'yicha tizimli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat yo'lga qo'yilmagan;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar sohasida yuqori salohiyatga ega bo'lgan xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan hamkorlik past darajada saqlanib qolmoqda.

Mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag'batlantirish- ning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **“O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”**gi farmon qabul qilindi<sup>2</sup>.

Mazkur farmonga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni keng joriy etish borasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini amalda ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim qadam sifatida qarash mumkin.

Farmon bilan strategik rejalashtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg'or texnologiyalarni faol joriy etish kabi mamlakat **innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari** belgilandi.

Farmon bilan **O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi** tashkil etildi hamda uning davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy rivojlanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohalaridagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari nazarda tutildi.

Bundan kelib chiqib, Innovatsion rivojlanish vazirligi O'zbekiston Respublikasining innovatsion va ilmiy-texnik rivojlanishi sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ etib belgilandi.

Vazirlik davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari va loyihalarining yagona buyurtmachisi bo'ladi, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi farmoni. 2017 yil 29 noyabr. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

etish bo'yicha davlat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahlil muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Innovatsion texnologiyalar hisobiga rivojlanishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiquvchi, shartli ravishda "kelajak vazirliklari" deb nomlanuvchi ixtisoslashtirilgan idoralarni tashkil qilish bo'yicha jahon tendentsiyasini qayd etib o'tish lozim.

Faoliyatda bir-birini takrorlashni istisno etish, yagona yondashuvlarni ta'minlash maqsadida 2018 yil 1 yanvardan boshlab Fan va texnologiyalar bo'yicha Davlat komissiyasi, Fan va texnologiyalar bo'yicha Davlat komissiyasi huzuridagi Ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi, shuningdek, Fan va texnologiyalar agentligi tugatildi.

Tashkil etilgan **Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi** o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha hisobot berishning shaffof tizimidan foydalangan holda innovatsion g'oyalar va ularni ishlab chiqishni moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbasi hisoblanadi.

Farmonni amalga oshirish doirasida faoliyatda bir-birini takrorlashni istisno etish maqsadida vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalarining vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqiladi, ularning tashkiliy-shtat tuzilmalari va vakolatlari qulaylashtiriladi.

Shu bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqot faoliyatini tubdan takomillashtirish va uning natijalarini amaliyotga joriy etish, shuningdek, ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha texnoparklarni tashkil etish maqsadida Fanlar akademiyasi va Oliy attestatsiya komissiyasining faoliyatini tanqidiy o'rganish topshirildi.

Farmonda innovatsiyalarni joriy etishning qonuniy asoslarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish printsiplari hamda qo'llab-quvvatlash shakllarini, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni belgilovchi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi va "Fan to'g'risida"gi qonunlar loyihalari ishlab chiqiladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi innovatsion va ilmiy-texnikaviy rivojlanish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Yangi idora innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ro'yobga chiqarish uchun byudjet mablag'laridan oqilona foydalangan holda mavjud resurs va mablag'larning safarbar etilishini ta'minlaydi.

Mamlakatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda aholi hayot darajasi va farovonligining barqaror o'sishiga imkon beruvchi faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga, innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etishga, fan va innovatsion faoliyat jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil natijalari mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi, jumladan, qator tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi [1].

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrida

kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat sub'ektlari o'rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy jarayonlardagi tub o'zgarishlar (bozorning globallashuvi, axborot texnologiyalardan keng foydalanish, rivojlanishni boshqarish, biznesni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar) turli korxonalarda islohotlar ko'lamini o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi bo'lib tashkilotning har xil sohalarida qo'llaniladigan va innovatsiyalarni yaratilishiga sabab bo'ladigan ixtirolar va kashfiyotlar xizmat qiladi. Amaliy qo'llanilishidan so'ng ixtirolar innovatsiyalarga aylandi. Ular jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarining faol bo'g'ini hisoblanmoqda. Zamonaviy makonni bunday o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Innovatsiya" tushunchasi deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi, uy sharoitida ham, professional darajada ham, shu jumladan davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar darajasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o'tgan asrdagi sekinlik bilan kechishi uni to'liq sinab ko'rishga imkon bermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning etakchi omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga davogarlik kilmoqda va korxonaning strategik rivojlanishi uchun zarur shartidir. Adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular ko'pincha "yangilik" tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o'ziga xos farqlariga e'tibor qaratish lozim.

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi.

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

"Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo'lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar

natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi


Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi

Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish.

Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir. Ixtiro – bu yangi kontseptsiyani yaratish demak.


Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish [2].

Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasidir; bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasi. 1-rasmda yangilik hayot tsiklining asosiy bosqichlari ko'rsatilgan.



1-rasm. Yangilikning namunaviy hayot tsiklining asosiy bosqichlari

Yangilikdan farqli o'laroq, innovatsiya – bu iqtisodiy samara olish uchun yangiliklarni amalda qo'llashdan iborat bo'lgan hodisadir. 2-rasmda innovatsiyalarni hayot tsiklining asosiy tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.



2-rasm. Innovatsiyaning hayot tsiklining asosiy tarkibiy qismlari



Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasiga ta’rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo’la boshladi. E.A.Utkinning yondashuviga ko’ra innovatsiya deganda “ishlab chiqarishga joriy etilgan ob’ekt tushuniladi” [3].

I.Stepanovanning fikriga ko’ra, “innovatsiya” tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi [4].

L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni “korxonalar faoliyatining tizim sifatida maqsadli o’zgarishi” deb ta’riflaydilar [5].

“Innovatsiya” tushunchasining yuqoridagi ta’riflari o’zgarishlarni mikroiqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu erda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko’rib chiqilgan.

B.Santonning fikriga ko’ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. L.A.Baev va E.V.Shugurov fikriga ko’ra, “innovatsiya” tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud [6]:

ob’ektga ko’ra

yondashuv;

jarayonli yondashuv;

ob’ekt-naflilik yondashuvi;

jarayon-naflilik yondashuvi;

jarayonli-moliyaviy yondashuv.

**Ob’ektga ko’ra yondashuvga** asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya – innovatsiyalar bo’lib xizmat qiladi. Ob’ekt mezonini quyidagilarni alohida ajratib ko’rsatish imkonini beradi:

**bazis innovatsiyalar** - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo’lgan innovatsiyalar;

**takomillashtiruvchi innovatsiyalar**, ya’ni ilmiy-texnologik tsiklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko’p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar;

**soxta innovatsiyalar** (ratsionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo’naltirilgan bo’lib, odatda texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta’sir ko’rsatadi.

**Ob’ekt-naflilik yondashuviga ko’ra**, innovatsiya yangi ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish asosida ishlab chiqarilgan yangi iste’mol qiymati sifatida ta’riflanadi. Bu erda innovatsiyaning naflilik vazifasi ustunlik qiladi - jamiyatning yuqori naflilikka ega bo’lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati.

**Jarayon-naflilik yondashuvi** doirasida ob’ekt-naflilik yondashuvdan farqli o’laroq, “innovatsiya” kategoriyasiga yangi amaliy vositani barpo etish, tarqatish va qo’llashning yaxlit jarayoni sifatida qaraladi.

**Jarayon-moliyaviy yondashuv** nuqtai nazaridan, innovatsiya - bu yangiliklarga sarmoya kiritish, yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni investitsiyalash jarayoni.

I.Abdurahmonovning fikriga ko’ra, “Ilm mablag’ga aylansa, ana shu innovatsiya” deb ta’riflaydi [7].

Shunday qilib, “innovatsiya” tushunchasi ko’pincha u yoki bu tadqiqotchining aniq maqsadi bilan belgilanadi. Har qanday yangilik, shu jumladan juda ilg’or bo’lmasa ham, innovatsiya sifatida tavsiflanishi mumkin.

Adabiyotlarda berilgan “innovatsiya” tushunchasining turli xil ta’riflari uni innovatsion faoliyat samarasi, bozorga kirishini va ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlarning sifat belgilarini o’zgarishini ta’minlaydigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologik jarayon sifatida tavsiflangan (1-jadval).

1-jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, innovatsiyalarni tavsiflashda, mualliflar mahsulot yoki xizmatning takror ishlab chiqarish va bozor jihatlariga emas, balki sifat-texnologik o’zgarishiga asosiy e’tiborni qaratadilar. Bunda evolyutsion yondashuv innovatsion jarayonning uzluksizligini tahlil qiladi, har bir innovatsiyaning iqtisodiy mazmuni esa faqat iqtisodiyotning “innovatsion sektori” nuqtai nazaridan aniqlanadi. Biroq, ishlab chiqarish omillarining yangi birikmasi va uning natijasida tovarlar va xizmatlar bozori tarkibida yuz berayotgan sifatli o’zgarishlar innovatsion jarayonlarning yaqqol ko’rinishidir.

#### **Innovatsiya kategoriyasining ta’riflarini taqqoslama tahlili**

Muallif	Ta’rif
1	2
<i>Prigojin A.I.</i>	Tashkilotlardagi yangiliklar ko’rib chiqilgan, ular yangi barqarorlashtiruvchi tarkibiy qismlarga kiritilgan ma’lum maqsadli o’zgarishlar deb tavsiflangan (maqsadlari, exnologiyalari, tartibi va boshqalar).
<i>Zub A.T.</i>	Innovatsiyani tashkilotda keyinchalik qo’llaniladigan innovatsion g’oyalari, kontseptsiyalar ishlab chiqish jarayoni sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, o’zgarishlar deganda shart-sharoitlar o’zgarishi bilan bog’liq ish usullaridagi tezkor va chuqur o’zgarishlar jarayoni deb tushuntiradi.
<i>Asayl A.N., Karpov B.M., Perevyazkin V.B., Starovoytov M.K.</i>	Mualliflar innovatsiyalarni ilmiy-texnik taraqqiyotning o’ziga xos namoyishi, yangilik elementlariga xos bo’lgan, bozor talabini qondiradigan, samara keltiradigan mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarishni ta’minlash qobiliyatiga ega texnologik jarayon, yangi yoki modernizatsiyalashgan mahsulot shaklidagi ijodiy faoliyat natijasidir.
<i>Orlov L.I.</i>	Innovatsiya tushunchasini yangilik va o’zgarish tushunchalariga yaqin deb hisoblaydi. Innovatsiyani qaror qabul qilish natijasi sifatida belgilaydi. U turli xil echimlar – mos ravishda ilmiy-texnik va tashkiliy echimlarga asoslangan ilmiy-texnik va boshqaruv innovatsiyalarga ko’proq e’tibor beradi.
<i>Molchanov N.I.</i>	Innovatsiyani yangi mahsulot yoki xizmat sifatida, ularni ishlab chiqarish usuli, turli sohalaridagi yangiliklar - tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy va boshqalar sifatida belgilaydi. Innovatsiyani xarajatlarni tejamkorligiga yoki ushbu tejalishga shart-sharoitlar yaratadigan har qanday takomillashuv sifatida tushunadi.
<i>Gromeko V.I.</i>	Innovatsiya deganda ilmiy g’oya yoki ixtironing iqtisodiy samara beradigan amaliy qo’llash bosqichiga olib chiqilishini ta’minlaydigan jarayon tushuniladi.
<i>Nikson F.</i>	Innovatsiyaga yangi yoki takomillashtirilgan sanoat jarayonlar va uskunalarni bozorda paydo bo’lishiga olib keladigan turli xil chora-tadbirlarning (texnik, ishlab chiqarish, tijorat xarakterga ega) yig’indisi sifatida ta’rif beradi.
<i>Santo B.</i>	U innovatsiyani ijtimoiy-iqtisodiy jarayon deb hisoblaydi va ixtirolar, g’oyalarni amalda qo’llash orqali takomillashtirilgan mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishga olib keladi deb izoh beradi. Ba’zi hollarda (innovatsiya foydaga, iqtisodiy samaraga yo’naltirilgan bo’lsa) uning bozorga chiqishi qo’shimcha daromad keltirishi mumkin.
<i>Shumpeter I.</i>	U innovatsiyani tadbirkorlik qobiliyatiga asoslangan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy kombinatsiyasi sifatida belgilaydi.
<i>Morozov Yu.P.</i>	U iqtisodiy samaraga ko’proq e’tiborni qaratadi va innovatsiyalarni yangi texnologiyalar, mahsulotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va tashkiliy qarorlar shaklidagi yangiliklarni samarali qo’llash sifatida belgilaydi.

<i>Zavlin P.N., Kazantsev A.K., Mindeli L.E.</i>	Ishlab chiqarish jarayoni va G'yoki uning natijalarini takomillashtirishga qaratilgan intellektual, birinchi navbatda, ilmiy-texnik faoliyat natijalaridan foydalanish innovatsiya deb hisoblanadi.
<i>Allen J.A.</i>	U innovatsiyalarni yangi mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar yoki xulq usulari joriy etilishi va ommaviy iste'mol qilinishi deb hisoblaydi.
<i>Pavitt K., Uolker V.</i>	Innovatsiya deganda yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologik jarayonni bozorga chiqarishga qaratilgan harakatlar (texnik, sanoat va savdo xarakatlari) majmui tushuniladi.
<i>Tviss B.</i>	Iqtisodiy jihatlariga e'tiborni ko'proq qaratadi va ixtirolar yoki yangi g'oyalar iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan jarayonni innovatsiya deb hisoblaydi.
<i>I.Abdurahmonov</i>	O'zbekistonda ko'plab salohiyatli olimlar, ilmiy xodimlar turli tadqiqot markazlarda, institut va universitetlarda faoliyat olib boradi. "Ularda bilim yo'q emas, bor. Demak, avvalo, pul berilgan, so'ngra bu bilimga aylandi. Lekin shu bilim holatida turibdi, agar biz bilimni mablag'ga aylantirsak, ya'ni knowledge based economy desak, bu innovatsiya bo'ladi

“Innovatsiya” kategoriyasini turli xil talqin qilinishi sababi innovatsion hodisalarning ko'p qirrali tabiatidir. Keng ma'noda “innovatsiya” tushunchasi ishlab chiqarishning texnologik asoslarini tubdan modernizatsiyalashni natijasini aks ettiradi va yangilik bo'lganligi tufayli, birinchidan, ma'lum bir iqtisodiy sub'ektning yuqori darajadagi noaniqligi, ikkinchidan, uning hayotiy tsikli davomida uzoq muddatli samarasi bilan tavsiflanadi, ya'ni innovatsion jarayonning uzluksizligi bilan. Bundan kelib chiqadiki, innovatsiya o'ziga xoslik va doimiylikni uyg'unlashtiradi.

“Innovatsiya” va “innovatsion jarayon” iqtisodiy kategoriyalari bir-biriga yaqin, ammo bir xil emas. Innovatsion jarayon - bu innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish kabi ketma-ket bosqichlar yig'indisi, ya'ni takror ishlab chiqaruvchi innovatsiya tizimining zaruriy tarkibiy qismi.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish, rivojlanish, tarkibiy siljishlar omilidir, balki ular barcha sohalarni, iqtisodiyot tarmoqlarini va umuman ijtimoiy hayotni qamrab olgan. Yozef Shumpeterning innovatsion nazariyasiga ko'ra, innovatsiya yangi mahsulot ishlab chiqish, texnologik taraqqiyot va ishlab chiqarish usullarini takomillashtirishni o'z ichiga olgan makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyasini o'zgartiruvchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, Y.Shumpeter iste'molchi tanlovidagi o'zgarishlarni ham ishlab chiqarish funksiyalarining o'zgarishi omili sifatida qaragan, ya'ni talab tomonidan ta'sir kuchi taklif tomoniga o'tgan.

O'zgarishlar bo'lmaganda iqtisodiy tizim barqaror muvozanatga erishadi, bu esa tashqi omillarning ta'siri past bo'lgan sharoitda milliy iqtisodiyotning asosiy tizimlarini rivojlanishini sekinlashtiradi. Y.Shumpeterning nazariyasi bo'yicha asosiy sub'ekt - tadbirkor bo'lganligi sababli, aynan u daromadni ko'paytirishni ta'minlash uchun innovatsiyalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun innovatsion tadbirkorlik faoliyati natijasida erishilgan yuqori daromad innovatsiyalar asosida vujudga keladi.

Innovatsiyalar ishlab chiqaradigan tadbirkor uchun yuqori darajadagi foyda olishning yagona usuli (K.Marksning fikriga ko'ra) muntazam ravishda yangiliklar joriy etishdir. Buning sababi, iqtisodiyotda innovatsiyalar tarqalganda boshqa iqtisodiy sub'ektlar innovatorga taqlid qilishadi, natijada uning iqtisodiy foydasi tarmoq foydasiga aylanadi. Bu esa Y.Shumpeter nazariyasida tadbirkorning

jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradi: tadbirkor - taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Innovatsiyalarning asosiy natijasi foyda hisoblanadi, u innovatorni jamiyatni doimiy taraqqiyotga olib keladigan innovatsiyalarni doimiy ravishda yaratishga undaydi.

Y.Shumpeterning ta'kidlashicha, "yangi mahsulotni paydo bo'lishi bilan tadbirkor raqobatchilardan qutiladi va monopol narxlarning asosiy tamoyillariga muvofiq ravishda narx belgilaydi, bu esa kapitalistik iqtisodiyotda foydaning monopol elementi mavjudligidan dalolat beradi". Shunday qilib, Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiyalardan samara olish mexanizmi yaratiladi.

Y.Shumpeterning innovatsion nazariyasida noaniqlik va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik borligi ko'p marotaba ta'kidlangan. Shu bilan birga, innovatsiyalar bir qator tashqi omillar (yangi qonunlar, globallashtiruv va boshqalar) ta'sirida faollashadi, ularning asosida innovatsiyalarni ishlab chiqarish yoki naflilik funktsiyalarning o'zgarishi sifatida tavsiflash mumkin. Innovator-tadbirkor ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonga noaniqlikni kiritadi.

Shubhasiz, yangiliklarga doir qaror qabul qilish jarayoni axborotning yuqori darajada noaniqlik va to'liq emasligi bilan tavsiflanadi, ammo korxonaning innovatsiyalarsiz faoliyati ham bozor iqtisodiyotining keyinchalik qay tarzda rivojlanishidagi noaniqligi bilan bog'liq. F.Naytning fikriga ko'ra, tadbirkorlikning mohiyati noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish va ular uchun javobgarlik tortishni o'z ichiga oladi. Y.Shumpeterdagi tadbirkor noaniqlik keltirib chiqaradigan innovatsiyalarni joriy qiladi va shu tariqa noaniqlikning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Nayt esa tadbirkorlik, asosan, innovatsiyani amalga oshira oladigan odamlarga xos ekanligini ta'kidlaydi. Shumpeterga asosan, o'zgarishlar, innovatsiyalar keyinchalik o'zi odatiy holga aylanib boradi, texnologik taraqqiyot esa yuqori malakali mutaxassislarning ishiga aylanib, ular oldindan rejalashtirilgan tarzda ishlashga majbur qiladilar.

### *2-jadval Innovatsiyalar tasnifi*

<b>Mezon</b>	<b>Innovatsiyalarning turi</b>
Tarqalganligi bo'yicha:	- yagona; - tarqoq.
Ishlab chiqarish tsiklidagi o'rni bo'yicha;	- xom-ashyoviy; - mahsulotli; -ta'minotli.
Boshqa innovatsiyalar bilan bog'liqligi bo'yicha:	- ochib beruvchi; - inkor etuvchi; - o'rnini bosuvchi; - qaytariladigan.
Bozorni egallashi bo'yicha:	- mahalliy; - tizimli.
Yangilikningsalohiyati va darajasi bo'yicha:	- radikal; - takomillashtiruvchi; - aralash.

Korxonada faoliyat yo'nalishi bo'yicha:	- texnologik; - iqtisodiy; - marketing; - ijtimoiy; - ekologik.
---	---


2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash kerakki, aqliy mehnat mahsuli va uni amaliyotga joriy etish huquqlari yig'indisi deb ta'riflanadigan intellektual mulk ob'ektlari innovatsion faoliyatning muhim natijasi sanaladi.

Intellektual mulkning xilma-xil turlari mavjud, ular korxonada kapitalining bir qismini tashkil etadi, jumladan sotib olingan huquqlar, franchayzing va gudvill (uni korxonaning biznes obro'si sifatida tavsiflash mumkin).

Intellektual mulk nomoddiy aktivlar qatoriga kiradi. Intellektual mulkning natijasi - bu alohida shaxsning yoki ilmiy-tadqiqot guruhning aqliy va ijodiy faoliyatining intellektual mahsuli. Ushbu mahsulot turli shakllarda bo'lishi mumkin: ilmiy ixtirolar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining natijalari, shuningdek turli sohalarda konsalting xizmatlari, ya'ni intellektual mulk ob'ektlari (IMO).

Intellektual mulk ob'ektlari patent huquqi (sanoat mulki ob'ektlari) va mualliflik huquqiga ega ob'ektlarga bo'linadi. Sanoat mulki ob'ektlariga ixtirolar, sanoat namunalari, shuningdek tovar belgilari, korxonada nomi va boshqalar kiradi.

Ko'p hollarda innovatsiyalar iqtisodiyotning real sektoriga turli xil ixtirolarni joriy etish natijasida yaratiladi, ularga jahon miqyosidagi yangiliklar, texnologik darajasi va sanoatdagi iste'moli yuqori bo'lgan yangi qurilmalar, moddalar, texnologiyalar, tabiiy hujayralar (o'simliklar va hayvonlarning) kiritish mumkin [10] (3-rasm).



### 3-rasm. "Ixtiro" va "innovatsiya" tushunchalarining taqqoslama tahlili

3-rasmni tahlil qilganda, shuni ta'kidlash kerakki, **barcha mualliflik huquqiga ega ob'ektlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:**

- monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari hisobotlari, ilmiy-amaliy konferentsiyalardagi maqolalar, texnik hujjatlar, kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar va boshqalarni o'z ichiga olgan texnik guruh;

- turli san'at asarlarini o'z ichiga olgan gumanitar guruh.

Intellektual mulkning muhim qismini intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish huquqini beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, patentlar, mulk ob'ektlarining sertifikatlari, shuningdek litsenziya shartnomalari sanoat mulki ob'ektlaridan foydalanishda qo'llaniladi. Shu

bilan birga, mualliflik huquqiga ega ob'ektlardan foydalanish mualliflik shartnomalari va oldi-sotdi shartnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Innovatsiya ham mahsulot, ham texnologik jarayon bo'lishi mumkin (to'liq yoki alohida elementlar bo'yicha). Yangilik darajasi bo'yicha innovatsiyalar quyidagi turlarga tasniflanadi:

- bazis innovatsiyalar, ya'ni ular yangi avlod mashinalari va materiallarini o'zlashtirishga qaratilgan va mavjud innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda tubdan yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga mo'ljallangan;

- takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni mavjud mahsulotning sifat yoki qiymat xususiyatlari yaxshilangan innovatsiyalar, shuningdek ishlab chiqarishni sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini qo'llash bilan bog'liq yangiliklar. Ushbu yangiliklar texnologiyalarni ommalashtirish va takomillashtirishga qaratilgan;

- soxta innovatsiyalar, ular mahsulot va xizmatda kichik texnik-texnologik va tashqi o'zgarishlar kiritishni o'z ichiga oladi.

Innovatsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri innovatsion faoliyatga o'tishda uning asosiy turlarini sanab o'tish kerak:

a) ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, ular texnologiyalar va asboblarni sotib olish, shuningdek ishlab chiqarish va sifat nazorati usullari, standartlari va jarayonlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi;

b) ishlab chiqarish oldi ishlanmalari, ya'ni mahsulotni, asbob-uskunalarni va texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ulardan to'g'ri foydalanish uchun xodimlarni qayta tayyorlash;

v) yangi mahsulotlar marketingi - bozorga yangi mahsulotlarni chiqarish bilan bog'liq asosiy faoliyat turlarini amalga oshirish (bozorni o'rganish, unga moslashish, reklama va boshqalar kiradi);

g) tashqaridan turli shakllarda nomoddiy texnologiyani olish (masalan, patentlar, litsenziyalar, nou-xau, savdo markalari, shuningdek texnologik ma'nodagi modellar va xizmatlar);

d) moddiy texnologiyani sotib olish - mashina va uskunalarni o'z ichiga olgan va mahsulotli yoki texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar;

e) ishlab chiqarishni loyihalashtirish - texnik jarayonlar va xususiyatlarni aniqlash uchun rejalar va chizmalarni tayyorlashdan iborat.

Innovatsion faoliyat quyidagilarga asoslanadi:

1) innovatsiyalarni an'anaviy, oddiy ishlab chiqarishdan ustunligi tamoyili;

2) innovatsion ishlab chiqarishning tejamkorlik tamoyili (tijorat samaraga erishish ko'zda tutiladi);

3) moslashuvchanlik tamoyili (har bir yangi g'oya uchun mustaqil innovatsion tuzilma tashkil etiladi, lekin u o'z navbatida boshqa muammolarni hal qilish uchun mutlaqo mos kelmasligi mumkin);

4) majmuaviy tamoyil (masalan, birgina yorqin kashfiyot unga bog'liq bo'lgan bir nechta kichik innovatsiyalarni paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin).

Innovatsion faoliyatni boshqarish qoidalarini va uni qo'llash texnologiyasini bilish tegishli strategiya va taktikani to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Har qanday innovatsion faoliyatning samaradorligi tashkilotni ushbu

yo'nalishda rivojlantirishni taqozo etadi. Innovatsion rivojlanishni boshqarish mazmunini quyidagi qoidalar bilan ifodalash mumkin:

- innovatsiyalarni oldindan ko'rish va rivojlantirish kerak;
- yangiliklarni tezlashtirish va joriy etish zarur;
- innovatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish kerak;
- innovatsion jarayonlarni ma'lum darajada to'xtatib turish va silliqashtirilishi mumkin;

- tashkilot innovatsion faoliyatini boshqarishning ma'lum darajasini ta'minlash lozim.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillarining umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

har qanday tashkilot rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tamoyillarning umumiyliigi;

boshqarish ob'ektlari rivojlangan sari doimiy takomillashib boriladigan tamoyillar o'zgarishi.

Korxonaning rivojlanish qonuniyatlari menejment tamoyillari bilan belgilanadi va uning a'zolari xarakati uchun motivatsiya yaratadi, shuningdek korxonaning innovatsion rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillari innovatsion faoliyat mazmunini belgilaydigan qoidalar hisoblanadi.

Tamoyillardan maqsadga muvofiq foydalanish faoliyat natijadorligi uchun zaruriy zamin yaratadi va innovatsiyalardan salbiy natijalar olish ehtimolini kamaytiradi.

Innovatsion strategiya tamoyillari korxonaning innovatsion faoliyatining asosi bo'lib, uni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beradi. Korxonaning innovatsion strategiyasining quyidagi tamoyillarini sanab o'tish mumkin:

- strategiyani ishlab chiqishda ilmiy va tahliliy bashorat qilish tamoyili;
- inson omilining ustunligi tamoyili;
- korxonaning strategiyasi va mavjud resurslarning muvofiqligi tamoyili;
- korxonaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni tahlil qilish tamoyili;
- korxonada strategik boshqaruv tizimini tashkil etish tamoyili;
- korxonaning strategiyasi va umumiy boshqaruv taktikasining muvofiqligi tamoyili;
- mavjud texnologiyalar nuqtai nazaridan korxonaning strategiyasining maqsadga muvofiqligi tamoyili.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar tashkilotning innovatsion strategiyasini boshqarish uchun umumiy talablar, qoidalar bo'lib xizmat qiladi, ularning eng muhimlari uchta guruhga birlashtirishimiz mumkin: korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tizimini tashkil etish tamoyillari (bashoratlash, muvofiqlik, ilg'orligi, uyg'unlik tamoyili);

1) korxonada innovatsion menejment tizimining kelgusida rivojlanishiga yo'nalish beradigan tamoyillar (moslashuvchanlik, bog'liqlik, uzluksizlik va boshqalar);

2) tashkilotdagi innovatsion amaliyot sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarning mohiyatini belgilaydigan tamoyillar, shu jumladan sinergetizm, partisipativ va antropologik realizm tamoyillari.

Antropologik realizm tamoyili bo'yicha shaxs ongsiz va ongli ravishda

innovatsiyalarga to'sqinlik qilishi yoki yordam ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlangan. Ilmiy isbotlangan va shoshilinch tayyorlangan innovatsiyalar haqiqatan ham ilmiy va ta'lim faoliyatining muayyan sub'ektlarining vakolatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

Shunday qilib, tashkilotning innovatsion rivojlanishi bilan birga xodimlarning innovatsion salohiyatini takomillashtirish jarayoni amalga oshiriladi, ular innovatorlarni doimiy ravishda o'qitish va malakasini oshirishni talab qiladi.

Xardi-Veynbergning populyatsiyalarning genetik barqarorligi to'g'risidagi qonunini inson ijodiy qobiliyatlariga ham qo'llash mumkin. Bir million aholiga to'g'ri keladigan iqtidorli insonlar soni nisbatan o'zgarmaydi. Korxonaning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni boshqarishni shunday tashkil etish kerakki, tashkilot ichida va tashqarisida iqtidorli shaxslarni doimiy ravishda qidirib, shuningdek ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga etarlicha e'tibor berish lozim.

Partisipativ tamoyiliga binoan innovatsion faoliyatning har bir sub'ekti mazkur faoliyatni chuqur tushunadi va ob'ektiv ma'lumotlar oladi, chunki u ushbu jarayonni rejalashtirishda ishtirok etadi. Oxir oqibat, innovatsion faoliyat natijalari juda shaxsiy bo'lib qolib odamlar innovatsiyalarni yana keyinchalik yaratish uchun yangi rag'batlar paydo bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy rivojlanishi sodir bo'ladi, u yangi bilimlarga ega bo'ladi va shaxsiy imkoniyatlari kengayadi.

Partisipativ tamoyilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Florian Znanetskiyning "inson koeffitsienti"ni hisobga olish lozim, u ijtimoiy-pedagogik vaziyatda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlarini hisobga oladi va ular uchun ushbu vaziyatning muhim jihatini hisobga oladi. F.Znanetskiyning fikriga ko'ra, har bir kishi ko'pincha muqobil tanlovga duch keladi: yoki o'rnatilgan qoida-qonuniyatlar shaxsni parchalaydi, yoki shaxs ularni yo'q qiladi.

Sinergetizm tamoyiliga binoan, korxonalar rivojlanishiga boshqaruvning ta'siri qanchalik korxonaning o'zini-o'zi rivojlantirishning ichki yo'nalishlariga mos kelsa shunchalik u samarali hisoblanadi, o'z-o'zini saqlash qonuniga binoan xodimlar innovatsiyalarga qarshi bo'lmaydilar va sinergiyaga erishishga intiladilar. Korxonaning innovatsion rivojlanishini tashkillashtirish tahlil qilinadigan muhitda mumkin bo'lgan va bo'lmagan jihatlarni bilimiga asoslangan bo'lishi zarur, chunki tashqaridan korxonaning innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini majburan belgilash maqsadga muvofiq emas. Rivojlanishni tashqi tomondan uzoq vaqt davomida boshqarish mumkin emas, chunki tashqi ta'sir korxonaning rivojlanishidagi ichki jarayonlarni o'rnini bosolmaydi yoki bekor qila olmaydi.

Shuningdek, rivojlanishning turli modellarini amalga oshirish uchun harakatlar erkinligini ta'minlash lozim. Boshqarishda kutilayotgan o'zgarishlarning (ularning sur'ati, yo'nalishi, tabiati) korxonalar tizimining ichki tarkibiy qismlarini bilan bog'liqligini, uning innovatsion salohiyati mavjudligini, kiritilgan o'zgarishlarda barcha qismlar ishtirokini hisobga olish kerak.

Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan korxonalar raqobatbardosh bo'lib, bozorda etakchi kompaniyalarga aylanadilar. Sifatli va o'z vaqtida yaratilgan innovatsiyalarga asoslangan raqobat korxonalarining faoliyat davomiyligining muhim sharti sanaladi hamda yangi ilmiy natijalarni **rivojlantirish va**



## **tijoratlashtirishda hal qiluvchi omil bo'ladi.**

Shunday qilib, bir tomondan, raqobat muhitida korxonalar yuqori darajadagi ilmiy natijalarni ta'minlashga majbur bo'lmoqdalar, bunga ta'lim xizmatlari sifati, reklama va axborot faoliyatini qo'shib kelmoqdalar, va boshqa tomondan, ta'kidlash joizki, muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega innovatsiyalarni bozor qabul qilmaydi, agar ular korxonalar manfaatlariga javob bermasa.

Raqobat nafaqat hissa qo'shib kelmoqda, balki korxonalarni quyidagi yo'nalishlarda innovatsiya bozorini yaratish va rivojlantirishda ishtirok etishga majbur qilmoqda:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun o'z ilmiy-tajriba bazasini yaratish va takomillashtirish;
- boshqa tashkilotlar bilan birgalikda qo'shma tadqiqotlarni tashkil etish;
- ta'lim va boshqa muassasalar uchun turli xil ilmiy-tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlariga olingan buyurtmalarni bajarish.

Biroq, amaliyot ko'rsatishicha, ko'pchilik yirik korxonalar innovatsion korxonalar emas. Tashqi muhit juda tez o'zgarib turadi, shuning uchun ham innovatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirish lozim. Bu muammo nafaqat raqobat bilan chambarchas bog'liq, balki vaqtga xam bevosita bog'liqdir, chunki yangi mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqarishi tashkilotning samarali ishlashi uchun ob'ektiv zaruratdir. Yuqoridagi tavsiflar korxonaning muvaffaqiyatga erishish vositalaridir, ular bir-biri bilan bog'langan bo'lib tashkilotning innovatsion faoliyatdan oladigan samarasini kuchaytiradi.

Hozirgi kunda korxonalarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan turli omillarga bog'liq, jumladan global raqobat, tezkor texnologik rivojlanish va innovatsion muhitga bog'liq. Ularni malakali boshqarishda rahbariyat ushbu jarayonlarni o'z rivojlanishida hisobga olishlari lozim.

Korxonaning noyobligi uning rivojlanishida innovatsion tarkibiy qismi bilan belgilanadi, unga korxonaning bozordagi pozitsiyasi, ilmiy-ma'rifat faoliyati sifati, intellektual salohiyati darajasi, rivojlanish strategiyalari va innovatsion madaniyati kiradi.

Tashkilotning innovatsion faoliyatining asosiy belgilari - uning uzluksiz rivojlanishga yo'naltirilganligi, prognozlar tuzish va ilmiy, ta'lim faoliyati sifati.

Korxonalar raqobatbardoshlikni ta'minlash va oshirish uchun mutaxassislarini yuqori sifatli tayyorlashni ta'minlashi kerak, bu esa mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash sohalarida katta kuch va mablag'larni talab qiladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanish menejmentini ushbu muhitning imkoniyatlari asosida tashkil etish lozim. Ya'ni tashkilotning innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini tashqaridan aniqlash va boshqarish maqsadga muvofiq emas, chunki bu kabi boshqaruv korxonada ichidagi tabiiy rivojlanish jarayonlarini o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, rivojlanishning muqobil variantlarini amalga oshirish uchun ma'lum darajada harakatlar erkinligini ta'minlash kerak.

Korxonada innovatsiyalarni samarali boshqarish uchun rejalashtirilayotgan o'zgarishlarni xodimlarning kutayotgan natijalari bilan taqqoslash zarur, korxonaning innovatsion salohiyati mavjudligi, shuningdek, barcha sub'ektlarni

bo'lajak o'zgarishlarga jalb qilinganligi juda muhimdir.

Shunday qilib, barcha innovatsiyalarga mos keladigan universal boshqaruv tamoyillari yo'q degan xulosaga kelishimiz mumkin. Har bir vaziyatni ko'rsatkichlari turli bo'ladi va ularga natija bevosita bog'liq hisoblanadi, bu nafaqat tashqi muhitning ta'siri, balki innovatsiyalarning o'zi, innovatsiyalar haqida ma'lumot to'plash, ularni joriy etish to'g'risida qaror qabul qilish kabi innovatsion jarayon bosqichlariga ham ahamiyatlidir. Bir xil tamoyillar turli bosqichlarda innovatsion jarayonga ham hissa qo'shishi, ham to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu belgilar bo'yicha korxonalarivojlanishida mazkur sifat qadam qanchalik zarurligini aniqlash mumkin.

Agar innovatsion jarayonning ma'lum bosqichi korxonaning tarkibiy ko'rsatkichlarida jiddiy o'zgarishlarni talab qilsa, bu avvalambor, xodimlarning hatti-harakati, ular va innovatsiyalar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash, ularni o'qitish va yangiliklarni qo'llashni o'rgatish orqali bartaraf etiladi.

Ushbu jarayonda tashkilot - ijtimoiy tizim bo'lib, u tashqi kuchlar ta'siri ostidami yoki birdaniga xodimlarning yangiliklarga moyilligi ortishi natijasidami innovatsiyalarni joriy etmasin, lekin korxonalarivojlanishidagi muammolarni oldindan tahlil qilish orqali ongli ravishda, shuningdek ushbu muammolarni echimini topish uchun innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tashkil etadi.


Innovatsiyalar va ular bilan bog'liq o'zgarishlarni boshqarishning aksariyat modellari K.Levinning korxonada innovatsiyalarga nisbatan "ma'qul" va "qarshi" yo'nalishlariga bo'linadigan ikki guruh kuchlarning dinamik muvozanat holati borligi haqidagi faraziga asoslanadi. Korxonadagi o'zgarishlarni uch bosqichda amalga oshirish lozim: "eritish", "harakatlantirish" va "muzlatish" bosqichlari, bunda kuchlar muvozanatini saqlab qolish lozim.

Birinchi bosqichda o'zgarishga bo'lgan ehtiyoj mavjud vaziyatdan norozilik hissi tug'diradigan innovatsion muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi. "Harakatlantirish" bosqichida (yoki o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni), innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar taqdim etiladi, xatti-harakatlarning yangi shakllari va namunalari o'rganiladi. "Muzlatish" bosqichida o'zgarishlarning barqarorlashuvi yuzaga keladi, yangi texnologiyalar, hatti-harakatlarning yangi shakllari, namunalari va h.k. qo'llaniladi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyatni to'plangan texnologiyalar, bilimlar va uskunalarni tijoratlashtirishga mo'ljallangan texnologik, ilmiy, tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar majmuasi deb ta'riflash mumkin. Innovatsion faoliyat natijalari, innovatsiyalar – bu yangi yoki takomillashtirilgan tovarlar (xizmatlar), shuningdek yangi sifatga ega tovarlar yoki xizmatlardir.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlar sifatida ham tavsiflash mumkin, assortimentni kengaytirish yoki yangilash hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar sifatini oshirish, ularning texnologiyalarini takomillashtirish, ichki va tashqi bozorda samarali sotish uchun ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqish, qo'llash va tijoratlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'riflab bular barchasi chora-tadbirlar majmuasini talab etadi va oxir oqibat innovatsiyalarga olib

keladi. 1.4-rasmda innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.



**1.4-rasm. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari**

Zamonaviy mahalliy tadbirkorlar innovator bo'lishlariga qaramay ishlab chiqarishga chet elda o'z samaradorligini isbotlagan texnologiyalar joriy etilmoqda. Buning sababini bugungi kunda mamlakatimiz texnik nuqtai nazardan etakchi emasligi bilan izohlash mumkin. Shu munosabat bilan biz uchun imitatsion rivojlantirish strategiyasi juda samarali hisoblanadi. Ammo O'zbekiston o'zining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini rag'batlantiradigan institutsional o'zgarishlar zarur.

Ko'pincha korxonalar o'z ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun byudjet mablag'lari etishmasligida davlatni ayblaydilar, bu omilni ularning innovatsion faolligida asosiy to'siq sifatida belgilaydilar.

Shu bilan birga, so'rov natijalariga ko'ra, bo'sh mablag'larga ega bo'lgan tashkilotlarning faqat yarmi ularni innovatsiyalarni joriy etishga sarflagan. Shunday qilib, mavjud institutsional muammoni echilishi O'zbekiston korxonalarining innovatsion faolligini keskin oshirmaydi. Bundan tashqari, misol uchun rejali iqtisodiyotda tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash innovatsiyalarning hajmini o'sishiga yordam bermadi.

Ta'kidlash joizki, innovatsiyalar ko'proq xorijiy raqobatga uchragan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun innovatsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan moliyalashtirishdan ko'ra, bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish, O'zbekiston korxonalarini uchun kredit olish bo'yicha cheklovlarini kamaytirish va umuman moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha choralar samariloq hisoblanadi. Bunday strategiya milliy iqtisodiyotni imitatsion modelidan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish uchun zarur shartdir.

Innovatsiyalarni ishlab chiqish olimlar va muhandislar tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu jarayonni tashkil etish, moliyalashtirish manbalarini izlash, ishlanmalarni joriy etish va bozorga tayyor mahsulotni joylashtirish bilan innovatsion menejerlar shug'ullanadilar. Ular O'zbekiston sharoitida deyarli yo'q bo'lganligi sababli, innovatsion-imitatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshiruvchi tashkilotlar o'z menejerlarini chet elga o'qishga yoki amaliyot o'tash uchun yuboradilar. Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilishda milliy iqtisodiyotning innovatsion darajasini oshirish sohasida maqsadli davlat siyosati bo'lishi zarur.

O'zbekiston biznes-maktablarini g'arbiy uslubda ishlaydigan ta'lim institutlariga aylantirish milliy tashkilotlarning innovatsion faolligini oshirishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi, chunki innovatsion menejment O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish tizimiga aylanadi va innovatika, ya'ni korxonalarining innovatsion faoliyatini metodologiyasi va tashkil etilishi bo'yicha bilimlar sohasi shakllanadi.

Innovatsiyalar ishlab chiqilishiga investitsiya kiritish innovatsion jarayonning ajralmas qismidir. Bu erda asosiysi - yangilikni joriy etish, uni innovatsiya shakliga keltirish yoki ijobiy natijaga erishish. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida yangi, yanada samarali ishlab chiqarish omillari, investitsiyalar va ilg'or innovatsiyalar paydo bo'ladi.

Innovatsiyalar asosida rivojlanish nafaqat iqtisodiyotning balki fan sig'imli tarmoqlarida amalga oshirilishi lozim, garchi ular innovatsiyalar hayotiy tsiklining bosqichlarida ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyati sifatini oshirishga va resurslarni tejashga hissa qo'shsa ham, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning intellektual o'zgarishini ta'minlaydigan ta'lim sohasida ham amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, "innovatsiya" kategoriyasining tavsifi shundan dalolat beradiki, uning asosiy elementi sifatida innovatsion faoliyatning pirovard natijasi - yangi mahsulot xizmat qiladi, shuningdek, yangidan yaratilgan yoki takomillashtirilgan texnik-texnologik jarayon hisoblanadi.

## **2. Innovatsion faoliyatning mohiyati va turlari, innovatsion faoliyat kontseptsiyasi**

Innovatsion faoliyat makon va zamonda mavjudligi, o'z o'rniga ega ekanligi sababli iqtisodiyotning muhim ob'ektlaridan biri hisoblanishi tabiiy hol. Biroq, iqtisodiyotga oid adabiyotlarda innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyati, uni tasniflash va tavsiflash asoslari, ushbu faoliyatga doir ma'lumotlarni hisob va hisobotda real aks ettirilganligini tekshirish tartibi etarlicha ochib berilmagan. Shu bois ham innovatsion faoliyatning iqtisodiyot ob'ekti sifatidagi mohiyatiga, uni tasniflash va tavsiflash asoslariga batafsil to'xtalib o'tish zarur.

"Innovatsion faoliyat" atamasi negizida, avvalambor, "innovatsiya" so'zi, ushbu so'z negizining o'zida esa "novatsiya" so'zi yotadi. O'zbek tili lug'atiga bu so'zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha "innovation", ruschasiga "innovatsiya" so'zi lug'atlarda "novovedenie", "novatorstvo" sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko'ra bu so'z o'zbek tiliga "yangilik kiritish", "yangi

usul”, “kiritilgan yangilik” kabi ma’nolarda o‘girilgan va izohlangan. “Novatsiya”, lotincha “novation” so‘zi rus tilidagi lug‘atlarda “izmenenie”, “obnovlenie”, o‘zbek tili lug‘atlarida esa “o‘zgarish”, “yangilanish” ma’nosida talqin etilgan.

“Innovatsiya” atamasi maxsus lug‘atlarda va adabiyotlarda ham turlicha ta’riflangan hamda izohlangan. Chunonchi, rus tilida chop etilgan “Bolshoy buxgalterskiy slovar”da<sup>3</sup> innovatsiya atamasiga “texnika va texnologiya avlodini almashtirishni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag’ kiritish”; “ilmiy-texnik progress yutuqlari natijasi hisoblangan yangi texnika va texnologiya” mazmunlarida ta’rif berilgan.

V.A.Makarenko<sup>4</sup> tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlar lug‘atida “innovatsiya” terminiga yana ham kengroq tavsif berilgan. Lug‘atda “innovatsiya” termini quyidagi mazmunda bayon qilingan: “innovatsiya - bu:

– texnika va texnologiya avlodining almashinuvini ta’minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag’ yo‘naltirish;

– ilmiy-texnika taraqqiyotining mas’uli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyadan foydalanish;

– yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;

– individual tushadagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish;

– tilshunoslikda yangidan tashkil etish, nisbatan yangi ko‘rinish. Adabiyotlarda innovatsiya atamasiga “yangilanishga qilingan investitsiya”, “yangi jarayon, mahsulot, xizmatlarni amaliy o‘zlashtirish natijasi”, “yangi texnika yoki texnologiyaga, mehnatni tashkil qilishga, xizmat ko‘rsatishga, boshqaruvga va boshqa maqsadlarga kiritilgan kapitaldan olingan moddiy hamda nomoddiy mulk” kabi mazmundagi izohlar ham berilgan. Shuningdek, innovatsiyaga yangilikni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish jarayonlari, bu jarayonlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi faoliyat sifatida ham ta’riflar berilgan.

Demak, yuqorida keltirilgan ta’riflar, izohlarga asoslanib ta’kidlash joizki, “novatsiya”, “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat” har qanday kishilik jamiyatini, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini ravnaq toptirish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni, jarayonlarni, moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi yangi yaratilayotgan mulkni ifodalovchi tushunchalardir.

Innovatsiya xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovatsiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha jabhalarida qo‘llash mumkin. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi. Innovatsion faoliyat quyidagi yo‘nalishlardagi yangilikni ixtiro qilish va joriy qilishni o‘zida mujassamlashtiradi:

<sup>3</sup> Bolshoy buxgalterskiy slovar. Pod redaktsiey A.N.Azriliyana. – M.: Institut novoy ekonomiki, 1999. S.150.


<sup>4</sup> Makarenko V.A. Sovremenny slovar. 2 t. –M.: 2000.

- yangi mahsulot;
- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkiliy shakli;
- yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalar.

Shunday qilib, innovatsiyalarni joriy qilishning eng qulay darajalarini e'tiborga olgan holda innovatsion faoliyatga quyidagicha ta'rif va tavsiflarni berish mumkin (1-rasm).

Innovatsion faoliyat - ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oya va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

Innovatsiya esa amaliyotda qo'llanilgan va birmuncha samara bergan printsiplial yangi g'oya hisoblanadi. Ma'lum bir korxonada qo'llanilib, ma'lum bir samara yoki daromad keltirgan innovatsiya bu ilmiy yoki boshqaruv sohalarida oldindan ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday innovatsiya ichki yoki lokal innovatsiya deyiladi.



### 1-rasm. Innovatsiyani iqtisodiy faoliyat sifatida turlari

Tashqi innovatsiya deb shunday innovatsiyalarga aytiladiki, ular butun jamiyat uchun yangi qo'llanilgan bo'ladi, masalan yangi mahsulot, yangi boshqaruv tizimi, yangi qonun, yangi ijtimoiy dastur va boshqalar. Bunday innovatsiya odatda umumiylik harakteriga ega bo'lib, ularga keng miqyosida qo'llanilish harakterlidir.

Innovatsiyalarning harakterli jihatlari (belgilari) sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangilik (ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy-boshqaruv, ijtimoiy va h.k.);
- amaliy ahamiyatliligi (fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning rivojlangan darajasida ham innovatsiyani qo'llanilish mumkinligi);
- tijoratni ahamiyati (bozor iqtisodiyotida qo'llanilishi, bu innovatsiyani samaradorligining shartidir).

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning tashabbuskori bo'lib tadbirkor, ya'ni shaxs hisoblanadi, chunki, aynan tadbirkor (shaxs) foyda olish uchun resurslardan oqilona foydalanish yo'lini izlay boshlaydi.

D.Kondratev<sup>5</sup> farazi bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanishi davrlar yoki to'lqinlar

<sup>5</sup> D.Kondratev «Analiz finansovoy otchetnosti». – M.: Finansoi statistika, 1996. S.383.

kabidir, ya'ni to'liqlar uzun bo'lishi mumkin, iqtisodiy rivojlanishning uzoq davri (30-50 yil), qisqasi (3-5 yil) bo'lishi mumkin. Har qanday to'liqlarning boshlanishi iqtisodiy o'sish bilan boshlanib, to'xtashi iqtisodiy pasayish bilan tugaydi.

Agarda iqtisodiy rivojlanish qisqa davrda pasayish bilan tugaganda, uni ishlab chiqarish va texnologiyasida ozgina o'zgarish yuz beradi, unga ko'tarilish bilan o'tib olinsa, uzun to'liqlarni, ya'ni uzoq davrli iqtisodiy inqirozlarni bazisli innovatsiya orqali, ya'ni ishlab chiqarish va iqtisodiyot, fan, texnologiyani tubdan o'zgartirib amalga oshirish mumkin, chunki uzoq davrli iqtisodiy inqirozlar chuqur harakterga ega bo'ladi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasining asoschisi bo'lib Y.Shumpeter hisoblanadi. Uning nazariyasiga asosan chuqur iqtisodiy inqirozlar bazisli innovatsiyalar asosida bartaraf etiladi, bu holda nafaqat iqtisodiyot o'zgaradi, balki ijtimoiy rivojlanishda o'z izini qoldiradi, chunonchi yangi tarkiblar va yangi mutaxassisliklar tashkil topadi, yangi fanlar, ishlab chiqarishda yangi tarmoqlar tashkil qilinadi, yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Demak, innovatsiya bu insoniyat rivojlanishi va taraqqiyotining nafaqat iqtisodiy nuqtai-nazaridan, balki aqliy, intellektual nuqtai-nazari bo'yicha ham rivojlanish majmuidir. Innovatsiya intellektual mehnat mahsuloti bo'lib, tsivilizatsiyani rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.


Innovatsion imkoniyat yoki quvvat ob'ekt innovatsion taraqqiyotining oxirgi chegarasidir. Davlatning innovatsion imkoniyatini uch xil usul bilan aniqlash mumkin:

– hududiy (hudud innovatsion imkoniyatining o'rtacha solishtirma ko'rsatkichi);

– tarkibiy (xo'jalik yuritish tarmog'ining innovatsion imkoniyatini o'rtacha solishtirma ko'rsatkichi);

– ijtimoiy (xalq innovatsion imkoniyatining o'rtacha solishtirma ko'rsatkichi)<sup>6</sup>.

Ushbu usullarga tayangan holda makon va zamonda innovatsion imkoniyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Innovatsion imkoniyatning iqtisodiy kategoriya sifatida tasnifi**

<sup>6</sup> Glushkov I.E., Kiseleva T.V. «Buxgalterskiy (nalogovo'y, finansovo'y, upravlencheskiy) uchyot na sovremennom predpriyatii». 2 tom. – M.: 2004. S.137

Xalqning innovatsion imkoniyati jamiyatning ilmiy salohiyati va ilmiy yoʻnalishini ifodalaydi, bu oʻz navbatida uni mintaliteti, rivojlanish tarixi, ijtimoiy va siyosiy aspektlarga bogʻliqdir.

Hududning innovatsion imkoniyati maʼlum bir hududning rivojlanish chegarasini, imkoniyatlarini aniqlaydi. Ushbu koʻrsatkich territorial-hududning innovatsion imkoniyatiga kiradi, lekin davlatni hududiy innovatsion siyosatini belgilashda, uni tashkil etishda muhim asos boʻladi.

Fanning innovatsion imkoniyati ilmiy sharoitni, ilmiy muhitni yangiliklar va ixtirolar yaratish qobiliyati qanday ekanligi bilan belgilanadi.


Tarmoqning innovatsion imkoniyati bu uni tashkil qilgan korxonalarining oʻrtacha innovatsion imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning innovatsion imkoniyati ishlab chiqarishni texnik va texnologik imkoniyatlari chegarasini belgilaydigan koʻrsatkichdir. Ishlab chiqarish jarayonida innovatsiya faqat ishlab chiqarish innovatsion imkoniyati talab darajasiga mos kelganda, talab qilinganda qoʻllanishi mumkin. Aks holda korxonaning innovatsion imkoniyati darajasini koʻtarish uchun qayta jihozlash, uskunalarni yangilash lozim boʻladi.

Korxonaning innovatsion imkoniyati ishlab chiqarishning innovatsion imkoniyatlari darajasiga bogʻliq boʻladi, lekin korxonaning boshqa boʻlinmalari innovatsion imkoniyatlari bilan oshiriladi.

Innovatsion faoliyatning pirovard natijasi boʻlib innovatsiyamahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) oʻzining hajmi bilan farqlanadi, u yangi texnologiyani joriy etilishievaziga korxonada ishlab chiqarish imkoniyatlarini oʻsishini ifodalovchikoʻrsatkichlarda oʻz aksini topadi.

Innovatsion faoliyat oʻz ichiga maʼlum bosqichli jarayonlarni oladi. Ushbu bosqichli jarayonlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni quyidagicha ifodalash mumkin (3-rasm).



**3-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar**



Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan natijasiga ko'ra korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, ya'ni uning bir bo'lagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish kabi ishlarni ham bevosita o'z ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag'lar jami kapital investitsiyaning yangi g'oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo'lgan qismidir.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yuz bergan va berayotgan, o'zining moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga ega bo'lgan, bunga erishish uchun ma'lum sarf-harajatlarni talab qiladigan xo'jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarining innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o'tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi ob'ektlardan biri hisoblanadi.

***Innovatsion faoliyat yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihalar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga; bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bog'liq qo'shimcha ilmiy tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayon ekan, unga*** quyidagi faoliyat turlarini kiritish mumkin:

- amaliyotda qo'llash uchun mo'ljallangan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqotchilik, tajriba- konstruktorlik yoki texnologik ishlar bajarish;
- yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon joriy qilish uchun ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik qayta jihozlash;
- yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni sinab ko'rishni amalga oshirish;
- harajatlar o'zini oqlashiga qadar yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon qo'llash, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish;
- yangi mahsulotni bozor tomon harakatlantirish bo'yicha faoliyat;
- innovatsion infratuzilma yaratish va rivojlantirish;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun xodimlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- sanoat mulki ob'ektlari yoki maxfiy ilmiy-texnik axborotlarga egalik huquqini boshqalarga berish yoki harid qilish;
- yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish va amaliyotda qo'llash bo'yicha ekspertiza, maslahat, axborot, yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatish;

– innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkil qilish. Innovatsion faoliyat sub'ektlari quyidagilardan iborat:

– innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

– innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar; innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari: korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;

– innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar, lizing firmalari va h.k.;

– innovatsion jarayonga xizmat ko'rsatadigan va uning infratuzilmasini ta'minlaydigan vositachilar: konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va h.k.;

– innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari.

Sub'ektlar o'rtasida ular borasida iqtisodiy va huquqiy munosabatar vujudga keladigan innovatsion faoliyat mahsulotlari (natijalari) quyidagilar hisoblanadi:

– muayyan innovatsiyalarni o'zlashtirish natijalari va texnologiyalarni belgilab beradigan innovatsion loyihalar (biznes- rejada o'z aksini topadigan oraliq natija);

– yakuniy mahsulotni sotishda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samarani ta'minlaydigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishda o'zlashtirish;

– fan-texnika yutuqlarining natijasi hisoblangan tamomila yangi va yaxshilangan mahsulotlar (tovar va xizmatlar).

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida innovatsiya va ilmiy texnika sohasidagi siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi, innovatsiya va ilmiy-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishning huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarini yuzaga chiqarish. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va sanoat korxonalarini texnologik jihatdan qayta qurollantirishning asosiy vositasi davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur dasturning maqsadi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Natijalari o'rta muddatli sharoitlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi, ilmiy va texnologik innovatsiyalarni davlat tomonidan tashkillashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

2. Ilmiy-texnika tadqiqotlari – amaliy-texnik tadqiqotlar, texnologiyalar raqobatbardosh mahsulotni sanoat ishlab chiqarish davrining uzluksizligini ta'minlash.

3. Dastur doirasida ishlab chiqilgan va o'zlashtiriladigan, progressiv, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga hamkorlik qilish.

4. Ilmiy innovatsiya va sanoat sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish sohasida- gi tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi zarur:


- davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini;
- belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funktsiyalarini;
- boshqaruv funktsiyalarini to‘liq amalga oshirishda tartibga solish ob’ekti va axborot beradigan axborot tizimini;
- davlat boshqaruv organlarining qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari - davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo‘ladi, balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o‘rtasida byudjet va byudjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to‘g‘ridan- to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashni;
- innovatsion jarayonlarning sub’ektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etishni (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga, ham ularni yoki bu darajada qo‘llab-quvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);
- iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o‘rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi xodimlarni tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta’minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta’minlashdan iborat.

### **3. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion rivojlanish**

XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g‘oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Xorijiy adabiyotlarda “innovatsion infratuzilma” atamasi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishda o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan tashkilotlar yig‘indisi sifatida ta’riflanadi.

#### 4-rasm. Innovatsion infratuzilmaning umumiy ko'rinishi



*Innovatsion faoliyat infratuzilmasi - innovatsion faoliyat sub'ektlariga innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar jamlanmasidir.* Innovatsion faoliyat infratuzilmasi sub'ekti deb innovatsion faoliyat sub'ektlariga ishlab chiqarish, texnik, konsalting, moliyaviy, axborot va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tan olinadi (4-rasm).

Innovatsion infratuzilma g'oyalar ishlab chiquvchi innovatorlar va bu g'oyalarni muayyan mahsulot va xizmatlarda mujassam etuvchi innovatorlarning mehnatini taqsimlash asosida shakllantiriladi. Bu mehnat turlari albatta, o'zaro bog'liq, lekin shu bilan bir paytda o'ziga xos hisoblanadi.

Agar “innovator-generator” yangi g’oyalar ishlab chiqishni tashlab, o‘z ishlanmalarini sanoat va texnologik jihatdan amalga oshirishga, ayniqsa, muayyan marketingga “etkazish” bilan shug’ullanadigan bo‘lsa, bu holatda shu vaqt davomida yangi g’oya ishlab chiqish jarayoni sezilarli darajada sekinlashadi yoki umuman to‘xtab qoladi, bu esa kelgusida yuqori ixtisoslashuv bilan yangi g’oyalarni oxiriga etkazish bilan shug’ullanuvchilar ish bilan ta’minlanishiga va ish joylariga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan infratuzilma ta’minotining bozor variantlari va bunday taqsimlashning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi kelib chiqadi.

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi birinchi navbatda, alohida bo‘lib o‘tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta’minlovchi tizimni ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuni iste’molchi bilan birlashtiradi.

Bevosita innovatsiyalash, ya’ni innovatsiyalarni taklif sifatida yaratish uchun va innovatsion tadbirkorlik, ya’ni bu takliflarni amalga oshirish va ilgari surish uchun infratuzilma elementlarining mazmun-mohiyatiga kengroq e’tibor qaratish zarur (1-jadval).

Mazkur infratuzilma turlarining ayrim elementlari mos kelishi yoki umumiy bo‘lishi mumkin, axborot xizmatlari ko‘rsatuvchi firmalar, tajriba va muhandislik markazlari, moliyaviy tuzilmalar, patentli-litsenziyalik tashkilotlardir.

Oxirgi paytlarda texnoparklar, innovatsion-texnologik markazlar, innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari ko‘proq rivoj topmoqda.

***Innovatsion-texnologik markaz*** bir erga zich joylashgan kompleks bo‘lib, umumiy ko‘rinishda ilmiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari, sanoat korxonalarini va kichik firmalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Texnoparklar yaratishning asosiy maqsadi yaratilayotgan texnologiyalardan samaraliroq foydalanish maqsadida ilmiy muassasalar, sanoat va biznes o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirishdir. Texnoparkning asosiy funksiyasi kichik korxonalarni inkubatsiyalash maqsadida tadqiqotlar o‘tkazish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar (kichik va o‘rta innovatsion korxonalar) uchun binolar taqdim etish hisoblanadi. Ko‘pincha texnoparkka asoslanadigan firmalarga, shuningdek, biznesga xizmat ko‘rsatish (muzokara o‘tkazish uchun infratuzilma, aloqa, internetga ulanish, buxgalteriya xizmatlari), moliyalashtirish manbalari izlab topish va mahsulotni bozorga chiqarish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatiladi.

## Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali

Innovatsion tadbirkorlik uchun	Bevosita innovatsiyalash uchun
Joriy qiluvchi firmalar Muhandislik markazlari Injenering firmalari Axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar Konsalting firmalari Reklama faoliyati bo'yicha firmalar Banklar va boshqa kredit tashkilotlari Innovatsiyaga ixtisoslashgan auditorlik firmalari Ilmiy-texnik shirkatlar Xodimlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari Sertifikatsiya markazlari Lizing kompaniyalari Patent-litsenziyali tashkilotlar Biznes-inkubatorlar Texnologiyalar transferi markazlari Sug'urta kompaniyalari	Sanoat universitetlari va xalq xo'jaligining boshqa sektorlari Tadqiqotchilik majmualari Fanlar akademiyasi Kutubxonalar va ma'lumotlar to'plamlari Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar Tajriba laboratoriyalari va markazlari Axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar Patent-litsenziyali tashkilotlar Ilmiy parklar Innovatsion markazlar Innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari

**Texnologiyalar transferi markazlari (TTM)** ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatishi, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratishni ta'minlashi ko'zda tutilgan (2-jadval).

Shuni ta'kidlash joizki, TTM tizimining samarali ishlashiga qator omillar to'sqinlik qiladi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- mintaqalar miqyosida innovatsion jarayonlarni boshqarishning sust tashkil etilganligi;
- ko'pchilik TTMda ham ichki, ham xorijiy bozorlarga chiqish bilan bog'liq muammolar;
- TTM tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishi uchun resurslar bazasining etarli emasligi;
- Innovatsion faoliyat kuchayishini rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy asoslarning yo'qligi.

## Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari

Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari	Texnologiyalar transferi bosqichlari
Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish	Tadqiqot natijalarini e'lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko'rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalikhuquqini sotish
Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotning sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash	Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxonani tashkil etish Texnologiyani sotish
Texnologiyani maromiga etkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisini tashkil qilish Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya	Mahsulotni ko'paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Servis Texnologiyani sotish Korxonani aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatsiyalash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxonani aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko'paytirish Ishlab chiqarishni sertifikatsiyalash Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlar sotish Servis Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Texnologiyani sotish Korxonani aksiyalarini sotish Biznesni sotish

Konsalting infratuzilmasining boshqa tashkilotlari ancha sust rivojlangan. Marketing sohasidagi xizmatlar va tashqi bozorga chiquvchi tashkilotlar taqchilligini alohida aytib o'tish lozim. Bu sohalarda axborot taqchilligini *milliy axborot-tahliliy markazlar* qisman kamaytirishi mumkin.

Aytib o'tilganidek, innovatsiya yangi ko'rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rnlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasidir.

Texnologik innovatsiyalar deganda yuridik shaxsning texnologik yangi

mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek, mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa ham) bo'lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud. Bular: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o'z ichiga oladi. Texnologik yangi mahsulot – texnologik xususiyatlari (funktsional belgilari, konstruktiv yo'l bilan bajarilishi, qo'shimcha operatsiyalari, shuningdek, qo'llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo'llanilish maqsadi printsiptial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o'xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar printsiptial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot – bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o'zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo'li bilan ishlab chiqarilishining sifat

bo'yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar tashkilot uchun yangi bo'lishi kerak. Ular bozor uchun yangi bo'lishi shart emas. Innovatsion mahsulotlar qaysi tashkilot tomonidan tayyorlanganining ahamiyati yo'q.

Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak.

Shavkat Mirziyoev

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek, mahsulotlarini etkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo'llashga, shuningdek, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki etkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek, odatdagi usullar



yordamida amalga oshirish imkoni bo'lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalarni tashkilot birinchi bo'lib joriy qilgan bo'lishi muhim emas.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o'zgartirishlar; mahsulotning konstruktiv vazifalarini o'zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko'rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga etarlicha sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan texnik va tashqi ko'rinishda sezilarsiz darajadagi o'zgartirishlar;

- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta'minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida etarlicha ma'lum bo'lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish (boshqa ixtisoslik bo'yicha bo'lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko'paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo'yicha mahsulot, ya'ni mix ishlab chiqarilishi;

- ma'lum modeldagi qo'shimcha dastgohlarni o'rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

- to'laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar.

Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xususiyatlari, foydalanish usullari printsiplial jihatdan yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan (sifatli) xizmatlar texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Xizmatlar ishlab chiqarish va etkazib berishning sezilarli darajada takomillashtirilgan usullaridan foydalanish ham texnologik innovatsiyalar sanaladi. Bu mavjud ishlab chiqarish usullaridan foydalangan holda yoki mavjud xizmatlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berishning samaradorligini oshirgan holda, ishlab chiqarilmaydigan yoki etkazib berila olinmaydigan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan asbob-uskunalaridagi yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishidagi o'zgarishlarni qamrab olishi mumkin.

Yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, uni ishlab chiqarish (etkazib berish) usullarini printsiplial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalarning yangi kombinatsiyalariga, shuningdek yangi bilimlarga asosan joriy etish mumkin.

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi: printsiplial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish; mavjud xizmatlarga yangi funktsiyalar va xususiyatlar qo'shish orqali uni

takomillashtirish; xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

Xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi.

Quyidagi o'zgartirishlar, agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va etkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog'liq bo'lmasa, texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi:

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar (jumladan, boshqarishning ilg'or usullariga o'tish, jiddiy o'zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, tashkilotning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o'zgartirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish);

- sifat standartlarini joriy etish.

Marketing innovatsiyalarideganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlar; mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek, ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. Bu o'zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, sotish hajmini ko'paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mahsulot dizaynidagi o'zgartirishlar yangi marketing kontseptsiyasining bir qismi bo'lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko'rinishidagi o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Bular mahsulotning funktsional va foydalanish xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Shuningdek, bunday o'zgartirishlarga qadoqlanishni tashqi ko'rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog'idagi o'zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog'liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish tashkilotning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi kontseptsiyalardan foydalanishni anglatadi.

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar – tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o'zgarishlar, agar ular yangilik olib kelmasalar, marketing innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon mahsulotning funktsiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o'zgarishlar mavjudligidir. Agar mahsulot va xizmatlarning funktsional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlarnikidan ancha yaxshilangan bo'lsa, bu mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o'zgarishlar esa, agar uning funktsional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa, bu marketing innovatsiyalari

hisoblanadi.

Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga harajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni etkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo'llagan holda) oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tashkiliy innovatsiyalar – biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion harajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki etkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tashkilot bunday tashkiliy innovatsiyalarni birinchi bo'lib joriy etgan bo'lishi muhim emas.

Biznesni yuritishdagi innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi. Masalan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish; xodimlarning saviyasini oshirishga va ko'chib yurishini kamaytirishga mo'ljallangan o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; ishlab chiqarish va etkazib berishni to'liq boshqarish, jumladan, etkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek, sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha innovatsiyalar – tashkilotning alohida faoliyat turi doirasida yoki turli faoliyatlari (tarkibiy bo'linmalari) o'rtasida ishlarning bajarilishi bo'yicha xodimlar orasida javobgarlik va vakolatlarni taqsimlashning yangi usullarini yo'lga qo'yishdir. Shuningdek, faoliyatni strukturizatsiya qilish, ya'ni faoliyatning turli yo'nalishlarini integratsiyalashtirish bo'yicha yangi kontseptsiyalarini joriy etishdir.

Tashkilotning tashqi aloqalaridagi yangi tashkiliy usullar – boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni tashkil qilishning yangi usullarini yo'lga qo'yishdir. Ya'ni bular quyidagilarni yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi: buyurtmachilar yoki ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishning yangi usullari; etkazib beruvchi bilan integratsiyalashishning yangi usullari; ishlab chiqarish, ta'minot, taqsimot sohasida, xodimlar bo'yicha va yordamchi savollarni hal qilishda subkontrakt munosabatlari.

Tashkilotda ilgari qo'llanilgan tashkiliy uslublarga asoslangan biznesni yuritishdagi, ish o'rinlari va tashqi aloqalarni tashkil etishdagi o'zgartirishlar – tashkiliy innovatsiyalar hisoblanmaydi. Shuningdek, boshqarish strategiyalarini shakllantirish ham, o'z-o'zidan, innovatsiya hisoblanmaydi. Lekin, bu tashkiliy o'zgartirishlar yangicha boshqaruv strategiyasiga muvofiq tashkilot amaliyotida birinchi marta qo'llanilayotgan bo'lsa – innovatsiya hisoblanadi. Intellektual mulk ob'ektlariga egalik huquqini harid qilish va berishda eng katta faollik xorijiy kompaniyalarga tegishli (bozorning 60 %i). Shu munosabat bilan mamlakatdagi fan va ta'lim bilan bir tomondan va ishlab chiqarish bilan ikkinchi tomondan o'rtadagi farq katta tashvish uyg'otadi. Xususan, bizning akademik va ta'lim tuzilmalarimiz

amalda bunday bitimlarda ishtirok etmaydi. Boshqa yana bir tashvishli holat bu intellektual mulk ob'ektlari bo'yicha shartnomalarning 70 %dan ko'pi tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilariga to'g'ri keladi. Bunday yondashuvga amal qiladigan bo'lsak, kutilayotgan texnotuzilmaga erishishni hali ko'p kutishga to'g'ri keladi. Institutsionalizmning ko'zga ko'rinarli vakili bo'lgan. Dj.K.Gelbreytning so'zlariga ko'ra «olimlar, muhandislar va texniklar, reklama va savdo operatsiyalari bo'yicha mutaxassislar, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha ekspertlar, lobbistlar, advokatlar hamda byurokratiya apparatlari va uning faoliyati xususiyatlari bilan yaxshi tanish kishilar, shuningdek, vositachilar, boshqaruvchilar va ma'muriyat xodimlari yig'indisidir».

Mahalliy xususiy sektorning mamlakatdan tashqarida qizg'in kechayotgan innovatsiya ruhi bilan ishi yo'q. P.Drukerning fikricha, fikrlashning innovatsion turi tadbirkorga tabiatdan in'om etilar ekan. Biroq bu unchalik ham to'g'ri emas. Bunday qobiliyat fikrlash va amaliy faoliyat yuritish natijasida shakllanadi deb aytsak to'g'riroq bo'ladi. Demak, ishbilarmonlar o'z kompaniyalarida zamonaviy innovatsion menejmentni rivojlantirishi maqsadga muvofiq.

Umuman, innovatsion tarkibiy qism davlat iqtisodiy siyosatining har bir (makroiqtisodiy, tuzilmaviy, tarmoq va mintaqaviy) yo'nalishida ko'zda tutilishi lozim. Innovatsion siyosat davlatning sanoat siyosatini samarali amalga oshirish hisobiga ham muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Masalan, tarmoqlararo ishlab chiqarish zanjirini vertikal integratsiyalab, nafaqat moliyaviy-iqtisodiy, balki ilmiy-texnik jihatdan ham innovatsiyalarga erishish, butun vertikal bo'ylab kumulyativ yoki sinergetik ta'sir ko'rsatish mumkin. Innovatsiyalar kapital to'planishi yangiliklar ishlab chiqish va kiritish uchun etarli zamin hozirlagan paytlarda korxonalar gorizontalar aloqalari darajasida ham vujudga kelishi va o'zlashtirilishi mumkin. Bu jihatdan sanoat siyosati iqtisodiyotning o'sish nuqtalarida resurslar markazlashuviga xizmat qilishdan tashqari ularning innovatsion imkoniyatlarini ham rivojlantiradi.

Ekspertlarning hisoblashicha, "korxonalarini yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi". Bizning bozorda faqat hukumatgina innovatsiyalar ruhini uyg'otishi mumkin degan yolg'on tasavvur vujudga kelishi mumkin. Faqat uning strategik muammosi kuchli iroda, real stimullar va resurslar bilan ta'minlangan holda tadbirkorlikning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin.

### **Tayanch so'zlar**

Faoliyat, boshqarish, innovatsiya, infratuzilma, rivojlanish, texnologiya, g'oya, ishlanma, makro, mikro, huquq, tashkilot, yangilanish, investitsiya, yangi texnika, tashkiliy, kontseptsiya, strategiya, jarayon, faoliyat, soha, korxonalar, eksport, import.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsion faoliyat kontseptsiyasi tushunchasini sharhlab bering ?
2. Korxonaning innovatsion salohiyati va uni amaliyotda foydalanish qobiliyatini

qanday aniqlash mumkin?

5. Intellektual salohiyat qanday aniqlanadi va uni innovatsion salohiyati bilan qanday farqi bor?
6. Korxonaning innovatsion salohiyati qanday baholanadi?
7. O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining vazifalari nimalardan iborat?
8. O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish bo‘yicha qanday muammolar mavjud?
9. Sohalarda bo‘yicha innovatsiyalardan samarali foydalanish holati qanday?
10. Texnologik innovatsiyalar qanday yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi?
11. Marketing innovatsiyalari yo‘nalishlari qanday?
12. Innovatsiyaning bugungi kundagi ahamiyati va korxonada rivojlanishidagi o‘rni qanday?

## **2. INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI**

### **1. Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2022 yil 6 iyulda “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish nazarda tutilgan.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi<sup>7</sup>:

davlat ilmiy dasturlari doirasida xususiy sektorning innovatsion faolligini oshirishda ularning ilmiy-tadqiqot loyihalarini tanlovlar asosida moliyalashtirishning yangi ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;

ilmiy-tadqiqot faoliyat sifatini oshirish hamda uni tijoratlashtirish darajasi samaradorligini ta’minlash;

ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sektor sherikligida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish;

innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun xalqaro moliya tashkilotlari va jamg‘armalari mablag‘larini jalb qilish;

texnoparklar rezidentlari o‘rtasida innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun yagona soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish;

ilmiy tashkilotlarda boshqaruv va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda ularni modernizatsiya qilishning namunaviy tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish;

yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan qayta tiklanuvchi energetika, yangi kompozit materiallar, robototexnika, biotexnologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, aqlli qishloq xo‘jaligi, aqlli tibbiyot, aqlli sanoat va klasterlash (mis va vinochilik) kabi strategik yo‘nalishlar bo‘yicha sun‘iy intellekt, buyumlar interneti hamda raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etishda resurslarni jamlash, yangi ish o‘rinlari va mahsulot yaratish hamda yangi xizmatlar tashkil qilish;

tadbirkorlik va biznesni boshqarish sohalarining zarur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsiya markazlari va yoshlar texnoparklari asosida kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan o‘quv dasturlarini amalga oshirish;

davlat xaridlari doirasida innovatsion texnologiyalar asosida tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar uchun imtiyozlar yaratish, mahalliy ilmiy tashkilotlar bilan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini amalga oshiruvchi mahalliy kompaniyalar ehtiyojlari uchun davlat grantlarini ajratish;

xususiy sektorning ishlanma va tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va

---

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni Manba: lex.uz.

ilmiy tashkilotlar bilan hamkorligini mustahkamlash, xususiy sektor tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirishni (co-finance) rag'batlantirish, shu jumladan, xususiy ishlanma va tadqiqot yoki moliyalashtirish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar uchun maxsus qo'llab-quvvatlash choralarini joriy etish;

ilm-fan namoyondalari va tadbirkorlar hamda yoshlar o'rtasida intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilishning ahamiyati haqida ma'rifiy-targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

jamoatchilik va xususiy sektor vakillari orasida innovatsion loyihalar va startap kompaniyalarni venchur tashkilotlari tomonidan moliyalashtirish mexanizmlarini keng yoritish vazifalarini bajaradi.

Innovatsiya statikada ham, dinamikada ham ko'rib chiqilishi mumkin. Agar statikada yangilik kiritish bu yangiliklarni tijoratlashtirishning yakuniy natijasi bo'lsa, dinamikada yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish vatarqatish murakkab jarayon hisoblanadi.

Innovatsion jarayon yangi g'oya paydo bo'lganidan tortib to bozorda sotiladigan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish amalga oshirilgunga qadar bo'lgan o'zaro bog'liq bosqichlar murakkab zanjirini ifodalaydi. Umumiy jihatdan **innovatsion jarayon** bu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo'lib, uning davomida yangilik oddiy bir g'oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha "pishib etadi" va xo'jalik amaliyotida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin:

**Ft ↔ At ↔ I ↔ L ↔ Q ↔ O' ↔ Si ↔ M ↔ S;**

bu erda:

Ft - fundamental tadqiqotlar; At - amaliy tadqiqotlar;


I - ishlanmalar;

L - loyihalashtirish; Q - qurilish;

O' - o'zlashtirish;

Si - sanoat ishlab chiqarishi; M - marketing; S - sotuv.

*Инновацион жараён бирор-бир иқтисодиёт субъектининг инновацион фаолиятини, яъни яқунланган илмий тадқиқотлар ва ишланмалар ёки бошқа фан- техника ютуқларининг натижаларини бозорда сотиладиган янги ёки такомиллаштирилган маҳсулотга, амалий фаолиятда фойдаланиладиган янги ёки такомиллаштирилган технологикжараёнга, шунингдек, бу билан боғлиқ қўшимча тадқиқот ва ишланмаларга жорий қилишга йўналтирилган жараёндир.*



**1-rasm. Innovatsion jarayon sxemasi**

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi.

Innovatsion jarayon ettita elementni o'z ichiga oladi, ularning umumiy bir ketma-ketlikdagi zanjirga birlashuvi innovatsion jarayon tuzilmasini tashkil etadi



(1-rasm).

Innovatsion jarayonning boshlanishi tashabbus ko'rsatish (initsiatsiya) hisoblanadi. **Initsiatsiya** - innovatsiya maqsadini tanlash, innovatsiya bajaradigan vazifani belgilash, innovatsiya g'oyasini izlab topish, uni texnik-iqtisodiy asoslab berish va g'oyani moddiy holatga keltirishdan iborat bo'lgan faoliyatdir.

**G'oyani moddiy holatga keltirish** g'oyani tovarga aylantirishni, ya'ni mulkka, yangi mahsulotga, mulkiy huquq hujjatiga (nou-xau, texnologiyadan foydalanish huquqi, litsenziyasi) va texnologik operatsiya bo'yicha hujjatga aylantirishni anglatadi. Tashabbus ko'rsatish nafaqat innovatsion jarayonning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, balki innovatsion jarayon borishining yanada me'yorl davom etishi uchun asos ham sanaladi.

Yangi mahsulot (operatsiya) asoslab berilgach, taklif etilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqotlari o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari davomida yangi mahsulot yoki operatsiyaga talab o'rganiladi, agar ular limitlanadigan bo'lsa ularni chiqarish hajmi yoki soni belgilanadi, innovatsiyaga bozorga kirib borayotgan tovar sifatida baxshida etish lozim bo'lgan tovar tavsifnomalari va iste'mol xususiyatlari aniqlanadi. So'ngra innovatsiyani sotish, ya'ni bozorda innovatsiyaning kichik partiyasi paydo bo'lishi, uni ilgari surish, samaradorligini baholash va diffuziyalash amalga oshiriladi.

Innovatsiyani ilgari surish innovatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi (axborot uzatish, reklama, savdo jarayonini tashkil qilish va boshqalar).

Innovatsiyani amalga oshirish natijalari va uni ilgari surish harajatlari statistik qayta ishlanadi va tahlil qilinadi, buning asosida innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqiladi. Innovatsion jarayon innovatsiyalar diffuziyasi bilan yakun topadi.

Innovatsiyalar diffuziyasi bir marta o'zlashtirilgan innovatsiyani yangi mintaqalar, yangi bozorlar va yangicha moliyaviy- iqtisodiy sharoitlarda tarqatishni ifodalaydi. Diffuziya moliyaviy innovatsiya tavsifnomasi yoki uni harakatlantirish shartlarining o'zgarishi (bank foiz stavkasi, depozit muddati va h.k.ning o'zgarishi), yangi sotuv bozorlarini egallab olish va h.k. bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Innovatsion faoliyat mavjud korxonalar, bank va boshqa sub'ektlarning faoliyat turlaridan biri sifatida ham, muayyan innovatsion loyiha yoki dasturni amalga oshirish uchun tashkil etilgan yoxud innovatsion faoliyat asosiy faoliyat turi hisoblangan ixtisoslashgan yuridik shaxslar –innovatsionkorxonalar, banklar, fondlar, konsortsiumlar va h.k. tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Quyidagi jadvalda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimi ko'rsatilgan.

**1-jadval**

**Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**

<b>Omillar guruhi</b>	<b>Salbiy ta'sir etuvchi omillar</b>	<b>Ijobiy ta'sir etuvchi omillar</b>
<i>Iqtisodiy</i>	Investitsiya mablag'larining etishmasligi	Zaruriy moliyaviy zaxiralarning mavjudligi
<i>Texnologik</i>	Moddiy-texnika va ilmiy- texnikaviy ishlar uchun zarur bo'lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo	Etarli darajada moddiy- texnikaviy bazaning va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo'jalik hamda ilmiy-texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi
<i>Siyosiy</i>	Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi	Qonuniy chora- tadbirlarning yaratilishi
<i>Huquqiy</i>	Soliq, amortizatsiya, patentlash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi	Innovatsion faoliyatning rivojlanishini huquqiy ta'minlash
<i>Tashkiliy</i>	Tashkiliy tarkiblarning eskirishi	Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi
<i>Boshqaruv</i>	Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, axborotlar bilan ta'minlashning va sub'ektlar hamda ichki sub'ektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo'yicha kelishuvning murakkabligi	Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, axborotlar bilan ta'minlanishi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi
<i>Ijtimoiy-psixologik</i>	Ishlab chiqarish yo'nalishining o'zgarishi asosida yangi ish joylarining moslashuvi, mavjud ishlab chiqarish faoliyatini qayta tashkil etish. Ishlab chiqarish eski usullarining mavjudligi, ishlab chiqarish oldidagi qo'rquv, omadsizlik	Ma'naviy rag'batlantirish. Ijtimoiy tan olish, innovatsion mehnatga sharoit yaratish, talab darajasida psixologik sharoitlar yaratilishi
<i>Madaniy</i>	Sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning talabga javob bermasligi, ishonchga, hurmatga asoslanmaganligi	O'zining innovatsion mahoratini ko'rsatishga sharoitning mavjudligi. Sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik, ishonchlilik munosabatlariga va hurmatga asoslanishi

*Innovatsion jarayonlar sekinlashuvi va tezlashuvining asosiy omillari.* Innovatsion jarayon - tashkil etish va boshqaruv bilan birlashtiriladigan, funktsiyalar to'plami bilan yangiliklar olish yagona maqsadiga ega bo'lgan, ijodiy mehnatning har xil turlari doimiy o'zgaruvchan kombinatsiyasidir. Shunday qilib, uning dinamikasida asosiy omillar sifatida birinchi navbatda, quyidagilarni ko'rib chiqish lozim: mehnat elementlari, uning motivatsiyasi, resurslar bilan ta'minlanganligi, tashkil qilish va boshqarish, raqobat, atrof-muhit sharoitlari. Bu ob'ektiv omillar yig'indisi bilan bir qatorda bir guruh sub'ektiv omillar ham amal qiladi: strategiya, siyosat, risk va h.k.

Tahlil maqsadlari va asosiy tasniflash belgilariga qarab, barcha omillar

yig'indisini quyidagilarga taqsimlash mumkin: tashqi va ichki omillar, asosiy va to'ldiruvchi omillar, ob'ektiv va sub'ektiv omillar, bozor omillari va bozordan tashqari omillar, makroiqtisodiy va mikroiqtsodiy omillar va h.k.

Innovatsion faollik omillari to'plami tarkibida innovatsion jarayonlarni sekinlatadigan omillar ham amal qiladi. Ular

“innovatsion to'siqlar” deb ataladi. Ularni tahlil qilish beshta asosiy salbiy omilni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:


- texnik omillar;
- tasniflash omillari;
- ijtimoiy asoslangan omillar;
- tartibga solish omillari;
- iqtisodiy omillar.

Tabiiyki, har qanday innovatsion jarayonga ijobiy va salbiy omillar butun tizimi ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'sirini baholash hamda eng katta muvaffaqiyatga erishish va uchrashi mumkin bo'lgan riskni pasaytirish uchun sharoitlar tanlash - har qanday pog'onadagi boshqaruv organlarining vazifasi, davlat, mintaqa, firmaning innovatsion siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ajralmas bir tarkibiy qismidir.

## 2. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli va uni joriy qilish shartlari


XX asrning ikkinchi yarmi innovatsion rivojlanish bo'yicha hayratlanarli misollarni taqdim etdi. Jahon innovatsion maydonida o'zlarining afzalliklarini ishga solishga barcha diqqatini qaratgan, o'z milliy, ilmiy-texnikaviy va texnologik siyosatni shakllantirgan mamlakatlar raqobatbardosh bo'lib chiqdilar.

2-rasm. Innovatsion iqtisodiyotning yuzaga kelish xronologiyasi



O'tgan asr davomida kompaniyalarning bozor qiymati ustun darajada buxgalteriya hisobotlari orqali qayd qilinadigan jismoniy aktivlarning funksiyasi bo'lib hisoblanar edi. Ammo 80- yillarida Dou-Djons (DJIA) indeksi, kapitallashtirish aktivlarining (binolar, inshootlar, jihozlar va zaxiralar) real qiymatidan borgan sari ajralib borishini ko'rsata boshladi (2- rasm).

Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq turlicha nomlanadi: intellektual kapital, ko'rinmas aktivlar (3-rasm). Agar barcha tarkibiy elementlarni bir maxrajga keltirishga urinib ko'rilsa, unda bular turli bilim shakllari ekanligi ayon bo'ladi.



**3-рasm. Интеллектуал капиталнинг таркиби**

Demak, jamiyat rivojlanishida iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga - "bilimlar iqtisodiyoti" yoki "innovatsiyalar iqtisodiyoti"ga o'tilishi bilan tavsiflanuvchi, ilmiy-texnika va texnologik taraqqiyotning kuchli ta'siri ostida sodir bo'luvchi, bilimlarni iqtisodiy rivojlanishning global omiliga aylantiruvchi yangi bosqichi boshlandi.

1996 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotida, 80-yillar oxiri – 90-yillar birinchi yarmidagi, iqtisodchilar va sotsiologlar asarlarini umumlashtiruvchi kontseptual maqola "Ekonomika, osnovannaya na znaniyax" chop qilingan edi. Mohiyatan davriy marrani belgilab bergan bu nashr nafaqat mazkur xalqaro tashkilot, balki jahonning barcha rivojlangan mamlakatlari jamiyatshunoslari va siyosatchilari ishida yangi yo'nalishni ochib berdi, ularni leksikoniga "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot", "bilimlar iqtisodiyoti", "innovatsion iqtisodiyot", "bilimlarga asoslangan jamiyat", "milliy innovatsion tizim", "elektron hukumat" va h.k. terminlar tezkorlik bilan kirib kela boshladi.


Iqtisodiy o‘shishga innovatsion omil hisobiga erishiladigan, YaIM o‘shishining 75-90 %ni ta‘minlovchi bunday modeldan ko‘pgina industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar foydalanadilar. Hozirgi vaqtda ma‘lum iqtisodiy kategoriya sifatidagi innovatsiyalar tushunchasining o‘ziga xos xalqaro standartlarning ishlab chiqilganligi to‘g‘risida gapirish mumkin. Innovatsiya (yangiliklarni kiritish) ilmiy va ijodiy faoliyatning pirovard natijasi bo‘lib, u bozorda sotiladigan yangi yoki bo‘lmasa amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonda mujassamlanadi. Bu innovatsiyaning asosiy xossa (mezon)larini ajratish imkonini beradi:

- ilmiy-texnik yangilik;
- amaliy qamrovligi (sanoatda qo‘llanishi mumkinligi), yangi, masalan: sanoatda, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim yoki faoliyatning boshqa sohalarida foydalanilishi;
- tijorat maqsadida amalga oshirishi mumkinligi, bu yangilik bozor tomonidan “tan olinishi”ni bildiradi, ya‘ni bozorda sotiladi; bu o‘z navbatida, iste‘molchilarning ma‘lum talablarini qondirish qobiliyatini anglatadi. Bu shuni bildiradiki, yangi g‘oya qanchalik batafsil bayon qilinmasin, shakllantirib sxema va chizmalarda taqdim etilmasin, agar bu g‘oya amaliyotda foydalaniladigan mahsulot, xizmat yoki jarayonlarda tatbiq etilmagan bo‘lsa, bu hali innovatsiya (yangilik) hisoblanmaydi. Ya‘ni, innovatsiyaning muhim xossalari, mezonlari g‘oyaning yangiligi, uning amaliy faoliyatda, yangi mahsulotlarda va jarayonlarda mujassamlashgani, amalga oshirilgani hisoblanadi. Garchand yangi g‘oya real ob‘ektlar yoki jarayonlarda mujassamlashgan ekan, u kishilarning amaliy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi g‘oyaning amaliy mujassamlashganligi singari, innovatsiyaning ajralmas mezon bozorda yangi (innovatsion) mahsulot yoki xizmatning paydo bo‘lish orkali uning tijorat maqsadida amalga oshirilishi mezon bilan yaqindan bog‘liq bo‘ladi. Ta‘kidlash o‘rinliki, innovatsion jarayon yangiliklarni yaratish va tarqatish jarayonidir (15.4-rasm).

Umumiy qo‘rinishda innovatsion jarayon sxemasini quyidagicha keltirish mumkin:

- innovatsion jarayonning birinchi komponenti – novatsiyalar, ya‘ni yangi g‘oyalar, bilimlar – tugallangan ilmiy (fundamental va amaliy) tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalar natijasi, boshqa ilmiy-texnik natijalardir;
- innovatsion jarayonning ikkinchi komponenti bo‘lib joriy qilingan ishlar, amaliy faoliyatga kiritish, ya‘ni novatsiya va yangiliklarni kiritish innovatsiya hisoblanadi;
- innovatsion jarayonning uchinchi komponenti bo‘lib innovatsiyalar diffuziyasi, ya‘ni oldin o‘zlashtirilgan, qo‘llanilgan innovatsiyalar, boshqacha aytganda, yangi joylar va sharoitlarda innovatsion mahsulotlar, xizmatlar yoki texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi.



4-rasm. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli

2-jadval

**Jahon mamlakatlari milliy innovatsion siyosatlarining yo‘nalishlari**

Innovatsiya siyosati yo‘nalishlari	O‘ziga xosligi	Mamlakatlar
Milliy innovatsiya tizimi tarkibini qulaylashtirish	Innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruv va rejalashtirish tizimini qulaylashtirish. Fanni davlat tomonidan moliyalashtirish va innovatsiya sohasini qulaylashtirish. Fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish	Yaponiya, Norvegiya, Germaniya.  AQSh, Shvetsiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Tayvan, Avstraliya. Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Sloveniya.
Mamlakat ichida biznes va fan – innovatsion kooperatsiyasini rag‘batlantirish	Fan va korporatsiyalarning simmetrik yaqinlanishini rag‘batlantirish. Fan va innovatsion sohaga yirik davlat qo‘yilmalari va milliy xususiy kapitalni jalb qilish. Innovatsion sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi xususiy sektorning innovatsion faolligini rag‘batlantirish. Ilmiy sektorning innovatsion tashabbusini rag‘batlantirish	AQSh, Finlyandiya.  Isroil, Finlyandiya.  Buyuk Britaniya, Irlandiya, Xitoy, Koreya, Hindiston, Isroil.  Germaniya, Yaponiya, Daniya.
Xalqaro innovatsion tizimlarga integratsiyalashuv	Majmuaviy integratsiya  Texnologik ixtisoslashuv	Finlyandiya, Isroil, Xitoy. Koreya, Singapur, Tayvan, Hindiston.

Ichki innovatsion tizimlarni yo'lga qo'yish	Innovatsiya sohasida aloqalarni tashkil etish uchun alohida sharoitlarni yaratish. Milliy mintaqalar tashabbuslarini rag'batlantirish	AQSh, Norvegiya, Irlandiya.  Frantsiya, Germaniya, Finlyandiya.
Milliy innovatsion tizimni shakllantirish	Fanning davlat sektori tarkibini qayta o'zgartirish. Fan va ta'lim integratsiyasini faollashtirish. Innovatsion sohaga kichik va o'rta biznesni jalb qilish. Yuqori texnologiyalar sohasidagi ustuvor eksport yo'nalishlarini aniqlash	Bolgariya, Polsha, Litva. Latviya, Estoniya, Chexiya.  Ruminiya, Chexiya, Slovakiya, Turkiya. Chexiya, Ruminiya, Chili, Turkiya.

Aytish lozimki, "innovatsion jarayon" tushunchasi "innovatsiyalar" tushunchasiga nisbatan kengdir, innovatsiyaning (yangiliklar kiritish) o'zi innovatsion jarayonning komponentlaridan biri hisoblanadi. AQSh, Yaponiya, Evropa Ittifoqi mamlakatlarining barqaror rivojlanish traektoriyasiga o'tishiga iqtisodiyotning real sektorida innovatsion jarayonlarni kengaytirish asosida erishilgan. U yoki bu mamlakatning davlat innovatsion siyosati, odatda ma'lum nazariy modelning aks ettirilishi bo'lib hisoblanmaydi, balki u turli yo'nalishdagi tadbirlar kompozitsiyasidir, bunda milliy innovatsiya siyosatlari tub o'ziga xoslikka egaligini ta'kidlash mumkin. Globalizatsiyaning hozirgi bosqichida turli mamlakatlar innovatsion siyosatning quyidagi muhim yo'nalishlarini ajratish mumkin (14.2-jadval).

Innovatsion faollikni rag'batlantirish uchun turli mamlakatlarda fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotni o'zlashtirishda o'ta zarur hisoblangan turli imtiyozlar va preferentsiyalar qo'llaniladi. Ular egiluvchan, tanlovli, muddatni uzaytirish, soliq kreditlari, tezlashtirilgan amortizatsiya ko'rinishida amal qiladilar (3-jadval).

Shunday qilib, mamlakat raqobatbardoshligini oshirish, uning samarali ilmiy tadqiqot hamkorligi yo'nalishida rivojlanishi- ning eng muhim omili bo'lib innovatsion jarayonlarni (shu jumladan, mintaqalar darajasida) amalga oshirish uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratishga qaratilgan, fan va ishlab chiqarish o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib davlatning innovatsion siyosati hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion siyosatni shakllantirishda mamlakatning rivojlanish strategiyasini tanlash o'ta muhim. Shulardan kelib chiqqan holda davlat innovatsion siyosatning ikki asosiy modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

13. Bosh maqsadi mamlakat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'lgan, umummilliy ahamiyat kasb etuvchi ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni bajarishga yo'naltirilgan model.
14. Bosh maqsadi yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, iqtisodiyot tarmog'i va sohalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish va ilmiy-texnik bilimlarni yoyishga yo'naltirilgan model.

**3-jadval****Asosiy rivojlangan mamlakatlarda Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) soliq imtiyozlari**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>Soliq undurmalarini- ning ITTKI harajatlariga nisbati</b>	<b>Soliq undurmalarining eng ko'p miqdori</b>
Yaponiya	Yirik kompaniyalar- 8-10 %, Kichik va o'rta kompaniyalar- 12 %	2008 yilgacha – soliq to'lovlari summasining 20 %i; 2008 yildan boshlab yirik kompaniyalar soliq to'lovlari summasining 30 %i, kichik va o'rta kompaniyalar soliq to'lovlarining 100 % gacha
AQSh	Umumiy summadan 3-5 %, me'yordan oshuvchi harajatlarga 20 %	Soliq to'lovlari summasining 25 %
Kanada	Umumiy summadan 20 %	Mavjud emas
Buyuk Britaniya	Umumiy summadan 8,4 %	Mavjud emas
Frantsiya	Umumiy summadan 10 %	16 mln.evro
Xitoy	Umumiy summadan 15 %	Mavjud emas

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati innovatsion faoliyatni jadallashtirishni barqaror iqtisodiy rivojlanishning bosh dvigateli sifatida faol ko'rib chiqmoqda, innovatsion texnologiyalar va fanni rivojlantirish masalarini muhim davlat ustuvorliklari qatoriga qo'yimoqda.

Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-sonli "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 24 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

№PF-5120-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda

kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5121-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat



qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 515-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Biroq, innovatsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirishdagi hissasi o'sishi to'g'risida xulosa chiqarish uchun O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi bo'yicha to'la miqyosli o'rta va uzoq muddatga ega bo'lgan strategiyali davlat innovatsion siyosati ishlab chiqish talab etiladi. Mazkur innovatsion siyosatning bosh iqtisodiy maqsadi bo'lib milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va buning natijasida aholi farovonligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash kerak. Ushbu asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- mamlakat iqtisodiyotida fan sig'imi yuqori bo'lgan va yuqori texnologiyali sektorlar hissasini oshirish va eksport siyosatini xomashyo eksportidan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot eksportiga bosqichma-bosqich yo'naltirish;

- innovatsion - faol institutlarni tashkil etish;

- ta'lim, fan va biznes o'rtasidagi yaqin hamkorlik va ITTKIga investitsiyalaridan samarani oshirish;

- ishlab chiqarish omillari unumdorligining umumiy o'sishi;

- "bilimlar iqtisodiyoti"ni shakllantirish uchun inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish.

Demak, mamlakatlarda davlat innovatsion siyosatlarning ko'pchiligi o'zlarining milliy vazifalarini hal etishlari uchun qabul qilinadi, biroq shu bilan birga, aynan innovatsiyalar butun

jahon hamjamiyatini qo'yilgan maqsadiga erishish va umumiy farovonlikni ta'minlash uchun birlashtiruvchi "yangi mafkura" sifatida namoyon bo'ladi.

### **3. Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati**

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y. Shumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lgan: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xomashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish<sup>8</sup>.

K. Frimen 1987 yilda "Milliy innovatsion tizim" tushunchasini kiritgan. "Milliy innovatsion tizim" turli institutlarni birgalikda yoki alohida yangi texnologiyalarni yaratishga hissa qo'shgan va hukumat a'zolarining yangi siyosatni ishlab chiqarish va

---

<sup>8</sup> Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982. S. 386.

amalga oshirishiga ta'sir etuvchi innovatsion jarayondir. U o'zaro bog'langan institutlar tizimi bo'lib, ular "bilimlar, yangiliklar va yangi texnologiyalarni tashkil etish, saqlash va uzatishni amalga oshiradilar.

P.Drukerning fikricha, tadbirkorlarning innovatsion fikrlashlari bir-biridan farqlanadi. Innovatsiyalashtirish tadbirkorlikning ixtisoslashgan yo'nalishidir. Har bir tadbirkor o'zining ishlab chiqarish ob'ektida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga ixtisoslashgan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar esa umuman tadbirkorlik faoliyatining barcha yo'nalishlariga, ilm-fan va texnika taraqqiyotida qo'lga kiritganyangiliklari bilan ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish usullarini tashkil qilish asosida ularga xizmat qiladi<sup>9</sup>.

A.Busiginning fikriga ko'ra, innovatsiya asosiy kapital (ishlab chiqarish fondlarini) yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm- fan, texnika, texnologiyalar asosida yangilashdir. Innovatsiya hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida qonuniy va ob'ektiv jarayondir. Tadbirkorlik amaliyotida innovatsiya qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, innovatsion jarayonni ifodalaydi. Ayrim holatlarda ishlab chiqarish qisman emas, balki to'liq innovatsiyaga asoslanadi, natijada qat'iy yangi tasnifga va xususiyatga ega bo'lgan tovarda yoki foydalanishda ifodalanadi.

Yu.Shvetsov, innovatsion jarayon yangilikni yaratish va amaliyotga qo'llash deb hisoblaydi.

M.Saidovning fikricha, innovatsiya, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi. Innovatsion faoliyat (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsiya yutuqlarining iqtisodiy natijalari ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarni, mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnatni tejashni, kishi boshiga mehnat unumdorligining oshib borishini, atrof-muhitning ekologik jihatdan ifloslanish darajasini kamaytirishni ta'minlashda, ishlab chiqarishda, ijtimoiy sohada band bo'lganlarning ish haqi va daromadlarining o'sib borishida, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash darajasini oshib borishida, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanib borishida ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlanishi tanlab olingan eng asosiy yo'li deb hisoblash mumkin. Innovatsion jarayon quyidagi rivojlanish bosqichlariga ega:

- Innovatsion g'oyalarning rivojlanishi;
- Eng samarali innovatsion g'oyalarni aniqlash;
- Innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni

---

<sup>9</sup> Druker P.F. Ro'nok: kak vo'ytyi v lidero'. Praktika i printsipo'. -M.: Buk Chember Interneshnl, 1999. S. 41.

iqtisodiy baholash; biznes rejada innovatsion g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy harajatlarni asoslash; ekspertlar tomonidan innovatsion g'oyalarni amalga oshirish biznes rejasini baholash; innovatsion rejalar asosida namunaviy mahsulotni ishlab chiqarish va bozor talablari asosida sinash; bozorda yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritish va ularning bozordagi harakatlarini ishlab chiqish; sinalgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va bozorda sotilishini ta'minlash.

Aytish mumkin, ishlab chiqarish jarayonida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni qo'llanilishi natijasida ular ilmiy-texnikaviy innovatsiya mahsulotlariga aylanadi.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, innovatsion jarayonning amalga oshirish xususiyatlari mavjud (5-rasm).



**5-rasm. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion jarayon iste'mol talablari ta'sirida qisqa muddatlarda o'zining yangiliklari bilan tavsiflanadigan jarayon bo'lib, uning harakati uzluksiz ravishda takomillashgan holda amalga oshirib boriladigan turli yo'nalishlardagi harakatlarni o'zida ifoda etadi. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida innovatsiya qo'yilmalarining erkin harakati natijasida iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida erkin raqobatning darajasi oshib boradi.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya ekanligini nazariy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- innovatsion faoliyat innovatsiya, innovatsion jarayonga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, ilm-fan va texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishini ifoda etadi. Innovatsion faoliyat innovatsiya va innovatsion jarayonni to'liq qamrab oladi;

- innovatsiya ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun yo'naltirilgan innovatsiya mablag'larining asosiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish sub'ektlarining asosiy mablag'larida mujassamlashadi.

Innovatsion yangiliklarni ishlab chiqarish jarayonida qo'llashning samaradorligi ishlab chiqarish sub'ektlarining iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik samaradorligining o'sib borishiga olib keladi. Innovatsion samaradorlikni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$S_i = F_i X_i \cdot 100\% \text{ bunda,}$$

$S_i$ - innovatsion samaradorlik, %da;  $F_i$ - innovatsion foyda, so'mda;

$X_i$ - innovatsion harajatlar, so'mda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ilmiy- tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning barqaror tizimi yaratildi. Mamlakatda salohiyatli ilmiy maktablar yaratildi, ilmiy laboratoriya va kafedralar, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar hamda respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ekspert kengashlari shaklidagi ko'p tarmoqli ilmiy-tashkiliy infratuzilma faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bir qator yangi ilmiy-innovatsion tuzilmalar – Genomika va bioinformatika markazi, Xalqaro quyosh energiyasi instituti, Kembrij universiteti ishtirokida Yuqori texnologiyalar markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish tizimida Fanlar akademiyasi haqli ravishda fundamental tadqiqotlar etakchisi sifatida alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda Fanlar akademiyasi tizimida salmoqli intellektual salohiyat mujassamlangan. Shu sababli davlatimiz tomonidan akademik fanning mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishdagi rolini kuchaytirish, Fanlar akademiyasining ilmiy-innovatsion faoliyatini takomillashtirish va mavqeini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Ushbu e'tiborning yorqin ko'rinishi sifatida mamlakatimiz Prezidentining davlat rahbari sifatidagi birinchi uchrashuvi aynan ilm hamjamiyati – respublika akademiklari va etakchi olimlari bilan bo'lganligini ta'kidlash joiz. 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab akademiklarga eng kam ish haqining 10 barobari miqdorida jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqlardan ozod etilgan oylik gonorar belgilandi. Bundan tashqari, ular uchun

---

<sup>49</sup> Kro'lov E.I., Vlasova V.M., Juravkova I.V. Analiz effektivnosti investitsionnoy i innovatsionnoy deyatelnosti predpriyatiya. – M.: Finanso' i statistika, 2003. S. 325.

sanatoriy muassasalarida har yili bepul sog'lomlashtirish kursidan foydalanish huquqi nazarda tutildi. Akademiklar ilmiy, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etilib, ularga yuqori malakali xodimlar tayyorlashda faol ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, ilmiy-texnik salohiyatning hozirgi kundagi ahvoli, xodimlar bilan ta'minlanganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnika, tajriba va laboratoriya bazalarining rivojlanish darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining jadal sur'atlaridan ortda qolmoqda. Qator tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha milliy ilm-fanimiz, ayniqsa akademik fanning raqobatbardoshligini yuqori halqaro darajalarga mos keltirish zarurati ham yuzaga keldi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini moliyalashtirish tizimida bir qator muammolar mavjud. Natijada, ilmiy faoliyat nufuzi birmuncha pasayib, iqtidorli yoshlarning boshqa sohalarga ketib qolish holatlari kuzatilmoqda, ilmiy xodimlarning o'rtacha yoshi ortib borishi tendentsiyasi saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan, davlat ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish, amalga oshirish va monitoringini yuritish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi yagona tizimning mavqei va salohiyatini tiklash, olimlarga keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni amalga oshirishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish bugungi kunning hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ta'kidlash lozimki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, respublika viloyatlarida bo'lib o'tayotgan xalq bilan bevosita muloqot paytida Prezidentimiz tomonidan barcha hududlarda ilm-fan salohiyatini tiklash, hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlashda mavjud intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy izlanishlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning real muammolariga yo'naltirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlash, o'z navbatida, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan olimlarning ilmiy-texnologik ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish samaradorligini oshirish mexanizmlarini yaratish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sohada to'planib qolgan muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan keng ko'lamli miqyosdagi aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, qarorga ko'ra zamonaviy talablar asosida Fanlar akademiyasining asosiy vazifa va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini yanada mustahkamlash maqsadida Fanlar akademiyasi tarkibida bir

qator ilmiy-tadqiqot muassasalari tashkil qilinib, qator muassasalar akademiya tasarrufiga qaytarilgan.

O‘z navbatida bu tadbirlar Fanlar akademiyasi tomonidan keng ko‘lamli fundamental tadqiqotlar olib borilishini ta‘minlash, turli fan tarmoqlari bo‘yicha mavjud ilmiy salohiyatni mujassamlash va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning dolzarb muammolariga safarbar qilish imkoniyatini yaratadi. Qarorda Fanlar akademiyasi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi, uning tarkibida fizika-matematika va texnika fanlari, kimyo-biologiya fanlari va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limlari hamda Fanlar akademiyasining Navoiy bo‘limini tashkil etish ko‘zda tutildi.

Bu mazkur fan sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, Navoiy viloyati hududini kompleks rivojlantirishda, mavjud sanoat salohiyatini yanada mustahkamlashda akademik fan imkoniyatlaridan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, qarorga muvofiq Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston va Navoiy bo‘limlari hamda Xorazm Ma‘mun akademiyasi raislari mavqei akademiya vitse- prezidenti darajasiga tenglashtirilishi ham aynan hududlarda ilm-fan salohiyatini tiklash va nufuzini oshirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlarning yaqqol tasdig‘idir.

Samarali ilmiy faoliyatni rag‘batlantirishga ham qarorda katta e‘tibor qaratilgan. Shu maqsadda, ilmiy-tadqiqot muassasalarining xo‘jalik va tadbirkorlik faoliyatidan tushgan sof foydaning 10 foizi miqdoridagi ajratmalari hisobiga shakllanadigan, ilmiy tadqiqotlar yakunlari bo‘yicha salmoqli natijalarga erishgan Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlarini moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasi tashkil etilmoqda. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida Fan va texnologiyalar bo‘yicha davlat komissiyasi tuzilib, uning zimmasiga ilmiy-texnika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, innovatsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash vazifalari yuklanmoqda. Shuningdek, mazkur komissiyaning ishchi organi sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi faoliyati tugatilayotgan Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi tashkil etilmoqda. Agentlik zimmasiga iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni bajarishda ilmiy-texnik xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan davlat topshiriqlarini shakllantirish kabi vazifalar yuklanadi.

4-jadval

2017 yilda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari to'g'risida ma'lumot<sup>50</sup> (mln.so'm)

№	Davlat ilmiy-texnika dasturlarini bajarayotgan vazirlik va idoralar nomi	Jami loyihalar soni		Shu jumladan:								Noyob ilmiy ob'ektlar	
				Fundamental loyihalar		Amaliy loyihalar		Innovatsiya ishlari		Yosh olimlar loyihalari			
		son i	hajmi	son i	hajmi	son i	hajmi	son i	hajmi	son i	hajmi	son i	hajmi
1.	Fanlar akademiyasi	365	52452,4	108	20068,6	167	23231,4	63	7692,1	27	1460,3	42*	
2.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	483	33164,3	150	9398	226	17906,1	60	4371,7	47	1488,5	9	
3.	Xalq ta'limi vazirligi	19	1519,4	3	520	12	900,6	0	0	4	98,8		
4.	Sog'liqni saqlash vazirligi	199	27406,7	23	1785	135	22719,2	25	2398,6	16	503,9	7	
5.	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	289	31 026,40	28	1 673,80	147	24021,1	93	4731,2	21	600,3	8	
6.	Boshqalar	395	42555,3	68	4242,8	134	24131	130	12414,1	62	1 767,40	5	
<b>Jami</b>		<b>1750</b>	<b>188 124,5</b>	<b>80</b>	<b>37 688,20</b>	<b>821</b>	<b>112 909,40</b>	<b>371</b>	<b>31 607,70</b>	<b>177</b>	<b>5919,20</b>	<b>71</b>	

\* - 7 ta Noyob ilmiy ob'ektlar ro'yxatiga kiritilmasdan moliyalashtirilishi lozim bo'lgan ob'ektlar bilan birgalikda

<sup>50</sup>O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi ma'lumotlari. [http://G'G'www.uzscience.uzG'uzG'press\\_07.html](http://G'G'www.uzscience.uzG'uzG'press_07.html)

## 5-jadval

**Har yili o‘tkaziladigan Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkalarining samaradorligi to‘g‘risida ma‘lumot<sup>51</sup>**

<b>Yarmarkalar</b>	<b>Namoyish etilgan ishlanmalar soni</b>	<b>Tuzilgan shartnomalar soni</b>	<b>Shartnomalarning moliyaviy hajmi (mln.so‘m)</b>	<b>Ijro etilgan shartnomalar soni</b>	<b>Moliyaviy hajmi (mln.so‘m)</b>	<b>Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mln.so‘m)</b>
I yarmarka	605	202	9141,8	202	9141,8	-
II yarmarka	504	324	15597,0	324	15597,0	-
III yarmarka	502	389	7979,38	389	7979,38	-
IV yarmarka	387	329	7779,38	314	7345,6	507173,8
V yarmarka	554	322	11689,1	322	11689,1	476735,0
VI yarmarka	527	407	16348,0	402	15946,3	396386,4
VII yarmarka	389	356	18564,0	324	15746,1	734173,8
VIII yarmarka	428	766	24461,1	343	13616,3	59631,3
IX yarmarka	476	944	30732,7	125	7579,0	60332,0
X yarmarka	404	459	34631,7	83	13041,7	-
<b>Jami:</b>	<b>4776</b>	<b>4498</b>	<b>176924,16</b>	<b>2828</b>	<b>117682,28</b>	<b>2234432,3</b>

<sup>51</sup>O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi ma‘lumotlari. [http://www.uzscience.uz/uzGpress\\_07.html](http://www.uzscience.uz/uzGpress_07.html)



Respublikada innovatsion faoliyatni faollashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: oliy o'quv yurtlarida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodimlar tayyorlash; davlat darajasida strategik ahamiyatga molik tarmoqlardagi innovatsion faoliyatni davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish; mintaqalarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish; innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish; innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi qo'shma korxonalarni tashkil etish uchun tegishli sharoitlarni yaratish va ular tomonidan yaratilgan yangiliklarni litsenziyalashtirish asosida jahon bozoriga olib chiqish.

Innovatsion mahsulotlarning ko'payib borishi davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdoriga ham bog'liq (6- jadval).

### 6-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi YaIM dagi innovatsion mablag'larning ulushi

Yillar	YaIM (mlrd. so'm)	YaIM o'sish sur'ati (%)	Innovatsion mablag'lar (mln. so'm)	Innovatsion mablag'larning YaIM dagi hissasi (%)
2003	9844,0	4,2	722,1	0,73
2004	12261,0	7,4	891,3	0,72
2005	15923,4	7,0	994,1	0,62
2006	21124,9	7,5	544,4	0,25
2007	28190,0	9,5	1744	0,61
2008	38969,8	9,0	1749,5	0,44
2009	48097,0	8,1	3419,4	0,71
2010	61831,2	8,5	4676,7	0,75
2011	78348,6	8,1	5178,6	0,78
2012	84456,5	8,2	6374,7	0,75
2013	86448,8	8,0	6874,8	0,79
2014	94202,6	8,5	8745,6	0,92
2015	134522,6	8,2	9587,3	0,71
2016	174563,7	7,8	13454,6	0,77

*Manba: Jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi*

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 2017 yil 1 noyabrda "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Davlat rahbarining akademiklar va ilm-fan ziyolilari bilan 2016 yilning dekabrda o'tkazgan uchrashuvi, shuningdek, 2017 yil 17 fevralda "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish

chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli qarorining qabul qilinishi respublikada ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirishda keng ko'lamdagi tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan davr mobaynida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan 35 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining sakkizta farmoni va sakkizta qarori qabul qilindi. Fanlar akademiyasi tarkibidagi to'qqizta ilmiy-tadqiqot instituti qayta tiklandi, qator ilmiy muassasalar qayta tuzildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalishlari bo'yicha uchta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi. O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi, Fan va texnologiyalar bo'yicha davlat komissiyasi, Fan va texnologiyalar agentligi, Ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi faoliyati tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangi haqiqiy a'zolari (akademiklari)ning saylovi bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, sir emaski, ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy-texnik salohiyati, xodimlar bilan ta'minlanganligi, moddiy-texnika, laboratoriya va tajriba bazasining hozirgi holati mamlakatning yuqori sur'atlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga javob bermaydi. Ilm-fan raqobatbardoshligini oshirish va uni dunyoning eng rivojlangan davlatlari ilm-fani darajasiga mosligini ta'minlash masalalari keskinligini saqlab qolmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini moliyalashtirish tizimida hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim muammolar o'z echimini kutmoqda.

Ushbu sohada to'planib qolgan muammolarni hal qilish, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika va laboratoriya-tajriba bazasini mustahkamlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida ushbu qaror qabul qilindi.

Qaror bilan fan va innovatsiya sohasida oltita ustuvor yo'nalish bo'yicha qirqdan ortiq tadbirlarni o'z ichiga olgan 2017-2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish uchun zarur sharoitlarni ta'minlash maqsadida, doktoranturada o'qish uchun maqsadli kvotalarni ajratish amaliyotini joriy qilish choralari nazarda tutilgan, hamda ilmiy xodimlarning akademik mobilligini oshirish va ularning ilmiy yutuqlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish belgilangan. Shuningdek, ilmiy faoliyat hamda ta'lim jarayoni integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish bo'yicha maqsadli choralarni amalga oshirish, bunda ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy xodim va mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga keng jalb qilish, magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki himoyasini amaliyot o'talغان muassasalarda o'tkazish tartibini joriy etish ko'zda tutilgan.

Amaliy choralarning yana bir muhim yo'nalishi, respublika ilmiy muassasalarida olib borilayotgan tadqiqotlar saviyasini yuksaltirishga, ularni xalqaro talablarga ko'ra ilmiy xalqaro bazalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida mavjud hamda yangi tuzilayotgan ilmiy laboratoriyalar ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida ilmiy-tadqiqot va

oliy ta'lim muassasalari tomonidan ilmiy va laboratoriya uskunalaridan birgalikda foydalanish mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

7-jadval

**2017 yilda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari to'g'risida ma'lumot**

№	Fan yo'nalishlari	Jami loyihal ar soni	Shu jumladan			
			Fundament al loyihalar	Amaliy loyihala r	Innovatsi on loyihala r	Yosh olimlar loyihala ri
1.	Texnika fanlari	482	84	249	95	54
2.	Qishloq xo'jaligi fanlari	283	27	150	81	25
3.	Tabiiy fanlar	683	185	257	177	64
4.	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	302	66	185	17	34
<b>Jami</b>		<b>1750</b>	<b>362</b>	<b>841</b>	<b>370</b>	<b>177</b>

Qarorga muvofiq, 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab gumanitar va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy-tadqiqot muassasalarining bino va inshootlarini saqlash, shuningdek, ularning ayrim toifadagi xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha harajatlarni moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bazaviy moliyalashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mazkur qaror bilan rejalashtirilgan tadbirlar doirasida 30 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'mirlash-qayta tiklash ishlari, 40 ta ilmiy-tadqiqot muassasasini zamonaviy ilmiy laboratoriyalar, asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Bunda, laboratoriyalarni sarflanuvchi materiallar va reaktivlar bilan uzluksiz ta'minlashga sarflanadigan harajatlar alohida nazarda tutilgan.

Umumiy qiymatda 2018–2021 yillarda Fanlar akademiyasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Davlat veterinariya qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi ilmiy-tadqiqot muassasalari bino va inshootlarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash uchun 116 milliard so'mdan ziyod, zamonaviy ilmiy va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, zarur materiallar va butlovchi qismlar bilan ta'minlash uchun 32,2 million AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.

## **Tayanch soʻzlar**

Yangi gʻoya, bozor, mahsulot, loyihalashtirish, fundamental, tadqiqot, ishlama, oʻzlashtirish, marketing, ishlab chiqarish, jarayon, joriy qilish, axborot, texnologiya, tashabbus, bank, korxonalar, yuridik, jismoniy, fond, moliyaviy koʻmak, iqtisodiy barqarorlik.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsion jarayon, gʻoyalarni murakkab zanjirini ifodalab bering?
2. Innovatsion faoliyatga taʼsir etuvchi asosiy omillarni koʻrsatib bering?
3. Innovatsion faoliyatni boshqarishni qanday qonuniyatlarini bilasiz?
4. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlarini sharhlang ?
5. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari qanday ?
6. Mamlakatning innovatsion salohiyati qanday hisoblanadi ?

### **3.REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING TASHKILIY SHAKLLARI VA UNING XUSUSIYATLARI**

#### **1.Real sektorda innovatsion taraqqiyot va innovatsion faoliyatni boshqarish**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning 2020 yilgacha Kontseptsiyasida ta'kidlangani- dek, global raqobat sharoitida shunday mamlakat g'olib keladiki, u rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lib, innovatsion ishlanmalarni yaratish, tijoratlashtirish va joriy etish institutlariga tayanadi. Hozirgi davrda barcha mamlakatlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini kam harajatlar bilan tugatish uchun ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ularning hisobiga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish ustida bandlar.

Bugungi kunda respublikamizda ilmiy-tadqiqot olib boruvchi 400 dan ziyod korxonalar ro'yxatga olingan. Keyingi 10 yilda ilmiy- texnika dasturlarini amalga oshirishda 224 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, tajriba-konstruktorlik va kichik innovatsion markazlar qatnashib kelmoqdalar. O'zbekistonning ilmiy potentsiali 36 ming kishidan iborat bo'lib, unda 2549 fan doktori, 9254 fan nomzodi va 15,7 ming tadqiqotchilar mavjud. Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasining 45 ta ilmiy tadqiqot institutlarida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining (OO'MTV) 36 ta oliy ta'lim muassasasida (OTM), Sog'liqni saqlash vazirligining 34 ta ilmiy tashkilotlarida, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 30 ta ilmiy va o'quv institutlarida, 79 ta ilmiy va innovatsion markazlarida va boshqa ular tarkibiga kirmaydigan loyiha va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarida olib borilmoqda. Ilmiy xodimlarni tayyorlashda dasturiy yondashuv amalga oshirilib, ta'lim bosqichlarida islohotlar chuqurlashtirilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat harajatlari nisbiy jihatdan yuqori hisoblanadi. Keyingi 10 yil maboynida ularning darajasi YaIMning 10 foizidan ortiqni tashkil etdi. Bugungi kunda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan harajatlar davlat byudjetining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekiston davlat byudjetidan har yili 35 foiz mablag' aynan ta'lim-tarbiya sohasiga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, respublikamizda ilmiy, ilmiy- texnik va innovatsion potentsialni yaratish va taraqqiy ettirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan tizimini boshqarishni takomillashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va me'yor huquqiy asosini kengaytirish, akademik va oliy ta'lim tadqiqotlarini takomillashtirish choralari amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishning innovatsion harakterini oshirish, axborot va innovatsion infratuzilmalarini yaxshilash, yangi ilmtalab korxonalarini yaratish, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish ishlari ancha faollashmoqda.

Mintaqalarda ilmiy loyihalarni tashkil etish va joriy etish maqsadida innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferiga mas'ul hududiy markazlar ishlab turibdi. Markazlar ilmiy- texnika sohasidagi mustaqil agentliklar bo'lib, ular erkin va

demokratik tarzda boshqariladi. Boshqaruv tarkibiga mahalliy hokimiyatlar, korxonalar, ilmiy va o'quv yurtlarining vakillari kiradi. Hozirgi kunda respublikamizda innovatsion faoliyat va texnika transferi bo'yicha 8 ta hududiy markaz faoliyat olib bormoqda. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida joylashgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi haqida gapiradigan bo'lsak ularda "bilimlar iqtisodiyoti"ning shakllanishida davlatning fan sohasidagi buyurtmasidagi ulushi kamayib, yirik korporatsiyalarning ilmiy bo'limlari, kichik va o'rta miqyosdagi ilmtalab firmalarning mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishidagi hissasi ortib bormoqda. Respublikamizdagi innovatsion taraqqiyot davlat, kichik biznes va fuqarolik jamiyatlari institutlarining tizimli va maqsadga yo'naltirilgan harakatlariga tayangan holda davom etmogi lozim. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun OTMda innovatsion faoliyat, innovatsion menejment, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish, intellektual mulk nazariyasi va huquqiy asoslari, innovatsion loyihalarni boshqarish, bozorga yo'naltirish sohalarida faoliyat yurituvchi xodimlar tayyorlanishi zarur, OTMlarida shunday kurs va o'quv dasturlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Inson resursini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuv bilimlar jamiyati kontseptsiyasini tashkil qiladi va qashshoqlikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlab, rivojlanish siyosati asosini yaratgan holda, inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga to'liq rioya qilishni ta'minlashi lozim. Negaki, bilim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun asos bo'lib, bilim iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish vositasi va rivojlanishning ajralmas bir bo'laki sanaladi. Rivojlanayotgan bilimlar jamiyati markazida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'sish sur'ati qashshoqlikka qarshi kurash, fuqarolik va siyosiy huquqlarni ilgari surish maqsadlari o'rtasidagi ijtimoiy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

So'nggi yillarda yangi hodisalar va tushunchalarni o'rganadigan ko'plab ilmiy adabiyotlar paydo bo'ldi. Birinchi navbatda, bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanishga bag'ishlangan tarjima ishlarini qayd etish lozim. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga bevosita taalluqli bo'lmagan ayrim nashrlar intellektual kapital va bilimlar menejmenti nazariyasining u yoki bu jihatlarini ishlab chiqmoqda. A.A.Dinkin, N.I.Ivanova, S.M.Klimovning ishlari ushbu mavzudagi dastlabki Rossiya nashrlari sirasiga kiradi. 2003 yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya davlat xizmati akademiyasining mualliflar jamoasi ishi chop etildi. Shu yili A.N.Kozirev va V.L.Makarovning fundamental ishi, shuningdek, bilimlar iqtisodiyoti bo'yicha o'quv qo'llanmasi nashr etildi. BMT Rivojlanish Dasturining Rossiyada bilimlarga asoslangan jamiyat tashkil topishiga bag'ishlangan 2004 yilgi yillik to'plam mamlakat ilmiy g'oyasiga jiddiy o'zgarish kiritdi.

Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri texnologiyalar transferining bozor mexanizmidir. Bu jarayonni tezlashtirish uchun milliy sanoatimizda yangi texnologiyalarni yaratish va mavjudlarini qo'llashni, olimlar tomonidan biznes takliflarini rag'batlantiruvchi mexanizm yaratilishi lozim. Kontseptsiyada ta'kidlanganidek, bunday mexanizm sifatida davlatning texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlaydigan ilmiy va sanoat korxonalarining konsortsiumi bo'lishi mumkin. Agar korxonalar yangi ishlanmani

bozorda sotib olmoqchi bo'lsa va olimlar ilmiy tashkilot vakillari sifatida ilmiy tadqiqotlarni nihoyasiga etkazishda, sanoat texnologiyasini yaratishda qatnashmoqchi bo'lsa, unda bu jarayon, loyiha davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Bunday holatda ishlanmalarni nihoyasiga etkazish harajatlarini qisman yoki to'la davlat qoplashi (ya'ni sanoat korxonasi yoki ilmiy-tadqiqot institutining riski pasayadi), ilmiy-tadqiqot instituti tayyor mahsulotni sotishdan olinadigan foydadan o'z ulushini olishi mumkin (ya'ni konsortsiumda ishtirok etish manfaatdorligi oshadi).

Institutsional tub o'zgarishlar, bilimlar iqtisodiyotining "ijtimoiy kapital" deb nom olgan qismini tadqiq etish bo'yicha ishlarni alohida blokka ajratish mumkin. Bu borada F.Fukuyamaning ijtimoiy kapital singari toifani jiddiy ravishda rivojlantirib, to'ldiradigan ishi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu toifa G'arbda iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda.

Mehnatni bilimlar bilan almashtirish olimlarga mehnat faoliyatini ijodkorlik, innovatsiyalar, g'oyalarni ishlab chiqish bo'yicha ajralib turadigan yangi faollik turiga almashtirish mumkinligi haqida gapirishga asos bo'ladi. Bu erda gap axborot to'plash va uni qayta ishlash bo'yicha tan olingan hamda ma'naviy yo'naltirilgan faoliyat – intellektual faollik haqida bormoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimlarni yaratish va ulardan foydalanish nuqtai nazaridan tarmoqlarni bilimlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilarga tasniflash mumkin. Birinchi guruhga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmfan va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), ta'lim, yuqori texnologik ishlab chiqarish, nano va biotexnologiyalar (mutaxassislar, muhandislar, ilmiy xodimlar, dasturchilar, dizaynerlar, professor-o'qituvchilar va h.k.lar)ni kiritish mumkin.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot to'rtta omil – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, ishchi kuchini sifatli o'zgartirish, iqtisodiy yuksalish va aholi farovonligini oshirishga tayanadi. Yangi iqtisodiyotda bilimlar tovarga aylanadi va u alohida kapitaldir. Bilimlar ijtimoiy tovar hisoblanadi. Bu bilimlar o'zlashtirilgach esa, ular nolinch marjinal harajatlarga ega ijtimoiy tovarga aylanadi. Shu sababli, yangi bilimlarni yaratuvchi axborot, bilimlardan bepul foydalanishni cheklash, ya'ni mualliflik va yangilikni patentlash muammosiga duch keladi.

Yangi iqtisodiyotda tarmoqlar ikki guruhga bo'linadi: bilimlarni ishlab chiquvchilar va iste'molchilar. Bilimlarni ishlab chiquvchi guruhlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmog'i, muhandislar, ilmiy xodimlar, dasturchilar, dizaynerlar va boshqalar mehnat qiladigan ilmiy muassasalar kiradi. Axborotni boshqaradigan, qayta ishlaydigan va taqsimlaydigan sohalar, ya'ni telekommunikatsiyalar, banklar, reklama agentliklari, sug'urta, yurisprudentsiya, tibbiyot, davlat boshqaruvi, ta'lim sohasi bilimlar iste'molchilari hisoblanadi.

Innovatsiyalar bilimlarni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning asosiy xususiyatini ifoda etadi. Iqtisodchilar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar bugun iqtisodiy yuksalishning asosiy manbai va korxonalar, mintaqalar hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining muhim omilidir. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti

ekspertlari hisob- kitoblariga ko'ra, keyingi yigirma yilda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishi bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiya jarayonlarini rivojlanti- rishning bir qancha printsiplari xususiyatlari va yo'nalishlarini ifodalash mumkin (ularning ayrimlari yangi yo'nalish emas, balki innovatsiyalarning yangi tushunchalari hisoblanadi):

1. Tadqiqotlar va ishlanmalar innovatsiyalar uchun bilimlarning yagona manbai hisoblanmaydi. Bozorni o'rganish, raqobatchilar va sheriklar tajribasi innovatsion axborotning ko'p foydalanadigan manbalarini tashkil qiladi.

2. Innovatsiyalar iqtisodiyotning faqat ilmtalab sektorlari uchun imtiyoz hisoblanmaydi. Innovatsion faollik muhim va bugungi kunda sanoat tarmoqlari, xizmatlar sohasi hamda iqtisodiyotning davlat tarmog'i, jumladan, davlat boshqaruvi organlarida amalga oshirilmoqda.

3. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli (fundamental tadqiqotlardan tijorat uchun sotish) noto'g'ri. Innovatsiyani zamonaviy tushunish innovatsion jarayonlarning interfaol va tizimli modelidan boshlanadi va ushbu modelda innovatsiya tizimlari (mintaqaviy, milliy va xalqaro) muhim o'rin tutadi.

Mazkur tizimlar doirasida esa yangi ilmiy va texnologik bilimlar yaratiladi, joriy etiladi hamda ulardan foydalaniladi, innovatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlanadi.

4. Innovatsiyalar jadallashmoqda va ularni rag'batlantirish raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

5. Innovatsion jarayonlar yanada globallashtirilmokda.

6. Korxonalar keng ko'lamli texnologiyalarga tayangan holda, ko'p hollarda bilimlarni tashqaridan olishga majbur bo'lmoqda. Texnologik alyanslar, ilmiy tashkilotlar bilan shartnomalar, innovatsion faol korxonalar tarmoqlari va klasterlari soni ko'paymoqda.

Iqtisodiy rivojlanishda axborot va bilimlarning muhimligini umumiy anglashni e'tirof etish, siyosiy doiralar, biznes vakillari, menejerlarning raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalar muhim rol o'ynashiga qat'iy ishonishi bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishni belgilovchi yana bir zamonaviy yo'nalishdir. Bu yo'nalishni rivojlanish omili sifatida baholamay bo'lmaydi. Jamiyat va iqtisodiyot "aksini ko'rsatuvchi, refleksiya tizimlar" hisoblanadi, iqtisodiy o'sish omillari to'g'risidagi tasavvurni o'zgartirish o'z-o'zidan bu tizimlarni ham o'zgartiradi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bilimlar va innovatsiyalar muhimligini anglash menejmentning ma'lum darajada bozorlarda firmalar o'zini tutishi va ularni rivojlantirish strategiyasini belgilaydigan zamonaviy yo'nalishlarini shakllantiradi (bilimlarni boshqarish, innovatsiyalarni boshqarish). Buni davlat darajasida anglash bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqishga undaydi.

Keyingi o'n yilda bilimlarni yaratish, etkazib berish va qayta ishlash vositalariga ta'sir ko'rsatgan texnologik o'zgarishlarko'lami ayrim ekspertlarning yangi bilimlar davri bo'sag'asida turganimiz haqidagi taxminga kelishini taqozo etdi. Og'zaki an'analar, yozma so'z, keyinchalik esa bosma so'zlarga asoslangan bilimlar



shakllaridan boshlab, raqamli ommaviy axborot vositalari rivojlanishi tarmoqlarni etkazib berishlarini jadallashtiradigan gorizontal o‘q va birikishni jadallashtiradigan vertikal o‘q bo‘yicha mislsiz kengaytirishni rag‘batlantirdi. Xalq farovonligini ta‘minlash va mamlakatimizning jahondagi yuqori pozitsiyani saqlash uchun ko‘proq va tezkor muloqot qilishimizni talab qiladigan davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Interfaollik – ushbu yangi bilimlar uslublarining yana bir o‘ziga xos xususiyatidir. Aslida esa, manbadan jamiyatga markazlashtirilgan kommunikatsiyani ta‘minlaydigan radio, televidenie yoki matbuot kabi “bir tomonlama ommaviy axborot vositalari” va ilk bor masofadan turib “yuzma-yuz” gaplashish imkonini bergan telefon yoki kechiktirmasdan bog‘lanishni, multimediya interfeyslari, avvalambor, ulangan odamlar va tashkilotlarga real vaqtda o‘zaro hamkorlik qilish imkonini taklif etadigan Internet kabi interfaol ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi farqni aniqlashimiz darkor.

## **2.Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish**

Bugungi kunda mamlakatimiz hukumati tomonidan ishlab chiqarish sohasini innovatsion rivojlantirishni rag‘batlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash jarayonida mamlakatimiz mahsulotlarini eksport qiluvchi ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish chora-tadbirlari davom ettirilmoqda. Buning oqibatida “Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Mamlakatimizning oltin-valyuta zaxirasi 1,6 mlrd. AQSh dollariga ko‘paydi”. Bu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, milliy korxonalarimizda innovatsion faoliyatni boshqarishga birlamchi e‘tibor qaratilyapti. Ammo innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi u yoki bu sub‘ektning innovatsion rivojlanish maqsadi yo‘nalishidan kelib chiqib, o‘zida turli usul va vositalar yig‘indisini mujassamlashtiradi. Innovatsion sohadagi boshqaruv qarorlarining natijaviy tayyor mahsulotga aylanishini ta‘minlovchi samarali mexanizmni ishlab chiqish milliy korxonalarimizning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biridir. Ayni paytda mazkur mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblangan innovatsion faoliyatni tashkil etishning metodik asoslarini shakllantirmay turib, masalani hal etish mumkin emas. Aslida innovatsion sohaga tegishli tushunchalar hali to‘la shakllantirilmagan. Shuning uchun innovatsion faoliyatning tabiati va mazmun-mohiyatiga turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan bir paytda xo‘jalik sub‘ektlari mavjud imkoniyat va cheklanishlarni hisobga olgan holda, ushbu sohada samaraliroq siyosat ishlab chiqishga imkon beruvchi aniq takliflarga ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyat metodikasini ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, innovatsion faoliyatni tashkil etishning taklif etilayotgan metodikasi quyidagi printsiplarga asoslanadi:



мақсадлилиқ



тизимлилиқ



ташқил этувчи барча тарқибий қисмларнинг концептуал бирлиги.

Mazkur metodikani ishlab chiqishning asosiy maqsadi sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini tashkil etish bo'yicha ma'lum dastur yaratish hisoblanadi. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilardan iborat:

- korxonada innovatsion faoliyatni tashkil etish ishlarining mazmuni va mantiqiy izchilligini ta'minlash;
  - innovatsiyalarning yaratilishi va tarqalishi bo'yicha korxonaning barcha bo'g'inlari hamda xizmat bo'limlari faoliyatining muvofiqligini ta'minlovchi mos tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish;
  - innovatsion faoliyatning muayyan jihatlari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
  - korxonada innovatsion faoliyatning maqsadliliği va tizimliliğini ta'minlash;
  - korxonada innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish.
- Ushbu metodika quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

**1. Innovatsiya tushunchasini hamda innovatsion faoliyatning mazmunini aniqlashtirib olish.** Ta'kidlab o'tganimizdek, hozirgi paytda "innovatsiya" tushunchasini aniqlab beruvchi, shu jumladan, dunyo mamlakatlari qonunchiligida turli xildagi izohlar mavjud. Xususan, Rossiya Federatsiyasining innovatsiyalar to'g'risidagi qonunida innovatsiya amaldagi qonunchilikka ko'ra intellektual mulk sifatida tan olingan, ilmiy, ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy-texnik faoliyat natijasi sifatida tavsiflangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining amaldagi rasmiy statistikasi innovatsiyaga "innovatsiya – innovatsion faoliyatning pirovard natijasi sifatida bozorga chiqarilgan yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulot yoki xizmatlar hamda amaliyotda foydalanishga joriy etilgan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon yoki ishlab chiqarish (xizmat) usullaridir", deya ta'rif berilgan.

Innovatsiya faqatgina bozorga chiqarilganda yoki ishlab chiqarish jarayoniga qabul qilingandagina namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, korxonaning innovatsion faoliyati rasmiy statistikada qayd etilishi bilangina amalga oshgan hisoblanmaydi. Tashkiliy- boshqaruv sohasida (aynan marketing sohasida) innovatsiyalarsiz korxonaning samarali innovatsion rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi. Shuning uchun, ushbu metodik tavsiyamizda "innovatsiya" tushunchasini turli o'rinlarda, aynan, davlatning tartibga solish funksiyasidan kelib chiquvchi talablari, statistika va korxonalar talablari nuqtai nazaridan aks ettirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Fikrimizcha, "innovatsiya" tushunchasi yangilik kasb etuvchi va foydali samaraga ega bo'lgan ilmiy, tadqiqot, texnik va boshqa maqsadli faoliyatlarni aks ettiradi. Innovatsiyaga berilgan ta'riflarning turlicligi innovatsiyalarga davlatning

hamda o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda korxonaning zaruriy talablarini o'rganish va tahlil qilish asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning eng to'g'ri metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi va mos ravishda, boshqarish ob'ekti – innovatsion faoliyatning quyidagicha aniq ta'rifi hosil bo'ladi: Demak, innovatsion faoliyat tovarlarning sotuv bozori va mazkur bozorning iste'molchilik xususiyatlarining marketing tadqiqotlariga tayangan holda, ishlab chiqarishda texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy yangiliklarni ishlab chiqilishi, o'zlashtirilishi va tarqalishining o'zaro bog'liq jarayoni sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, mazkur faoliyat axborot-ta'minot, konsalting, ijtimoiy va boshqa turdagi xizmatlarni tashkil etishning yangi yo'llarini ishlab chiqishni ham nazarda tutadi. Boshqarish metodologiyasiga bu kabi yondashuv innovatsion faoliyatning yaxlit tashkiliy tuzilishini shakllantirish imkonini yaratadi.

## **2. Korxonada innovatsion faoliyatning tashkiliy tuzilishini ishlab chiqish.**

Innovatsion faoliyat tanlab olingandan keyin uning, maqsadli yo'nalishi innovatsion vazifalarning tuzilishini aniqlab beradi. Bunda korxonaning hajmi, o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarayotgan mahsulotning hajmi va nomenklaturasi kabi turli omillar yuqori ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, innovatsion faoliyatni boshqarish har bir turdagi korxonaga uchun alohida harakterga ega. Bunda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan umumiy jihat shundan iboratki, u butun tashkiliy tuzilmaga uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Bundan tashqari, turlicha darajalarda boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi turli bo'g'inlar faoliyatini muvofiqligini ta'minlashi ham zaruriy shartlardan hisoblanadi. Chunki, alohida mahsulot turi bo'yicha ham, butunligicha barcha yo'nalishlar bo'yicha ham innovatsion loyiha va dasturlarni amalga oshirish korxonaga uchun bir xil darajada muhim ahamiyatlidir.

## **3. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish.**

Korxonaning innovatsion strategiyasi agressivlik (hujumkorlik) darajasiga ko'ra turlicha farqlanishi yoki o'zida mudofaa xususiyatini ham kasb etishi mumkin. Strategik menejmentda agressivlik tushunchasi korxonaning o'z texnologiyasi, mahsulot turlari va marketing strategiyasiga o'zgarish kiritishining tezligi va radikalligi darajasini aks ettiradi. Innovatsion menejmentga mos holda ta'kidlab o'tish joizki, innovatsion strategiyaning agressivligi, birinchi o'rinda, ishlab chiqilgan va joriy etilayotgan yangilikning radikallik darajasiga bog'liq. Korxonaning innovatsion agressivligini belgilashda innovatsiyalarni yaratish chastotasi, joriy etish tezligi, innovatsion-investitsion faoliyatni moliyalashtirish ko'lami kengligi va innovatsiyaning bozor marketingining intensivligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion strategiyani tanlashda amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning noaniqliklari va tavakkalchiliklari kabi bir qancha ko'rsatkichlarni e'tiborga oluvchi ko'pqirrali model asos qilib olinishi lozim.

## **4. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash va tahlil qilish uslubiyoti.**

Innovatsion faoliyat tahlili quyidagi yo'nalishlarni o'z ichida mujassamlashtirishi zarur:

- korxonaning o'z bo'sh pul mablag'lari va umumiy moliyaviy holati tahlili;
- innovatsion loyihalar uchun harajatlar tahlili;

- ko‘rib chiqilayotgan, joriy etishga qabul qilingan, joriy etilayotgan, joriy etilgan va rad etilgan loyihalarning tuzilmaviy tahlili;
- innovatsion loyihalarni joriy etish va ularning samaradorligini baholashni hisobga olish tizimini tadqiq etish;
- joriy etilgan innovatsion loyihalarning korxonaning butun xo‘jalik faoliyati natijalariga ta‘sirini baholash;
- korxonaning moddiy resurslari va xodimlar bazasi salohiyatining innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi tahlili;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish samaradorligining integral ko‘rsatkichlari;
- korxonaning innovatsion rivojlanishiga tashqi muhit ta‘sirining tahlili.

**5. Innovatsiyalar marketingi uslubiyoti.** Marketing faoliyati o‘zida bozorni kompleks tadqiq qilish, innovatsiyalarni yaratishni rejalashtirish, ularning raqobatbardoshligi, narx siyosati, siljitish, sotuvini tashkil etish hamda servis xizmat ko‘rsatishni tezlashtirishni nazarda tutadi. Mos ravishda, ko‘rsatib o‘tilgan barcha yo‘nalishlar bo‘yicha alohida metodikalar ishlab chiqilishi mumkin.

Bugungi kunda ko‘p korxonalarda marketing asosida innovatsiyalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Taklif etilayotgan metodikaning tarkibiy qismlariga korxonada faoliyatining aniq sharoitidan kelib chiqib, qo‘shimchalar kiritilishi va ular kengaytirilishi ham mumkin. Shu bilan birga, aniq bir turdagi korxonada innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirishga yordam beruvchi zarur metodik asoslar korxonaning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra o‘z-o‘zini namoyon etadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishning taklif etilayotgan metodikasi mamlakatimiz korxonalarida innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur asos bo‘lib, bu boradagi ishlarning amalga oshirish tezligini orttirishga xizmat qiladi. Zero, milliy korxonalarimizda innovatsion ishlab chiqarishning jadallik bilan rivojlantirilishi ular ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ortishiga va jahon bozorida etakchilik o‘rnini mustahkamlashga imkon yaratadi.

### **3. Korxonalar innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy jihatlarini tahlili**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni, iqtisodiyotni modernizatsiyalash borasidagi sa‘y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi hozirgi kunda sanoat korxonalarida texnika va texnologiyalarni keng joriy etish hamda investitsiyalar jalb qilish doirasini kengaytirish va ulardan imkon darajasida samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki mamlakatimizda bozor iqtisodiyatiga o‘tish davrida turli mulchilikka asoslangan ishlab chiqarishni vujudga kelishiga, ya‘ni iqtisodiyatda sanoat korxonalarida ko‘rinishidagi birlashmalarni rivoj topishi mulkdorlarni xo‘jalik yurituvchi korxonalar, aktsiyadorlik jamiyatlari, shu‘ba korxonalar, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi va o‘z faoliyatlarini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun o‘zlarining investitsiyalari bilan iqtisodiy sharoit yaratadi.

Bu borada rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining boshqarish tizimida innovatsion faoliyatni strategik va tizimli boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning natijasida aniq bir tarmoqda ishlab chiqarishni samarali amalga oshirish, boshqaruvni markazlashtirish va innovatsion faoliyatni yanada kuchayishi kuzatilmoqda. Chunki xususiy mulkchilikning rivojlanishi sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishni talab etadi. Davlat tomonidan xususiy mulk va mulk egalarining huquqlarini himoya etilishi investorlar tomonidan sanoat korxonalarida innovatsion muhitni yaxshilashga imkoniyat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz korxonalarida innovatsion faoliyatning yanada rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganish, innovatsion faoliyatning samaradorligi, avvalambor, mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunlar doirasida yagona huquqiy me'yorlar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotning innovatsion faoliyati, birinchidan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, innovatsion loyihalar, g'oyalar va ixtirolarni moliyalash tizimini rivojlanganlik jihatlariga bog'liq bo'ladi. Demak, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion faoliyatni boshqarish to'g'risida fikr yuritilgan ekan, avvalambor, innovatsiya, innovatsion faoliyat tushunchalarini o'rganib olish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilikka asoslangan sub'ektlarining innovatsion faoliyati bir qator ijobiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Jumladan:

- amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish;
- mahsulot ishlab chiqarish harajatlaridan unumli foydalanish va harajatlar rentabelligini oshirish;
- barcha me'yorlarga ekologik jihatdan to'liq javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ushbu mahsulotlar tannarxini pasaytirish;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borish;
- mavjud mahsulotlarga turdosh yangi tur mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni talab etadi.

Oddiy innovatsion jarayon ikki fazada kengaytirilgan jarayonga o'tishi mumkin:

1. Yangilikni yaratish va tarqatish.
2. Yangilik kiritish diffuziyasi.

Innovatsiya - kommunikatsiya bilan bog'liq bo'lgan axborot almashish jarayoni. Innovatsiya diffuziyasi esa o'zlashtirilgan innovatsiyani tarqatish va yangi sharoitlarda qo'llashni anglatadi.

Innovatsion jarayon sub'ektlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Korxonada faoliyat yuritayotgan novatorlar - fan - texnika taraqqiyoti generatori.
2. Dastlabki retsipientlar – birinchi bo'lib yangilikni joriy qilgan tadbirkorlar

hisoblanadi.

3. Dastlabki ko'pchilik - yangilikni joriy qilgan korxonalar.

4. Qoloqlar ma'naviy eskirgan yangilikni endi joriy qiluvchi korxonalar.

Mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rangbarang va turli-tuman ko'rinishga ega.

Iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi texnik taraqqiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion jarayonda markaziy rol o'ynaydi, innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur'ati yuqori bo'lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi. Bu borada XX asrning birinchi yarmi iqtisodchilari orasida Yozef Aloiz Shumpeter (1883-1950) alohida o'rin egallaydi. Uning zamonaviy iqtisodiy fikrlashga ko'rsatgan ta'siri neoklassik maktab vakillari ta'siridan kam emas. Aynan shu olim innovatsiyalarni olg'a suruvchi va unda me'yorl darajadan katta bo'lgan daromadning asosiy manbasi bo'luvchi raqobat mexanizmini tavsiflab bergan. Innovatsiyalar yoki «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish» tushunchasiga Shumpeter tashkilot, mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini doimiy takomillashtirish yo'li bilan olinuvchi strategik afzallik va yutuqlarni kiritgan bo'lib, quyidagi besh holatni ko'rsatib o'tgan (16.1-rasm).



**15.1-rasm. Innovatsion faoliyatning yutuqlari**

*Manba: mualliflar ishlanmasi.*

Innovatsiyalarni amalga oshirishda pul bozorining roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan pul bozorida iqtisodiy loyihalar taqqoslanib, rivojlanish moliyalashtiriladi, «kelajakdagi qiymat tizimi paydo bo'ladi». Iqtisodiyotning etakchi sektori hisoblangan banklar ishlab chiqarishni kengaytirishni yoki yangiliklar

kiritishni moliyalashtirishi mumkin. Shumpeterning fikriga ko'ra, ular milliy firmalar raqobatbardoshligini oshirishda strategik rol o'ynashi yoki aksincha, vaziyatga sustkashlik bilan javob qaytarishi va «kelajakdagi qiymat»ni izlamasligi mumkin.

### **Tayanch so'zlar**

Davlatning innovatsion siyosati, ilmiy tadqiqotlar, ishlamlar, tajriba, konstruktorlik, fan, texnika, yutuq, faoliyat, rag'batlantirish, iqtisodiy, ijtimoiy, faoliyat, huquq, tashkiliy, rivojlanish, infratuzilma, ustuvor, jamiyat, demokratizatsiya, ochiqlik, oshkoralik, zamonaviy, me'yoriy, soliq, imtiyoz, manfaatdor.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsiya faoliyatiga davlatning faol aralashuv strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Ilmiy faolliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini tushuntiring?
3. Ilmiy-texnik raqobat nima?
4. Innovatorlar mehnatini rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish yo'llarini aytib bering?

## **4.INNOVATSION KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

### **1. Milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari**

Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqbolli tarmoqlarni va tadbirkorlik yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashda klaster yondashuvidan samarali foydalanilmoqda. Chunki, klasterlar avvalo yangi boshqaruv texnologiyasi bo‘lib, alohida hududlar, tarmoqlar va davlatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bugungi kunga kelib klasterlar nafaqat iqtisodiy, balki, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda alohida o‘rni mavjudligi ilmiy asoslangan.

Klaster to‘g‘risidagi iqtisodiy maktablar turli qarashlar va yondashuvlar asosida shakllandi (A.Marshal, Y.Shumpeter, P.Krugman, M.Porter va boshqalar). Ma‘lumotlarga ko‘ra iqtisodiy ta‘limotlarda klaster to‘g‘risidagi dastlabki yondashuvlar 1890 yilda Alfred Marshall o‘zining “Principles Economics” deb nomlangan asarining “Alohida hududlarda mahsus ishlab chiqarishlarni mujassamlashtirish” deb nomlangan bobida o‘zaro yaqin joylashgan xo‘jalik sub’ektlar va ularning samaradorligi to‘g‘risida xulosa shakllantirgan.

Ammo klaster nazariyasining asoschisi sifatida Garvard biznes maktabining professori Maykl Porter 1990 yilda “Competitive Advantage of Nations” nomli asari bilan tanilgan. Uning asarida, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar sanoatining rivojlanishi hamda jahondagi ilg‘or sanoat tarmoqlarining rivojlanishi e‘tirof etilgan bo‘lib, raqobatbardosh tarmoqlar klaster printsipi asosida rivojlanishi va klasterlarning qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat klasterdagi kompaniyalarning balki, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

XX asrning 1980-1990 yillaridan klasterlar ishlab chiqarishning ilg‘or aglomeratsiyasi sifatida qabul qilingan bo‘lib, klaster joylashgan hudud ishtirokchilari va hududlarga yuqori raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatini bergan.

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlar tahlilidan ma‘lum bo‘lishicha bugungi kunga kelib klasterga yagona ta‘rif berilmagan, ushbu maqsadda klaster tushunchasiga yanada aniqlik kiritish maqsadida unga ta‘rif bergan olimlarning ta‘riflarining tizimlashtirili- shi maqsadga muvofiqdir (1-jadval).



## 1-jadval Klaster tushunchasining aniqlanishi

	Muallif	Yil	Manba	Klaster to'g'risidagi talqinlar
1	Porter	1990	The competitive advantage of nations	Sanoat klasteri – tarmoqlarning sotuvchi-ta'minotchi yoki ta'minotchi- sotib oluvchi tizimlari orqali aloqadorligi, yoki umumiy texnologiyalar asosidagi aloqadorliklar
2	Schmitz	1992	On the clustering of small firms	Klaster bu bitta tarmoqqa ta'luqli bo'lgan korxonalarining guruhi va o'zaro yaqin aloqadorlikda faoliyat yuritish
3	Feser	1998	Old and new theories of industry clusters	Iqtisodiy klasterlar bu nafaqat bog'liq bo'lgan va aloqador tarmoqlar va institutlar, balki, faqat aloqador va bog'liq institutlar bo'lib, ularning aloqadorligi va bog'liqligi asosida raqobatbardoshligi ta'minlanadi
4	Roelandt and den Hertag	1999	Cluster analysis and cluster-based policy making in OESD countries	Klasterlar – kuchli aloqadorligi bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lib (shu jumladan, mahsus ta'minotchilar ham) ishlab chiqarish zanjirini tashkil etadi
5	Bergman and Feser	1999	Industrial and regional clusters	Sanoat klasterlari tijorat yoki notijorat tashkilotlar shaklida bo'lishi mumkin, ular uchun guruhda a'zolik raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyati vazifasini bajaradi

1-jadvalda Yu.S.Artamonova va B.B.Xrustaleva o'z tadqiqotlarida klaster bo'yicha 2000 yilga qadar amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida shakllantirilgan ta'riflar umumlashtirilgan bo'lsa, mazkur ta'riflarga ko'ra aksariyat klasterlar sanoat bilan bog'langan va sanoat klasterlari deb belgilangan.

Klasterlarga berilgan ta'riflarni tizimlashtirishda Yu.S.Artamonova va B.B.Xrustaleva o'z tadqiqotlarida klasterlarning hududiy aloqadorligiga alohida urg'u berilgan ta'riflarni ajratishdi, ya'ni, "regional cluster" – "hududiy klaster" iborasi paydo bo'ldi (2-jadval).

2-jadval tahliliga ko'ra aksariyat olimlarning klasterlar to'g'risidagi yondashuvlari bevosita hududlar bilan bog'langan va aniq bir geografik hududda klasterning tashkil etilishi muhimligi belgilangan.

Tarixan, klasterlarning rivojlanishini bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin, jumladan, XX asr oxirlarida hududlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlarning shakllanishi; XXI asrning boshlarida yangi turdagi sanoat klasterlarining rivojlanishi, bular, dizayn, ekologiya, logistika, biomeditsina dorilarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlar va boshqalar; asta sekinlik bilan klasterlarning innovatsion ahamiyatining ortib borishi kuzatildi, buning natijasida jahon iqtisodiyotida klasterlarning innovatsionlashuvi raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omili degan yondashuvlar rivojlandi<sup>58</sup>. Chunki, so'nggi ellik yil ichida dunyoda keskin texnologik o'zgarishlar ro'y berdiki natijada yangi texnologiyalarning amaliyotga joriy qilinishi tobora ularning o'zaro bog'liqligi bilan ahamiyatli bo'ldi (mikroelektronika,

nanotexnologiya, telekommunikatsiya, kompyuterlar va boshqalar). Mazkur texnologiyalar o'z navbatida innovatsion jarayonlarning yangi shakllaridan foydalanishni taqozo qildi, buning uchun ko'plab mamlakatlarda milliy sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishda klaster yondashuvidan keng foydalanildi.

## 2-jadval

### Klasterlarning hududiy aloqadorligi to'g'risidagi nazariy yondashuvlar<sup>57</sup>

	Muallif	Yil	Manbaa	Klaster to'g'risidagi talqinlar
	Enright	1996	Regional clusters and economic development	Hududiy klasterlar – sanoat klasterlari bo'lib, undagi ishtirokchi firmalar o'zaro yaqin aloqadorlikda faoliyat yuritishadi
	Swann and Prevezer	1996	A comparison of the dynamics of industrial clustering in computing and biotechnology	Klasterlar bu bitta tarmoq doirasidagi firmalar guruhi bo'lib bitta geografik hududda joylashgan bo'ladi
	Porter	1998	On competition	Klaster – aloqador kompaniyalar va aloqador institutlarning geografik jihatdan yaqinligi
	Swann and Prevezer	1998	The dynamics of industrial clustering	Klaster– firmalarning katta uyushgan guruhi bo'lib, alohida hududda joylashgan va umumiy tarmoqlar doirasida tashkil etilgan uyushmalarga aytiladi
	Bergman and Feser	1999	Industrial and regional clusters	Hududiy klasterlar – sanoat klasterlari bo'lib, geografik bir xil joyda joylashgan bo'ladi va boshqa xo'jalik birlashmalardan
				iborat bo'ladi
	Van den Berg, Braun and van Winden	2001	Growth clusters in European cities	Klaster mahalliy yoki hududiy tarmoqlar bilan uzviy bog'liq
	OESD	2002	World congress on local clusters Regional clusters in Europe	Hududiy klasterlar – geografik jihatdan chegaralangan va o'zaro bog'liq bo'lgan firmalar
	Visser and Boshma	2002	Clusters and networks as learning devices for individual firms	Klasterlar geografik jihatdan muvofiqlashtirilgan va bir xil faoliyatga jalb qilingan firmalarga aytiladi
	Andersson et al.	2004	The cluster policies whitebook	Klasterizatsiya – bir geografik hududda firmalarning hamkorlikdagi joylashuv jarayoni

Ushbu munosabatda, klasterlarning rivojlanish bosqichlari tahlilidan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda klasterlarning rivojlanishi yangi pog'onaga ko'tarilgan, ya'ni, innovatsion klasterlarning rivojlanishi. Bunda e'tiborli tomoni shundaki, innovatsion klasterlar bugungi kunda nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, balki iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda faol rivojlanayotganligi kuzatilmoqda.

Belgilash lozimki, boshqa klaster turlaridan innovatsion klasterlarning farqli tomoni shundaki, ushbu klasterda korxonalar, ta'minotchilar va mijozlar o'rtasidagi aloqadorliklardan tashqari klasterning asosini yoki ishtirokchisi vazifasini ilmiy-tadqiqot muassasalari, institutlar va universitetlar tashkil etgan bo'ladi.

O'z navbatida, olimlar tomonidan innovatsiyalarga asoslangan klasterlarga ham ta'rif berishda yagona yondashuvi kuzatilmagan va ularning turli xilda bo'lishiga qaramasdan ushbu yondashuvlarni umumlashtirgan xolda xulosa qilish mumkinki, innovatsiyaga asoslangan klasterlar guruhidagi tashkilotlar tarmoqlar bo'yicha va o'zaro hamkorlikdagi manfaatlari doirasida birlashishlari mumkin, ayniqsa, innovatsiyalarni tanlash, generatsiya, ishlab chiqish va yangiliklarni joriy qilish jarayonida (3-jadval).

Yuqorida belgilanganidek, bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarga taaluqli bo'lgan innovatsion klasterlarni, iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin, bundan ko'zlangan maqsad, innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu mamlakatlardagi klasterlarning aksariyati AQShdagi Kremniya vodiysi muvaffaqiyatini qaytarishga urinilgan, masalan, Bangalordagi Kremniya plato (Hindiston), Kremniya oroli (Tayvan), Kremniya botqog'i (Isroil) va boshqalar.

Klasterning muhim ustuvorliklaridan biri shundan iboratki, uning tarkibidagi firmalarning boshqa firmalar innovatsiyasi hisobiga raqobatbardoshligi ortadi. Klaster doirasida bilimlarning yoyilishi ularning ko'payishiga ham sabab bo'ladi. O'zaro yaqin aloqadorlikda bo'lgan innovatsion firmalarda mahsulotga yoki texnologiyaga tezlikda o'zgartirish kiritish imkoniyati bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, innovatsion rivojlanishni maqsad qilib qo'ygan firmalar faoliyati turdosh bo'lgan klasterlarni tashkil qilish imkoniyatlari yuqori bo'ladi.

Shu bilan birga klasterlar tarkibida tashkil etilgan "startup"larning faoliyati ham samarali bo'lishi mumkin. Muhim jihati shundan iboratki, klasterlar tarkibida tashkil etilgan "startup"lar klaster ichidagi kuchli raqobat hisobiga amalga oshmaslik xolati yuz bersa ham, "startup"da tashkil etilgan ish o'rinlarning yo'qotilmasligiga va yangi ishtirokchilar bilan yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, klasterlarni shakllantirishning infratuzilma ta'minotining ajralmas qismi sifatida biznes-inkubatorlar, texnoparklar, mahsus iqtisodiy zonalar bo'lishi ham muhimdir.

### 3-jadval “Innovatsion klaster” iborasining aniqlanishi

	Muallif	Manba	Berilgan aniqlanish
	Brigitte Preissl <sup>60</sup>	Innovation Clusters: combining physical and virtual links	Yangi mahsulot va texnologiyalarning aniq iqtisodiy muhitda va aniq vaqt oralig'ida o'zaro bog'langan yaxlit tizimi
	David B. Audretsch, <a href="#">Ma ryann P. Feldman</a> <sup>61</sup>	Innovative cluster and the industry life cycle: review of industrial rganizations	Iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i yoki sohasiga innovatsiyalarni kiritishga ko'maklashuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan tashkilotlar
	Bortagaray S. Tiffin <sup>62</sup>	Innovation cluster in Latin America	Chegaralangan geografik muhitda joylashgan tashkiliy tuzilma ishtirokchilari tomonidan hamkorlikda yaratilgan mahsulot yoki korxonalar
	Simmie J., Sennett J. <sup>63</sup>	Innovation in the London metropolitan region	O'zaro mustaqil sanoat yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'i
	European Commission. Enterprise and industry directorate – general <sup>64</sup>	Innovation cluster in Europe: A statistical analysis and overview of current policy support	Bilimlar transferti, yangi ilmiy kashfiyotlar qilish asosida ularni innovatsiyalarga moslashtiruvchi turli tashkilotlarning faoliyatlarini norasmiy birlashtirish
	Andersson T., Schwaag-Serger S., Sorvik J., Hansson E.W. <sup>65</sup>	The Cluster Policies Whitebook	Klasterlarning alohida turi bo'lib, generatsiya, ishlab chiqarish va tijoratlashtirish jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatiga ega
	Burnashev K.G. <sup>66</sup>	Razvitie innovatsionno-orientirovann o'x klasterno'x struktur	Innovatsiyaga moslashgan klasterlar – o'zaro xizmatlar, mehnat resurslari, g'oyalar va axborotlar almashinuvi to'liq shakllantirilmagan ammo sinergetik samara va innovatsion faollik o'sishiga erishish maqsadida integratsiyaga tayyor bo'lgan tashkilotlar guruhi

Innovatsion klasterlarda ilmiy, iqtisodiy, sanoat va ijtimoiy siyosatning sintezi bo'lib o'tadi. Chunki, klasterning ushbu turi barcha innovatsion zanjirni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni, ilmiy g'oyadan to uning amalga oshirilishiga qadar – ishlab chiqarish va tayyor mahsulotning sotilishigacha.

K.G. Burnashev o'zining “Innovatsiyalarga asoslangan klaster tuzulmalarni rivojlantirish” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida innovatsiyaga moslashgan klasterlarga ta'rif bergan va uning e'tirofiga ko'ra, innovatsiyaga moslashgan klasterlar o'rtasida o'zaro xizmatlar, mehnat resurslari, g'oyalar va axborotlar almashinuvi to'liq shakllantirilmagan ammo sinergetik samara va innovatsion faollik o'sishiga erishish maqsadida integratsiyaga tayyor bo'lgan tashkilotlar guruhi. Innovatsiyaga moslashgan klasterlar guruhidagi tashkilotlar tarmoqlar bo'yicha va o'zaro hamkorlikdagi manfaatlari doirasida birlashishlari mumkin, ayniqsa, innovatsiyalarni tanlash, generatsiya, ishlab chiqish va yangiliklarni joriy qilish jarayonida<sup>67</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. XX asrning 1980-1990 yillaridan klasterlar ishlab chiqarishning ilg'or aglomeratsiyasi sifatida qabul qilingan bo'lib, klaster joylashgan hudud ishtirokchilari va hududlarga yuqori raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatini bergan. Ma'lum davrdan so'ng, klasterlarning hududiy aloqadorligi omili rivojlandi (ya'ni, "regional cluster" iborasi paydo bo'lgan), chunki, aksariyat olimlarning klasterlar to'g'risidagi yondashuvlari bevosita hududlar iqtisodiyoti bilan bog'langan bo'lib, aniq bir geografik hududda klasterlarning tashkil etilishi muhimligi g'oyasi ilgari surilgan.

2. Tarixan, klasterlarning rivojlanishini bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin, ya'ni, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlarning shakllanishi; yangi turdagi sanoat klasterlarining rivojlanishi, (dizayn, ekologiya, logistika, biomeditsina dorilarini ishlab chiqarish va boshqalar) va nihoyat, iqtisodiyotda innovatsion klasterlarning shakllanishi. Innovatsion klasterlarning tobora ko'payib borishi va ularning ahamiyati ortib borishi natijasida jahon iqtisodiyotida klasterlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda klasterlarning rivojlanishi yangi pog'onaga ko'tarilgan, ya'ni, innovatsion klasterlarning rivojlanishi.

Fikrimizcha, klasterlarning tashkil etilishi va faoliyat turlaridan qat'iy nazar, ularning barchasi pirovard natijada innovatsion klasterlarga aylanish imkoniyatlariga egadirlar. Chunki, klaster doirasida bilimlarning yoyilishi ularning ko'payishiga ham sabab bo'ladi va natijada, o'zaro yaqin aloqadorlikda bo'lgan innovatsion korxonalarda mahsulotga yoki texnologiyaga tezlikda o'zgartirish kiritish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, klasterning muhim ustuvorliklaridan yana biri shundan iboratki, uning tarkibidagi korxonalar boshqa korxonalar innovatsiyasi hisobiga raqobatbardoshligi ortadi.

Klasterning asosini ichki va tashqi muhit bilan aloqadorliklar tizimi tashkil etadi va ushbu aloqadorlikning muhim bo'g'inini korxonalar, ta'lim-davlat hokimiyati tashkil etishi muhimdir. Bu esa, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarilish va sotish intensivligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonlar texnologiyalar va bilimlar transferti, tijoratlashtirish hamda hududlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish dasturlari orqali amalga oshiriladi.

3. Bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarga taalluqli bo'lgan innovatsion klasterlarni, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ham faol rivojlanayotganligini kuzatish mumkin va mazkur mamlakatlarda tashkil etilgan innovatsiyaga asoslangan klasterlarning tizimlashtirilishi natijasida jahonda tobora rivojlanayotgan innovatsion klasterlarning yo'nalishlarini aniqlashga yordam berdi.

4. Tadqiqotlarga ko'ra, innovatsion klasterlar tashkil etilgan va rivojlantirilayotgan mamlakatlarda (ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda) innovatsion klasterlarning shakllanishi va rivojlantirilishida davlatning o'рни va roli kattadir. Ushbu munosabatda, klasterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rgangan holda, mamlakatimizda klaster

tuzulmalarini qo‘llab-quvvatlashning quyidagi asosiy shakllari amalga oshirilishi mumkin, jumladan, infratuzulmani yaratib berish (binolar, uskunarlar va h.k.lar), ilmiy tadqiqot va innovatsion harajatlarga soliqlarni pasaytirish yoki soliqlarni joriy qilmaslik va h.k.lar.

## **2.Hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasi**

Yuqori samaradorlikka erishgan iqtisodiy tizimlarning jahon amaliyotidan yaxshi ma‘lumki, raqobatbardoshlik ustuvorliklari ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv, tovarlarni siljitishni tashkil qilishga asoslangan bo‘lsa, iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini ta‘minlashda klaster mexanizmi va zamonaviy innovatsion rivojlanish printsiplaridan kompleks foydalangan holda erishish mumkin. Ushbu holda aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqbolli tarmoqlar va tadbirkorlik yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlashda klaster yondashuvi samarali deb topilgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida klasterlar yillar davomida samarali rivojlangan va ichki hamda tashqi bozorlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan klasterlar innovatsion klasterlar sifatida rivojlanishi bo‘yicha islohotlar faol amalga oshirilmoqda. Bunday klasterlar, AQSh, Avstraliya, Yaponiya, Frantsiya, Braziliya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Hindiston, Ispaniya, Malayziya, Norvegiya, Janubiy Koreya, Singapur, Sloveniya, Finlyandiya, Shvetsiya mamlakatlarida mavjud<sup>68</sup>. Ushbu munosabatda bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarda klasterlarning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilaydigan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Ayrim Evropa mamlakatlarida muhim sanoat klasterlari tashkil etilgan, masalan, Germaniyada kimyo va mashinasozlik tarmoqlarida, Frantsiyada oziq-ovqat va kosmetika ishlab chiqarishda, Daniyada bugungi kunda 29ta etakchi klasterlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib ularning aksariyati qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan<sup>69</sup>.

Finlyandiyaning iqtisodiyoti klasterlashtirish siyosatiga asoslangan bo‘lib, 2000 yildan buyon klasterlarning yuqori samaradorligi hisobiga jahonda raqobatbardoshlik bo‘yicha etakchilikni egallab kelmoqda. Mazkur mamlakatda dunyo bo‘yicha 0,5 foiz o‘rmon resurslari mavjud bo‘lsa ham dunyo bo‘yicha 10 foiz daraxtdan qayta ishlangan mahsulotlar va 25 foiz qog‘oz mahsulotlarning eksporti to‘g‘ri keladi. Telekommunikatsiya bozorida mobil aloqa vositalari eksportining 30 %i uyali telefonlar eksportga to‘g‘ri keladi<sup>70</sup>.

Jahon iqtisodiyotida so‘nggi o‘n yillikda klasterlarning faol rivojlanishi kuzatilmoqda va bunday faollik deyarli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning yarmiga to‘g‘ri kelgan. Masalan, AQShda mavjud korxonalarining yarmi klasterlarga jalb qilingan bo‘lib, ular tomonidan ishlab chiqilgan YaIM 60 foizni tashkil etgan. Evropa Ittifoqi mamlakatlarining 38 foizi ishchi kuchi klasterlarda mujassamlangan. Norvegiya, Shvedtsiya va Daniya iqtisodiyoti deyarli to‘liq klasterlar bilan qamrab olingan. Tahliliy ma‘lumotlarga ko‘ra 2013 yilda milliy iqtisodiyotda tashkil etilgan

klasterlarning soni bo'yicha etakchilik AQShda – 380 ta klasterlar, Buyuk Britaniyada 168 ta klasterlar, Italiyada 206 ta klasterlar tashkil etilgan (16.4-jadval).

#### 4-jadval

#### 2016 yilda ayrim mamlakatlarda tashkil etilgan klasterlar soni<sup>71</sup>

Mamlakat	Klasterlarning soni	Mamlakat	Klasterlarning soni
AQSh	380	Daniya	34
Buyuk Britaniya	168	Germaniya	32
Italiya	206	Polsha	61
Hindiston	106	Niderlandiya	20
Frantsiya	96	Finlyandiya	9

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishga davlat dasturlari qabul qilinmoqda va amalga oshirilmoqda. Jumladan, bunday dasturlar deyarli barcha Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqilgan va amalda foydalanilmoqda.

Klasterlar milliy iqtisodiyotda shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha davlatning o'rnini va rolini ham alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, bizga yaxshi ma'lumki, dastlab klasterlarning shakllanishi va rivojlanishida Transmilliy korporatsiyalarning o'rnini va roli yuqori bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda (iqtisodiyoti rivojlangan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda) hukumatlar tomonidan davlat- xususiy hamkorlik doirasida ularni tashkil etish va qo'llab- quvvatlanishiga har tomonlama ko'maklashilmoqda. Ayrim mamlakatlarda klasterlarni rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan biri bu infratuzulmani shakllantirish hisoblanadi. Masalan, Frantsiyada Rejalashtirish milliy agentligi (DATAR), Lyuksemburgda klasterlarni izlash va tizimlashtirish axborot tizimi (CASSIS), AQShda Milliy raqobatbardoshlik kengashi, Buyuk Britaniyada kooperatsiya dasturi (LINK) va boshqalar<sup>72</sup>. Shu bilan birga davlatning klasterlarni rivojlantirishida quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin, jumladan: moliyaviy yordam; klasterlar faoliyati uchun jozibador muhit yaratish (tashqi bozorlarda); klaster infratuzilmasini yaratish; axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va rivojlantirish orqali axborotlardan foydalanish sharoitini yaratish; ta'lim tizimida ko'maklashish, masalan, klaster xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish va boshqalar<sup>73</sup>.

Ushbu borada, klasterlarni milliy iqtisodiyotda rivojlantirish maqsadida ayrim mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir, jumladan, iqtisodiyoti rivojlangan (AQSh, Kanada, Germaniya, Frantsiya) va rivojlanayotgan mamlakatlarda (Rossiya, Qozog'iston).

**AQShda.** 2009 yilda Barak Obama AQSh Kongressidagi ilk ma'ruzasida, millatning barqarorligini ta'minlashda innovatsion strategiyani amalga oshirishning

dolzarbligini belgilagan, jumladan, hududlar miqyosida klaster strategiyasi asosida yirik va kichik korxonalar, universitetlar, moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi aloqadorliklarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash muhimligi to'g'risida fikr bildirgan va 2010 yildagi byudjet mablag'lari hisobidan 100 mlrd. AQSh dollari miqdorida hududiy innovatsion klasterlar va biznes-inkubatorlarni rivojlantirish uchun ajratilishini, milliy iqtisodiyotning istiqboldagi raqobatbardoshligini belgilovchi omillardan biri sifatida belgilagan<sup>74</sup>. Ushbu ma'ruzadan so'ng, ayrim mutahassislarning fikrlariga ko'ra, hududiy klasterlar davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanishi ilk bora namoyon bo'lmoqda, zero, mazkur masalalar hududiy hokimiyat miqyosida hal qilinishi belgilangan. Chunki, klasterlarni rivojlantirish borasida federal hukumatning shtatlarda amalga oshirilayotgan siyosatiga bevosita aralashish vakolatlari belgilanmagan. Ammo mutahassislarning belgilashicha so'nggi uch-to'rt yil ichida mazkur munosabatlar hukumatning markaziy dasturlariga kiritilgan va bunda aniq tarmoqlar (elektronika, internet), yoki alohida universitetlar va ilmiy- tadqiqot muassasalari belgilanadi.

2011 yilda B.Obamaning boshqaruvi tomonidan klasterlarni rivojlantirish maqsadida federal darajada quyidagi tashabbuslar amalga oshirilgan (5-jadval).

Belgilash lozimki, federal doirasidagi dasturlardan tashqari alohida shtatlar doirasida amalga oshiriladigan ko'plab dasturlar mavjud.

AQShda klaster bilan bog'liq bo'lgan islohatlarda muhim rol ni universitetlar amalga oshirishi belgilangan, bunda ishlanmalar va texnologiyalar sanoat tarmog'iga uzatilishi AQSh qonunlarida aniq aks ettirilgan. Muhimi mazkur hamkorlikda raqobat muhiti ham shakllantirilgan, ya'ni, xususiy sektor tomonidan universitetning moliyalashtirilishning kamayishi yoki ko'payishi ilmiy-tadqiqot natijalariga bevosita bog'liq. Shu bilan birga ta'lim jarayonlariga salbiy ta'siri bartaraf etilgan bo'lishi ham kerak.

## 5-jadval

### AQShda klasterlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan asosiy federal dasturlar<sup>75</sup>

Departament	Dasturlar	Davlat dasturining bayoni
Economic Development Administration (EDA)	Regional Innovation Cluster framework	Tarmoqlararo institutsional asos bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirilgan federal darajadagi yordamni amalga oshiradi. Maqsadi, hududlarni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni aniqlash va moliyaviy ko'mak berishga qaratilgan.
EDA	I6 Challenge	Raqobat muhiti asosida mazkur dastur doirasida, tijorat doirasida to'siqlarni bartaraf etishga qiziqish bildirgan tadbirkorlarga grantlar ajratish hisobiga ko'mak beriladi.
Small Business Administration (SBA)	Regional Innovation Cluster program	Hududiy klaster deb tanilgan kompaniyalarga konsalting xizmatlarini (treninglarni tashkil etish, texnologiyalarni joriy qilish) amalga oshiruvchi kompaniyalar uchun 600 000 AQSh dollarigacha mablag' ajratiladi.



SBA	Advanced Defense Technology program	Hududiy innovatsion klasterlarda kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun 600 000 AQSh dollarigacha mablag' ajratiladi. Korxonalar robototexnika, kiber havfsizlik va boshqa havfsizlik loyihalari doirasida bo'lishi kerak.
Department of Energy (DOE)	Energy Efficient Building Systems Regional Innovation Cluster (E-RIC)	Energo tejamkorlik doirasida yangi texnologiyalarni ishlab chiquvchi va hududlarda energetik klasterlarni ko'payishi uchun hamkorlarni jalb qiluvchi hududiy ilmiy-tadqiqot markazlarga 130 000 000 AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratiladi.
U.S. Department of Agriculture (USDA)	Rural Innovation Initiative	Dastur hududni strategik rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur rejalarning amalga oshirilishi qishloq jamoatchiligi va fermer xo'jaliklarini klaster bo'lib shakllanishiga ko'maklashishi kerak. Buning uchun 176 000 000 AQSh dollari ajratilgan.
NSF	NSF Innovation Ecosystems	Universitetlar bazasi asosida klasterlarni tashkil etishga mo'ljallangan dastur bo'lib buning uchun 12 000 000 AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratilgan bo'lib taklif etilayotgan innovatsiyalarning darajasini oshirish, innovatsion takliflarni tijoratlashtirish va start- aplarning bazasida klasterlarni tashkil etish mo'ljallangan.

**Kanada.** Kanadada ham klasterlarni tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning boy tajribasi to'planilgan. Jumladan, tashkil etilgan va mashhur bo'lgan biotexnologiya klasteri (Monreal, Toronto, Vankuver, Ottava, Galifaks); axborot- texnologiyalari klasteri (Monreal, Ontario); vinochilik klasteri (Niagara), oziq-ovqat klasteri (Toronto) va boshqa klasterlarni misol qilib keltirish mumkin. Kanada iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirishda boshqaruv xokimiyatning barcha pog'onalari ko'maklashishga safarbard qilingan – federal, hududiy va munitsipal. Shu bilan birga klaster strategiyasi mamlakatning milliy innovatsion strategiyasining bir qismi hisoblanadi. Mazkur strategiyani muvofiqlashtirish Milliy Tadqiqot Kengashi

– ilmiy-tadqiqotni rivojlantirishning etakchi federal agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Undan tashqari Kanada hukumati tomonidan federal vakolat doirasida klasterlarga investitsiyalarni jalb etish, tashqi bozorga mahsulotlarni siljitishda ko'maklashish, mehnat bozorini tartibga solish, muvaffaqiyatli ilmiy-tadqiqotlarga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim dasturlarini yaratish, intellektual mulkni himoya qilish va boshqalar.

So'nggi yillarda AQSh singari, klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish borasidagi xukumat tomonidan e'tibor va amalga oshirilgan chora-tadbirlar Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ham kuzatilgan chunki klaster asosida rivojlanish strategiyasi hududning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi muhim instrument sifatida ko'rilgan. Tadbirkorlik va sanoat siyosati uchun mas'ul bo'lgan Evropa komissiya vitse-prezidenti Gyunter Verxudjenning ta'kidlashicha: "Evropa Ittifoqining jahon miqiyosidagi ko'plab klasterlarga ehtiyoji yuqori. Ular, firmalarimizning innovatsion rivojlanishida va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim hayotiy vazifani

bajaradilar”<sup>76</sup>.

**Germaniya.** Amaliyotda, Germaniya hududlarida klasterlarning rivojlanishi davlat hokimiyatining aralashuvisiz amalga oshirib kelingan bo'lsa, 2003 yildan boshlab hukumat tomonidan yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga asoslangan klasterlarni qo'llab- quvvatlashga e'tibor berilmoqda, ayniqsa, sanoat va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan aloqadorlikni rivojlantirish va moliyaviy ta'minotni nafaqat hududiy balki, federal manbalari hisobidan ta'minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Islohotlarning biri natijasida, Germaniyaning Rur hududi og'ir sanoatga ixtisoslashgan bo'lib bugungi kungda axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirish rejalashtirilgan. Shuningdek, yuqori samaradorlikka erishgan Baden-Vyurtembergdagi avtomobilsozlik klasteri, Tutlingenedagi meditsina uskunalari klasterini, Drezdendagi chiplarni ishlab chiqarish klasteri va Berlin-Brandenburgdagi biotexnologiyalar klasterini misol qilib keltirish mumkin.

Mutaxassislarning belgilashicha, albatta ko'plab klasterlar tomonidan yuqori darajadagi samaradorlik va raqobatbardoshlikka erishilmagan bo'lsa ham liderlikni qo'lga kiritish borasidagi faoliyatlari amalga oshirilmoqda. Klasterlarning istiqbolda rivojlanishi va yuqori samaradorligi bevosita ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy salohiyatning mavjudligi va ilmiy-tadqiqot institutlarining faolligi ta'sir ko'rsatadi. Bunda davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutining faoliyat doirasi belgilanadi, zaruriy vakolatlar va anjomlar bilan ta'minlanadi. Germaniya professorlari ko'p hollarda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishadi, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'z navbatida xususiy firmalar bilan o'zaro aloqadorligi o'rnatilgan. Universitet hududida professorlar uchun mustaqil yuridik shaxs maqomi bilan xususiy ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish imkoniyati ham yaratilgan.

**Frantsiya.** 2005 yilda Frantsiya hukumati tomonidan milliy klaster siyosatini amalga oshirish boshlangan bo'lib, ustuvor vazifa sifatida 15-20 yil ichida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlash belgilangan. 2006-2008 yillarda

66 ta klasterlarni va ulardan 16 tasi innovatsion klasterlarni qo'llab-quvvatlash uchun 1,5 mlrd. evro miqdorida mablag' sarflangan. Frantsiyaning klaster siyosati uchta muhim bo'g'inni o'zaro bog'lashga qaratilgan, bular, biznes, ilmiy omma va ta'lim muassasalari. Ko'p hollarda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish uchun xorijiy kompaniyalar jalb qilinadi. Jumladan, mikro va nanotexnologiyalarga asoslangan "Minalogic" klasteri doirasida "Foremost" loyihasi doirasida yuqori darajadagi mikrochiptalarni yaratish uchun 8 ta davlatdan 24 ta hamkorlar bilan aloqadorliklar o'rnatilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra bugungi kunda klasterlarni qo'llab- quvvatlashda davlatning siyosati milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqadi, natijada u turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- byudjeti va rivojlanish strategiyasi belgilangan, bir nechta sanoat tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirgan aniq shakllantirilgan siyosat;

- klasterlarni ma'lum jihatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat: tarmoqdagi aloqadorliklar yoki biznes va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan aloqadorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan va boshqalar.

Ushbu munosabatda, AQSh va Evropa Ittifoqida davlat tomonidan klaster tuzulmalarini qo‘llab-quvvatlashning quyidagi asosiy shakllarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Loyihalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish orqali qo‘llab- quvvatlash;
2. Infratuzulmani yaratib berish (binolar, uskunarlar va boshqalar);
3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion harajatlarga soliqlarni pasaytirish;
4. Boshqa xarajatlar solig‘ini pasaytirish;
5. Turli ommaviy tadbirlarni tashkil etish;
6. Universitet va ma‘muriyat bilan aloqadorlikni tashkil etish;
7. Texnoparklar va biznes-inkubatorlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;
8. Boshqa klasterlar bilan aloqadorlikni ta‘minlash va boshqalar.

Shu bilan birga K.E.Morjakova va O.G.Kryukova o‘zlarining “Innovatsion klasterlarning o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan maqolasida Evropa Ittifoqi va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida davlat tomonidan klaster siyosatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari taqqoslab tahlil qilingan (6-jadval).

### **6-jadval Davlat tomonidan klaster siyosatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari<sup>77</sup>**

<b>Klaster siyosatining elementlari</b>	<b>Evropa Ittifoqi mamlakatlari</b>	<b>Sharqiy Osiyo mamlakatlari va dunyoning boshqa hududlari</b>
1. “Klaster” tushunchasi	Umumiy muammolarni xal etish va hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishda hududiy sub’ektlar tomonidan tashkil qilinadigan tashkiliy mexanizm (biznes, universitetlar, ilmiy- tadqiqot tashkilotlari, moliya institutlari va boshqalar)	Hududning asosiy ixtisosligi bo‘lgan eksportga yo‘naltirilgan faoliyatlarning o‘zaro aloqadorligi
2. Klaster ishtirokchilarining aniqlanishi klasterning faoliyatining mezoni sifatida	Mavjud. Klasterlar korporativ boshqaruv bo‘lib, undagi ishtirokchilar uchun atrof muhit bilan samarali aloqadorligini tashkil etadi (raqobatchilar, kontragentlar, ta‘lim muassasalari, ilmiy- tadqiqot muassasalari va bshq.). Kompaniyalar mazkur printsipni qabul qilishlar va ma‘lum klasterga ta‘luqligini belgilashi kerak	Mavjud emas. Klasterlar sanoat, innovatsiya, kichik biznesni qo‘llab- quvvatlash va boshqalarda davlatning instrumenti sifatida namoyon bo‘lishadi. Kompaniyalar klaster nimaligi to‘g‘risida bilmasliklari ham mumkin, ammo uning bir qismi sifatida faoliyat yuritishadi.
3. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamga da‘vogarlik qiluvchi klasterlarni tanlash	O‘zini klaster sifatida belgilagan guruh tashkilotlari ochiq tanlovda ishtirok etishlari mumkin.	Analitik usuldan yoki siyosiy qarordan foydalangan holda klasterlarni aniqlash
4. Qo‘llab- quvvatlash	Klaster ishtirokchilari bilan hamkorlikda	Klasterning “kuchli” va “kuchsiz”
choralarini aniqlash	loyihalarni ishlab chiqish va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘makning imkoniyatlarini aniqlash. Davlat klasterlarni mustaqil tashkil etilishida va aloqadorlikning rivojlantirilishida ko‘maklashadi.	tomonlarini aniqlash asosida

**Rossiya.** Bugungi kunda klasterlarni rivojlantirish siyosati Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda<sup>78</sup>. Rossiya iqtisodiyotida klasterlarning rivojlanishiga asos solishida muhim o‘rin tutgan Rossiya hukumati tomonidan 2008 yil 17 noyabrda qabul qilingan “2020 yilgacha Ijtimoiy-iqtisodiy uzoq muddatga mo‘ljallangan rivojlanish kontsepsiyasi”<sup>79</sup> hamda “2020 yilgacha Rossiya Federatsiyasining innovatsion rivojlanish strategiyasi”<sup>80</sup> bo‘ldi.

Mazkur dasturlar Rossiyaning turli hududlarida joriy qilingan va bugungi kunda samarali amalga oshirilmoqda. Buning natijasida 4ta asosiy yo‘nalishlar shakllantirilgan, jumladan<sup>81</sup>:

- moliyaviy ko‘maklashish, federal va hududiy byudjetlar hisobidan kredit resurslarini jalb qilganlikning foizlarini to‘lash orqali;

- soliq to‘lovlari orqali ko‘maklashish, jumladan mol-mulk va boshqa hududiy soliqlarni to‘lashda imtiyozlar yaratib berish;

- klasterlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

- klasterlarni tashkil etishda institutsional ko‘maklashish, jumladan, professional ta‘lim markazlarini tashkil etish va moliyalashtirish, klasterga doir ilmiy-tadqiqot ishlarni qo‘llab- quvvatlash va boshqalar.

M.Yu. Alexin va A.R. Kochemasovlarning<sup>82</sup> fikrlariga ko‘ra, mazkur dasturlarga umumiy axborot maydoni etishmaydi va ularning e‘tirofiga ko‘ra bugungi kunda Rossiyada klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha mamlakatning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan va klasterlar mamlakatning butun hududini to‘liq qamrab olmagan.

**Qozog‘iston.** Qozog‘istonda yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida klaster tuzilmalarini tashkil etish bo‘yicha qator chora- tadbirlar ko‘rilmoqda. 2004 yilda Qozog‘iston Prezidenti tomonidan milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida e‘lon qilingan. Ushbu yildan Qozog‘istonning AO “Tsentr marketingovo-analiticheskix issledovaniy” AQShning “JE Austin” konsalting kompaniyasi hamkorligida iqtisodiyotning amaldagi va istiqboldagi tarmoqlarining raqobatbardoshligi tahlili amalga oshirilgan, pirovard maqsad sifatida mamlakatda klasterlarni tashkil etishga qaratilgan. Ushbu loyihaga klasterning targ‘ibotchilaridan biri Maykl Porter rahbarlik qilgan. Tadqiqotlar natijasida metallurgiya, neft-gaz, mashinasozlik, tekstil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari sanoati, turizm, transport logistikasida tashkil etilishi belgilangan. Shu bilan birga, aksariyat mahalliy olimlarning fikrlariga qo‘ra, mamlakatda boshqa tarmoqlarda ham klasterlarni yaratish imkoniyatlari mavjud, jumladan, neft va gaz sanoatida, biotexnologiya, farmatsevtika, kimyo sanoati, mashinasozlik, axborot texnologiyalari, shuningdek, davlatlararo klasterlarni tashkil etish g‘oyalari ilgari surilgan<sup>83</sup>.

Xorijiy mamlakatlarda klasterlarni tashkil etish va rivojlantirishning tajribasi tahlilidan xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda klasterlarni tashkil qilishda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish holatini inobatga olishni taqozo etadi. Shuning uchun klasterlarni tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri, uning instrumentlarini

aniqlash talab qilinadi. Bu borada V.V. Proxorova, M.S. Xachaturova o‘zlarining “Zamonaviy Rossiyaning hududiy iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirishning instrumentlari va vazifalari”da deb nomlangan ilmiy tadqiqotlarida ayrim xorijiy mamlakatlarda klasterlarni rivojlantirishning instrumentlari tadqiq qilingan (7-jadval).

**7-jadval**

**Ayrim xorijiy mamlakatlarda klasterlarni rivojlantirish instrumentlarining qiyosiy tahlili<sup>84</sup>**

<b>Evropa</b>	<b>Shimoliy Amerika</b>
<p><b>Niderlandiya:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tijorat investitsion hududni tashkil qilishda loyihani amalga oshirish;</li> <li>- milliy darajada “Innovatsion platformaning yaratilishi” yuqori texnologik tarmoqlar va innovatsion klasterlarni qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- “Breynport” mahsus yuqori texnologik hududning tashkil etilishi;</li> <li>- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati kompaniyalari uchun jozibador sharoitlar yaratish (“Oziq-ovqat vodiysi”).</li> </ul>	<p><b>AQSh:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- faol ravishda texnoparklarning yaratilishi;</li> <li>- hududiy texnologik alyanslarni tashkil etish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va qo‘llash;</li> <li>- innovatsiyalar va innovatsion klasterlarni investitsiya qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- Kaliforniyada yuqori texnologik innovatsion hududning tashkil etilishi.</li> </ul>
<p><b>Germaniya:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- davlat-xususiy hamkorlik;</li> <li>- maqbul infratuzilmaning yaratilishi (Germaniyaning g‘arbiy erlariga nisbatan sharqiy erlarida ishlab chiqarishning past harajatlari);</li> <li>- mazkur hududlarda iqtisodiyotida katta shtatga ega bo‘lmagan kichik va o‘rta korxonalarining ko‘pligi;</li> <li>- inson kapitalini rivojlantirish (malaka oshirish darajasi);</li> <li>- ta‘lim infratuzilmasining rivojlanishi</li> </ul>	<p><b>Kanada:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mamlakatning federal darajasida milliy innovatsion rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi;</li> <li>- federal va hudud doirasida muvofiqlashtirish hokimiyat tashkilotlarini tashkil etish;</li> <li>- texnologik klaster tashabbuslarni ishlab chiqish va joriy qilish;</li> <li>- investitsiyalarni jalb qilish siyosati doirasida klasterlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- tashqi bozorlarda kompaniya mahsulotlarining sotilishida ko‘maklashish;</li> <li>- mehnat bozorini tartibga solish;</li> <li>- istiqbolli ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga investitsiya kiritish;</li> <li>- ta‘lim dasturlarini yaratish;</li> <li>- moliyaviy ko‘maklashish;</li> <li>- intellektual mulkni himoyalash.</li> </ul>


7-jadval ma‘lumotlarida tahlil qilinayotgan mamlakatlarda aynan innovatsion klasterlarni rivojlantirish instrumentlari o‘rganilgan. Mazkur ma‘lumotda asosan

iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tahlil qilinganligini inobatga olgan holda xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aynan iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni shakllantirish ishlari faollashgan.

Milliy iqtisodiyotda klaster munosabatlarini tadqiq qilgan olimlarning aksariyati e'tiroflariga ko'ra, klaster mexanizmi milliy innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida o'rni va roli katta.

D.Doloreux, R.Shearmur<sup>85</sup>, Z.Klaudio, V.Rikardo<sup>86</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida klasterlar innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishda va tarqatishda turli ishtirokchilarning o'zaro aloqadorligi deb ta'riflangan. Ularning fikriga ko'ra, mazkur jarayonlar yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlaydi va bu esa o'z navbatida, klaster tarkibidagi jarayonlarning samaradorligini bildiradi.


Ushbu borada, klaster munosabatlarida innovatsion iqtisodiyotning rivojlantirishga asos soluvchi va sabab bo'luvchi omillarning aniqlanishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, avvalo, klaster modellarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, O. Solvell tomonidan taklif etilgan modelga ko'ra klaster ishtirokchilari yirik, o'rta va kichik biznes, moliya tashkilotlari, xususiy kapital, biznes farishtalari, davlat ishtirokchilari, ta'lim muassasalari, xususiy va davlat-xususiy tashkilotlari hamda media bo'lishi mumkin (2.4-rasm).



**4-rasm. O. Solvellning tadqiqotlariga asosan klaster ishtirokchilari**<sup>87</sup>

Ammo mazkur modelda klasterga aloqador bo'lgan barcha ishtirokchilarning asosiy aloqadorlik yo'nalishlari belgilanmagan bo'lib, modelda barcha klaster ishtirokchilarning umumiy aloqadorlik va tezligi ta'riflanadi. O. Solvellning fikriga ko'ra, yuqoridagi ishtirokchilarning aloqadorsiz holatdagi mavjudligi klaster hisoblanmaydi, aksincha klaster mavjud ishtirokchilarning o'zaro aloqadorligi, aloqadorlikning samaradorligi hamda tashqi muhit bilan aloqadorlik hisobiga aniqlanadi. Shunda klasterning samaradorligi rivojlanish dinamikasi undagi ishtirokchilar aloqadorligining faolligi va mustahkamligi hisobiga aniqlanadi.

E. Fezeraning tadqiqotiga ko'ra, klaster talab va taklifdan kelib chiqqan xolda shakllantirilgan va klasterga ta'sir ko'rsatuvchi dasturlarning zarurligi belgilangan, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar uchun ham.



**5-rasm. E. Fezer tadqiqotlariga asosan klasterning modeli<sup>89</sup>**


E. Fezerning tadqiqotlariga ko'ra, klaster mahsulotlar, xizmatlar, resurslar (inson resurslari, ishlab chiqarish, moliyaviy va h.k.) ta'minotchisi hisoblanadi. Klasterning "talabini" shakllantirishning muhim elementi ta'lim va sanoatning aloqadorligi, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning transferti va tijoratlashuvi jarayonlari hisoblanadi.

K. Ketels va Dj. Lindkvistning tadqiqotlariga ko'ra, klasterning markazi mavjud bo'lishi kerak va ushbu markazda ishlab chiqarish korxonasi joylashgan bo'lishi va uning atrofida esa to'rta

<sup>89</sup> Feser E.J. "Old and new theories of industry clusters" in Steiner M. (ed.) Clusters and regional specialization. Pion Press. London. UK. 1998. pp.18-40.



muhim aloqador bo‘linmalari bo‘lishi kerak. Ular ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim muassasalari, kapital manbalari va davlat tashkilotlaridan iborat (2.6-rasm).



### 6-rasm. K. Ketels va Dj. Lindkvistning tadqiqotlariga asosan klaster ishtirokchilari<sup>90</sup>

Shuningdek, K. Ketels va Dj. Lindkvistning tadqiqotlarida klasterlarning integratsion jarayonlariga alohida e’tibor qaratilgan, ya’ni tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati va boshqa klasterlar bilan aloqadorlikni o‘rnatish imkoniyatlari.

P.A. Suxanov<sup>91</sup> o‘zining ilmiy-tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirgan: “yuqori samaradorlikka asoslangan klasterlar modellarining tahliliga ko‘ra, qanchalik klasterda turli xildagi ishtirokchi kompaniyalar va turli xildagi tashkilotlar keng jalb qilingan bo‘lsa, shunchalik klaster yuqori samaradorligi ta’minlangan bo‘ladi, jumladan, ishlab chiqaruvchi va ta’minotchi, ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari, moliyaviy tashkilotlar va banklar, davlat muassasalari va konsalting kompaniyalar va h.k.lar. Bu o‘z navbatida klasterning iqtisodiyotga chuqur integratsiyalashganligini bildiradi. O‘z navbatida, klaster faoliyatiga ko‘plab kompaniya va tashkilotlarning jalb qilinganligi klaster tuzulmasida hududning to‘liq iqtisodiy tuzilmasi o‘z ifodasini topganligini bildiradi.

Evropa Ittifoqi va Evropa Ittifoqining hududiy qo‘mitalari tomonidan klasterlarning institutsiyaviy asoslarining rivojlanishiga katta e’tibor qaratiladi. Institutlarning rivojlantirilishi ikki yo‘l orqali amalga oshiriladi: “tepadan- pastga” va “pastdan-tepaga”. “Tepadan” holatida ustuvorliklar, aniq strategik maqsadlarning belgilanishi va boshqa dasturlar bilan uyg‘unligi asosida shakllantirilgan bo‘ladi. “Pastdan” holatida klaster jarayonida ishtirokchi kompaniyalarning yuqori tashkilotchiligi va klasterni tashkil qilishdagi yuqori samaradorligi aniqlanganligiga tayaniladi<sup>92</sup>.

Xorijiy mamlakatlarda klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish holati tahlildan xulosa qilish mumkinki, klasterlarning tashkil etilishi va rivojlanishi erkin iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning tashkil etilishi va rivojlanishi bozor qonuniyatlari asosida ro‘y beradi va bu jarayonlarga hukumatning aralashuvi (ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda) minimal bo‘lgan. Ammo tadqiqotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda klasterlarni innovatsion sohalarida tashkil etish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida hukumat darajasidagi e’tibor ortib bormoqda, ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mazkur jarayonning faollashuvi kuzatilgan. O‘z navbatida, ushbu jarayonlardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunga kelib,

iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bozor raqobati kurashida saqlanib qolgan, rivojlangan va raqobatbardoshlikka erishgan klasterlarning yangi rivojlanish bosqichi boshlangan, ya'ni innovatsion klasterlarga shakllanish bosqichi. Bu borada, davlatning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish borasidagi strategik maqsadlari aynan faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarda amalga oshirish imkoniyati mavjud va bu borada davlat tomonidan aynan hozirgi bosqichda mavjud klasterlarning innovatsion klasterlar sifatida shakllanishida ko'maklashishi istiqbolda mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishdagi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, aksariyat davlat hukumatlari tomonidan klasterlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibori va qiziqishining eng asosiy sabablaridan biri, klasterlarning ijtimoiy soha bilan uzviy aloqadorligidir. Ya'ni jahon iqtisodiyotining tobora rivojlanishi va tashqi bozorlarda raqobat muhitining keskinlashuvi natijasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga va imkoniyatlariga ba'zi xollarda salbiy ta'sir ko'rsatadi, jumladan, korxonalarining inqirozga uchrashi va buning natijasida ishsizlik sur'atining o'sishi, shuningdek, mamlakatning asosini tashkil qiluvchi ishlab chiqarish kuchlarining boshqa "qulay" mamlakatlarga ko'chib o'tishi, o'z navbatida, ijtimoiy tanglikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi<sup>93</sup>. Buning natijasida ishchi kuchining migratsiyasi yuzaga kelishi mumkin, bu esa oqibatda hududdan malakali ishchi kuchining ketib qolishi xavfini tug'diradi. Klaster holatida esa malakali ishchi kuchini ularning yo'nalishlarini o'zgartirish va qayta tayyorlash hisobiga saqlab qolish imkoniyati mavjud bo'ladi, shu bilan birga, klaster tarkibida bunday migratsiya klasterdan tashqariga chiqmagan holda tajribaning o'zaro almashinuvi va malakaning oshib borishi esa oqibatda korxonaning raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi, deb mutaxassislar tomonidan fikr bildirilgan.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, klasterlar tizimi hisobiga vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarni rivojlantirishga erishish mumkin. Ushbu munosabatda klasterlarni tashkil qilishda kichik va o'rta biznes rivojlantirish imkoniyati sifatida emas, balki yirik biznes, kichik biznes, ilmiy tadqiqot muassasalari va notijorat tashkilotlarning kuchli tomonlarini umumlashtirishga qaratilgan davlatning umumiy siyosati sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

### **3. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni tashkil qilishning ustuvorliklari va muammolari**

Bugungi kunda klasterlarning evolyutsion tarzda shakllanishining ikkita muhim ustuvorliklariga e'tibor qaratish va ularni chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir, bular, klasterlarni tashkil qilishning institutsional va innovatsion ustuvorliklari<sup>94</sup>.

**Klasterlarning institutsional ustuvorliklari.** Klaster dastlabki holatida yagona maqsadga yo'naltirilgan va teng imkoniyatlarga ega bo'lgan insonlar va tashkilotlarning yig'indisi bo'lsa, klasterda uzviy tashkil etilgan aloqadorlik va muvofqlikning yaxshi yo'lga qo'yilmasligi hisobiga aslida klasterda mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlar to'liq ochilmagan va ulardan foydalanilmagan. Ammo munosabatda tashkil etilgan klasterlarning rivojlanishi davrida turli xildagi nazorat va muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar rivojlanadi, jumladan: klaster ishchi guruhi,

klaster kengashi, klaster kotibiyati va boshqalar. Masalan, klaster ishchi guruhi aniq loyiha yuzasidan yoki turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamragan holda tashkil etiladi. Klasterlarda yuqori tashkilotchilik darajasi F. Fukuyamaning fikriga ko‘ra, klasterning milliylikiga bog‘liq, ya‘ni mamlakatlar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘zlarining faoliyatlarini tashkil etishlari bilan ajralib turadi. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiyada biznesni korporativ shakllarga intilib rivojlanishi kuzatilsa, Italiya va Xitoyda esa yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes va shu jumladan, oilaviy biznes shakllariga tayaniladi<sup>95</sup>.

Olimlarning emperik tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, klaster tarkibidagi korxonalarining axborot bilan ta‘minlanganlik darajasi yuqori va shu tariqa, klasterda axborot transaksion harajatlarning kamayishiga erishiladi degan gipoteza ilgari surilgan.

Umuman olganda, klasterda umumiy “iqtisod” yoki tejamkorlik ustuvorliklaridan foydalanishdan tashqari o‘zlari uchun ustuvorliklar yaratishga intilishi ham mavjud. Masalan, umumiy servis-xizmatlarini tashkil etish, xomashyolarning umumiy haridini tashkil etish, yangi ishlab chiqarish liniyalarini hamkorlikda harid qilish, hamkorlikdagi ta‘lim loyihalarini tashkil etish, mahsulotga nisbatan hamkorlikda yagona standartlarni ishlab chiqish, umumiy marketing loyihalarini tashkil etish, hamkorlikda yangi bozorlarga chiqish loyihalarini ishlab chiqish va boshqalar.

Albatta firmalar va insonlarning barcha faoliyatlari klasterdan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin, ammo ushbu holatda ularning transaksion harajatlari yuqori bo‘ladi. Shuning uchun klasterdagi korxonalarining klasterdan tashqari faoliyatlari pastroq samaradorlikka ega bo‘ladi deb baholash mumkin.

Bundan kelib chiqqan holda belgilash mumkinki, klasterning institutsional ustuvorliklari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

**Birinchi**dan, axborot almashinuvining yuqori darajada bo‘lishi va undagi transaksion harajatlarning past bo‘lishi, bu esa turli xildagi kelishuvlarni, rejalarni amalga oshirishda qulayliklar yaratadi.

**Ikkinchi**dan, firmalarning raqobatbardoshligini oshirishga va xodimlarning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiluvchi hamkorlikda loyihalarda ishtirok etish imkoniyati. Ushbu ikkita omillar yangi firmalarni jalb qiluvchi va mavjudlarini saqlab qoluvchi muhim rag‘batlantiruvchi vazifasini bajaradi.

**Klasterlarning innovatsion ustuvorliklari.** Korxonalar- ning innovatsion rivojlanishini ko‘zlab klasterlar sifatida shakllanishining ikkita fundamental sabablari mavjud.


Birinchi, innovatsiyalar, odatda, o‘zaro aloqador firmalarning kuchli “ichki raqobat”i tufayli rivojlanadi. Ushbu holatda ilmiy tadqiqot va tajriba muhandislik ishlanmalar, odatda, katta moliyaviy mablag‘larni talab qiladi va ular, asosan, davlat yoki yirik korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi va barcha ilmiy tadqiqot natijalari va yangiliklari aynan ularda mujassamlanadi. Natijada mazkur sub‘ektlar tomonidan yaratilgan innovatsion mahsulotga talab shakllantiriladi va o‘zlarining lokalizatsiya hududlariga innovatsion faol bo‘lgan firmalarni jalb qiladi.

Klasterlarning innovatsion ustuvorligining ikkinchi sababi shundaki, innovatsion faoliyat ko‘plab aloqador tashkilotlarning kelishuvi asosidagi faoliyatni

talab qiladi, jumladan: ehtiyot qismlarning ta'minotchilari, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, moliyaviy tashkilotlar va boshqalar. Bundan xulosa qilish mumkinki, innovatsion faollikni ta'minlash uchun turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hududiy yaqinlikka bo'lgan ehtiyojlari, klasterlarning innovatsion iqtisodiyotni yaratishdagi "o'chog'i" sifatida ifodalash mumkin.

Fikrimizcha, korxonalarining innovatsion rivojlanishini ko'zlagan xolda klasterlar sifatida shakllanishining muhim asoslarini quyidagi 16.7-rasmda ifodalash mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarga taalluqli bo'lgan innovatsion klasterlarni iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin, bu esa ularga innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatini beradi, uning natijasida jahon bozoriga yangi raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar kirib bormoqda.



**7-rasm. Klaster tarkibida innovatsion faol korxonalarining ko'payishi va rivojlanishining omillari<sup>96</sup>**

Belgilash lozimki, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etilgan innovatsion klasterlarning aksariyati AQShdagi Kremniya vodiysida erishilgan muvaffaqiyatlarni qaytarishga urinishgan, masalan, Bangalordagi Kremniya plato (Hindiston), Kremniya oroli (Tayvan), Kremniya botqog'i (Isroil) va h.k.lar.

Tahlillarga ko'ra, innovatsiyaga asoslangan klasterlarning iqtisodiyoti rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etilgan asosiy yo'nalishlari turlichadir. Ushbu munosabatdan ularning tizimlashtirilishi jahonda rivojlanayotgan innovatsion klasterlarning yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa O'zbekistonda ham mavjud yo'nalishlarda innovatsion klasterlarni yaratish

imkoniyatidan dalolat beradi (8-jadval).

### 8-jadval

#### Innovatsiyaga asoslangan klasterlarning iqtisodiyoti rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etilgan asosiy yo'nalishlari<sup>97</sup>

№	Mamlakatlar	Innovatsiyaga moslashgan klasterlarning tashkil etilgan tarmoqlari
1.	AQSh	1. Aerokosmik ishlab chiqarish. 2. Aviasozlik. 3. Energetika. 4. Avtomobilsozlik. 5. Elektromuhandislik. 6. Biotexnologiya
2.	Finlyandiya	1. Elektromuhandislik. 2. Agrosanoat. 3. Qurilish. 4. Darahtni qayta ishlash
3.	Daniya	1. Farmatsevtika. 2. Sog'liqni saqlash. 3. Energetika
4.	Buyuk Britaniya	1. Biotexnologiya. 2. Kimyovositalari
5.	Germaniya	1. Avtomobilsozlik; 2. Biotexnologiya; 3. Neftgaz kompleksi; 4. Energetika
6.	Xitoy	1. Mikroelektronika. 2. Aerokosmik ishlab chiqarish. 3. Biotexnologiya. 4. Avtomobilsozlik. 5. Energetika
7.	Kanada	1. Biotexnologiya. 2. Telekommunikatsiya. 3. Sog'liqni saqlash
8.	Yaponiya	1. Robotsozlik. 2. Mikroelektronika. 3. Energetika. 4. Avtomobilsozlik

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, innovatsiyaga asoslangan klasterlarning son jihatdan AQSh (6 ta), Finlyandiya (4 ta), Germaniya (4 ta) tashkil etilgan bo'lsa, e'tiborlisi, iqtisodiyoti rivojlanayotgan Xitoyda AQShdan qolishmagan xolda 5 ta innovatsiyaga asoslangan klasterlar tashkil etilgan.

Albatta, yuqorida tahlil qilingan mamlakatlarda belgilangan tarmoqlarda innovatsion klasterlarning shakllanishi va rivojlantirilishida davlatning o'рни va roli kattadir va tahlillarga ko'ra, har bir mamlakatda turlicha, o'ziga xos yondashuvlar amalga oshirilgan.

### 9-jadval

#### Ayrim mamlakatlarda mavjud bo'lgan klasterlarning asosiy ko'rsatkichlari tahlili<sup>98</sup>

№	Mamlakatlar	Klast er-lar soni	Klasterlarni ng ixtisoslashuv i	Ayrim ma'lumotlari
1.	Buyuk Britaniya	168	Biotexnologiya va bioresurslar	Hukumat tomonidan mazkur innovatsion klasterlar jamg'armasini yaratish uchun 30 mln. AQSh dollari mablag' ajratilgan
2.	Italiya	206	Iste'mol tovarlari va oziq-ovqat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan	Jami eksportning 30 %i ushbu klasterlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'g'ri keladi. Ushbu klasterlarning eng yirigi 220 ta korxonalarni qamrab olgan
3.	Hindiston	106	Tashkil etilgan klasterlarning aksariyati kompyuter texnologiyalari ga ixtisoslashgan	Klasterlarning yillik aylanmasi 70 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu klasterlar hukumat tomonidan 5 yilga barcha soliq to'lovlaridan ozod qilingan
4.	AQSh	380	AQShda klaster doirasida deyarli mavjud korxonalarin g yarmi faoliyat yuritadi	AQSh klasterlari tomonidan YaIMning 60 %i yaratiladi. Ulardagi eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgani Kremniya vodiysidir
5	Frantsiya	96	Farmatsevtika, kosmetika, oziq-ovqat ishlab chiqarish	Klasterlarning eng yirigi Cosmetic Valley tarkibiga 600 ta korxonalar kiradi, ushbu klasterning tarkibida 7 ta universitet, yirik milliy tadqiqot institutlari va 200 ta xususiy va davlat laboratoriyalari kiradi

Masalan, ayrim mamlakatlarda bu davlat grantlari sifatidagi jamg'armalar shaklida bo'ladi, jumladan, DATAR rejalashtirishning milliy agentligi (Frantsiya), CASSIS klasterlarni qidirish va turkumlashning axborot tizimi (Lyuksemburg), Raqobatbardoshlik bo'yicha milliy kengash (AQSh), LINK kooperatsiya dasturi (Buyuk Britaniya) va boshqalar<sup>99</sup>. Undan tashqari tarmoqli tuzilmalarni samarali shakllantirish, rivojlantirish va ularni intermilliylashtirishga ixtisoslashgan maxsus institutlar shakllantiriladi. Ularga Finlyandiyadagi Ekspertiza markazi, AQShdagi Afzallik markazi, konsalting, marketing-tahliliy va brending kompaniyalari (Economic Competitiveness Group), Qozog'istondagi marketing-tahliliy tadqiqot markazi kiradi (Myunxen texnik universitet bilan klaster tuzilgan). Klasterlarni shakllantirish infratuzilma ta'minotining ajralmas qismi sifatida biznes-inkubatorlar, texnoparklar, maxsus iqtisodiy zonalar bo'ladi.

Klaster nazariyasi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy- tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etilgan klasterlar tizimi bo'yicha turli yondashuvlar (ham ijobiy, ham tanqidiy) shakllangan.

Ayrim AQSh tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilishiga ko'ra, AQSh hukumati tomonidan klasterlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga qaramasdan hamda ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi to'siqlarning bartaraf etilishiga qaramasdan hududlarning va klasterlarning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatmaydi<sup>100</sup>. Jumladan, mazkur olimlarning fikrlariga ko'ra, bugungi kundagi global raqobat sharoitida qabul qilingan dasturlar rasmiy ko'rinishda bo'lib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilmagan, chunki davlat hokimiyatining tashkilotlari va shtatlardagi hokimiyat faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtiruvchi mexanizm yaratilmagan, bu esa tashkil etilgan klasterlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, 2008 yilda AQShda federal miqyosdagi dasturlardan tashqari 250 ta turli xildagi hududiy dasturlar mavjud bo'lgan va ularning umumiy muvofiqlashtirilishi amalga oshirilmagan.

Shuningdek, tanqidiy yondashuv hukumat tomonidan mavjud klasterlarning faoliyatiga aralashuvi bo'yicha, jumladan, klasterlarni geografik hududlarini ajratish choralari bo'yicha bildirilgan. Chunki tanqidchilarning asosiy e'tirozlariga ko'ra, klasterlar erkin bozor munosabatlari asosida tashkil etilgan va unga davlatning aralashuvi o'rinsiz. Masalan, metallni qayta ishlovchi korxonalar klasteri hududiy jihatdan G'arbiy Minnessota va G'arbiy Dakota shtatlarida joylashgan va ushbu shtatlardagi turli dasturlarga ko'ra turli klasterlarga mansubligi ko'rsatilgan, buning natijasida ular uchun yaratilgan imtiyozlardan mahrum bo'lishgan<sup>101</sup>.

Tanqidchilar tomonidan bildirilgan yana bir muhim fikr shundan iboratki, klasterlar biznes munosabatlar natijasida, bozorning talabi asosida va biznes muhitida yaratiladi, ya'ni davlatning dasturlari doirasida emas (bunga "Silikon vodiysi" yorqin misol bo'la oladi). Mutaxassislarning yana bir muhim xulosasiga ko'ra, klasterlar faoliyatidagi real iqtisodiy xolatga nisbatan siyosiy tashabbuskorlik ustun keladi va natijada AQShda samarasiz davlat dasturlarining yuzaga kelishi va ko'plab miqdordagi mablag'larning behuda sarflanishi oqibatida raqobatbardoshligi past bo'lgan klasterlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Ammo mazkur bildirilgan tanqidlarga qaramasdan, inqor qilib bo'lmaydiki, AQSh hukumati tomonidan klasterlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasidagi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan dasturlarning pirovard natijasi mamlakatda bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bergan va bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan klasterlarni yangi pog'onaga ko'tarishga, ya'ni innovatsion klasterlarni yaratishga imkon beradi. Bu esa mavjud klasterlarning faoliyatlari tezligini oshirishda, raqobatbardoshligini ta'minlashda va pirovard natijada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

Klasterlarni tashkil qilish va rivojlantirish borasida Rossiya tadqiqotchilari tomonidan ham turli xildagi yondashuvlar mavjud. Jumladan, Alexin M.Yu. va Kochemasov A.R. o'zlarining tadqiqotlarida Rossiya iqtisodiyotida klasterlarni tashkil qilishda, avvalo, iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini yanada chuqur o'rganish va ayniqsa, ularda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni va yuzaga kelgan to'siqlarni inobatga olish muhimligi bildirilgan<sup>102</sup>.

Ayrim mutaxassislarning e'tiroflariga ko'ra, bugungi kunda Rossiya iqtisodiyotida tashkil etilgan klasterlar grantlar va qo'shimcha moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lsa ham, ularning milliy

iqtisodiyotdagi ulushi, jumladan, tashkil etilayotgan yangi ish o‘rinlari, klasterlarning iqtisodiy samaradorligi yuqori darajada emasligi belgilangan<sup>103</sup>.

V.I. Korolevning “Innovatsion hududiy klasterlar: xorijiy tajribasi va Rossiya sharoitlari”<sup>104</sup> deb nomlangan ilmiy maqolasida Rossiyada hududiy innovatsion klasterlarning rivojlanish holati tahlili asosida bir nechta tanqidiy yondashuvlar keltirilgan, jumladan:

Birinchidan, Rossiya iqtisodiyotida innovatsion klasterlarni tashkil etilganligi e’tirof etilishiga qaramasdan real holatda innovatsion klasterlar tashkil etilgani yo‘q. Chunki bugungi kunda tashkil etilgan klasterlarda ochiq raqobat mexanizmi, barcha ishtirokchilarning huquqiy me’yorlarining bajarilishi, innovatsion infratuzilmaning mavjud emasligini qayd qilish mumkin.

Ikkinchidan, Rossiya iqtisodiyotining to‘liq bozor iqtisodiyotiga o‘tmaganligi va unda monopol tuzilmalarning ustunligi, fan va biznesga davlatning yuqori darajadagi ta’siri, iqtisodiyotning va ijtimoiy hayotning barcha darajalarida korruptsiyaning mavjudligi klasterlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda va pirovard natijada mavjud klasterlarning xo‘jalik sub’ektlarning oddiy birlashish turiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, klaster bozor mexanizmi va uning tashkil etilishiga bozor va raqobat ta’sir ko‘rsatadi xolos va davlatning boshqaruvi bunda o‘rinsiz. Ushbu borada, Rossiya iqtisodiyotida tashkil etilgan 25 ta innovatsion klasterlarning barchasi hukumat topshirig‘i asosida tashkil etilgan bo‘lsa ham, real bozor sharoitlarida hali faoliyat yuritmagan va shu qatorda ularning moliyalashtirish masalalarida shaffoflik holatining mavjudligi shubha tug‘dirishi e’tirof etilgan.

Rossiya iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilishda A.S. Ionis xulosa qiladiki, butun dunyoda innovatsiyalarga bo‘lgan talabni davlat va yirik korporatsiyalar belgilaydi. Bugungi kunda Rossiya iqtisodiyotida esa ustuvorlik xomashyo kompaniyalariga berilgan, ular o‘z navbatida innovatsiyalarning talabgorlari emas va yangi texnologiyalarni yaratishga talablari mavjud ham emas. Olim o‘z tadqiqotlarida bir nechta e’tibor talab qiladigan muammolarga qaratadi, jumladan<sup>105</sup>:

- klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarning faolligining pastligi;
- texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonlari samaradorligining pastligi;
- yangi texnologik yo‘nalishlarni rivojlantirishda moliyaviy resurslarni qo‘lga kiritish bilan bog‘liq muammolar;
- yangi texnologik yo‘nalishlarni boshlashda mahsus xizmatlarning darajasi pastligi;
- tarmoqlarda boshqaruv darajasining samarasizligi.

V.V. Proxorova, M.S. Xachaturovaning “Zamonaviy Rossiyaning hududiy iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirishning vazifalari va instrumentlari” deb nomlangan monografiyasida Rossiya iqtisodiyotida klasterlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi omillar keltirilgan, jumladan<sup>106</sup>:

- Rossiya sanoatining innovatsiya salohiyatining pastligi va xomashyo resurslariga ustuvorlik berilishi;



- iqtisodiyotda klaster texnologiyalari tarqalishining past sur'atlari va mamlakatda klaster printsiplarining yaxshi tanilmaganligi;

- hududiy iqtisodiy tizim va tashkil etilgan klaster tuzilmalarida shaffoflikning etishmasligi va ba'zi hollarda ta'minlanmaganligi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida ishonch darajasining pastligi, shu jumladan, klaster ishtirokchilari o'rtasida ham;

- institutsional tafovutning mavjudligi, jumladan, ilmiy- tadqiqot institutlari va kichik biznesning roli pastligi va h.k.lar.

Shuningdek, yuqoridagi mualliflar bildirgan fikrlarga ko'ra, hozirgi xolatda Rossiya iqtisodiyotida klasterlarni davlat tomonidan tashkil qilishdan avval, bugungi kunda iqtisodiyotda mavjud bo'lgan real muammolar echimini hal qilish talab qilinadi, ya'ni korrupsiyani bartaraf qilish, mamlakatda yangi sanoatlashish siyosatini faollashtirish va eng muhimi, milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni tashkil qilishda, rivojlantirishda va qo'llab-quvvatlashni ommaviy tadbirga aylanib ketishiga yo'l qo'yimaslik va amalga oshirilgan sarf-xarajatlar behuda sarflanishiga yo'l qo'yimaslik lozim.

Ammo belgilash lozimki, klasterlar milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishiga ko'ra, hududiy sanoat klasteri bir geografik hududda yagona maqsadda bir nechta kompaniyalar va yordamchi tashkilotlarning o'zaro jamlanishi bo'lib, boshqa mamlakatlar tomonidan barcha tarmoqlar global raqobat kurashiga duch kelgan paytda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishini ta'minlovchi manba hisoblanadi<sup>107</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, klasterning nazariyasi milliy iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanishini va ortda qolayotgan tarmoqlarning rivojlanishini va liderligini ta'minlaydi. Ayniqsa, ushbu sohada davlat dasturi amalga oshirilayotganda o'ta ehtiyotkorlik va jiddiy analitik tadqiqotlarni amalga oshirish talab qilinadi. Buning uchun bir nechta muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim, jumladan:

- hukumat tomonidan klasterlar tashkil etiladigan ustuvor tarmoqlar aniqlanishi lozim, ayniqsa, barcha tarmoqlarda yoppasiga klasterlarni tashkil etilishiga yo'l qo'yimaslik kerak;

- davlat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlarning yuqori darajada mas'uliyatli nazoratini tashkil etish;

- xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur va muntazam o'rganib borish, jumladan, nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning, balki iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda kechayotgan holatlarni tahlil qilish muhim;

- hukumat tomonidan klasterlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini chuqur o'rganish;

- iqtisodiyotda klasterlarni rivojlantirish bo'yicha tanlov asosida ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va unga mablag'larni ajratish;

- faqat samarali faoliyat ko'rsatayotgan klasterdagi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini yaratish, buning uchun klasterlar samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish dolzarbli e'tirof etilgan;

- shuningdek, doimiy faoliyat ko'rsatadigan analitik markazni tashkil etish taklif etilgan. Ushbu markazning faoliyati klasterlarning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ko'rsatkichlarini baholashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Misol tariqasida, Garvard universiteti va AQShning Iqtisodiy rivojlanish vazirligi tomonidan yaratilgan internet resursi bo'la oladi <http://G'G'clustermapping.usG'>. Mazkur portal hududda tashkil etilgan klaster faoliyati, natijalari (tashkil etilgan yangi ish o'rinlari, samaradorligi, geografik ko'lami va boshqa o'nga yaqin so'nggi yildagi ko'rsatkichlar), shuningdek, davlat tomonidan tashkil etilgan hukumat dasturlari va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar to'g'risida ochiq axborotlarni olish imkoniyati yaratilgan.

- klasterlar faoliyatida (barcha jabhalarida: tashkil qilish, nazorat qilish va h.k.) yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda malakali mutaxassislarni jalb qilish va hokazo.

Tadqiqotlarga ko'ra, innovatsiyaga asoslangan klasterlar nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, balki iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda faol rivojlanmoqda (masalan, Xitoyda AQShdan qolishmagan xolda 5 ta innovatsiyaga asoslangan klasterlar tashkil etilgan). Ushbu borada, fikrimizcha, O'zbekistonda ham tobora barqaror rivojlanayotgan va raqobatbardoshlikka ega bo'layotgan tarmoqlarda (ayniqsa, qishloq xo'jaligi, energetika, avtomobilsozlik, agrosanoat, farmatsevtika, sog'liqni saqlash, neft-gaz kompleksi, telekommunikatsiya) klasterlarni yaratish imkoniyatlari mavjud. Chunki mustaqillik yillarida mazkur sohalarida amalga oshirib kelinayotgan tub tarkibiy islohotlar bugungi kunga kelib o'z samarasini bermoqda va ushbu erishilgan yutuqlarni yanada takomillashtirish va rivojlantirishning keyingi bosqichi sifatida innovatsion klasterlarning shakllantirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

#### **4.O'zbekiston Respublikasi hududlarida klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning vositasi sifatida**


Butun dunyo bo'yicha hududlarning rivojlanish siyosatini amalga oshirishda klaster yondashuvi samarali deb topilgan. Chunki hududning iqtisodiyoti uchun klasterlar ichki bozorning "o'sish nuqtasi"ni va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini ta'minlaydi<sup>108</sup>.

Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mamlakat hududlarining samarali rivojlanishini taqozo etadi. Bugungi kunda hududlar iqtisodiy rivojlanishning samarali instrumentlaridan biri hisoblanadi. Hududlar jadal rivojlanishida klasterlar innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratilishining asosi vazifasini o'tashlari mumkin va milliy mahsulotlar hamda fanning global raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat qilishi mumkin. Ushbu munosabatda klaster modellarining tahlili klasterlarning tarkibini hamda ularning rivojlanishi va samarali rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga yordam beradi.

Xorijiy mamlakatlarda o'zining samaradorligini asoslagan klaster mexanizmi bugungi kunda ko'plab olim va mutaxassislarning e'tiborlarini jalb qilib kelmoqda. Ushbu munosabatda hududlarda klasterlarni tashkil qilish va ularni rivojlantirish


masalari O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

M. Porterning “Raqobat” deb nomlangan asarida klasterlar faoliyatining klassik shakllari misol tariqasida keltirilgan bo‘lib, klasterlarning tashkil etilishi ma’lum geografik hudud nazarda tutilgan va aynan klaster tashkil etilgan hududda istiqbolda raqobat muhiti, hududning raqobatbardoshligi va shu doiradagi ustuvorliklari ochib berilgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, Niderlandiyada gullarni etishtirish kooperativlarining tashkil etilganligi, jumladan, ushbu klaster tomonidan gullarni katta hajmda ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash ishlari amalga oshirilib, aynan ushbu ishlar hisobiga Gollandiyaning gullar klasteri raqobatbardoshligi ta’minlashini e’tirof etgan<sup>109</sup>. Yana bir misol, Germaniyada vino ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasteri “Saale-Unstrur” bo‘la oladi. Ushbu klaster tarkibida 44 ta korxonalar faoliyat yuritadi va ular o‘zaro ichki bozorda kuchli raqobat kurashlariga qaramasdan, tashqi bozorlarda umumiy marketing siyosatini amalga oshiradi<sup>110</sup>. Bugungi kunga kelib bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin va ayrim mutaxassislar tomonidan hududlarda tashkil etilgan klasterlarning geografik joylashuvlari haritasi ham ishlab chiqilgan. Masalan, Evropa Klaster Hamkorlik Platformasi (The European Cluster Collaboration Platform (ECCP)), tomonidan Evropa Ittifoqi mamlakatlarida tashkil etilgan, geografik joylashgan klasterlar faoliyati tadqiq qilib boriladi (8 va 9-rasmlar).




**8-rasm. AQSh va Evropa mamlakatlari hududlarida joylashgan klasterlar**

M.Yu.Alexin va A.R. Kochemasovlarning<sup>112</sup> tadqiqotlarida bugungi kunda Rossiyada klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha mamlakatning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan va klasterlar mamlakatning butun hududini to‘liq qamrab olmagan. 2012 yil ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 26 ta “innovatsion hududiy klasterlar” mavjud bo‘lib ular jami 406 ta ishtirokchilardan tashkil topgan (9-rasm).



**9-rasm. Rossiyada klasterlar faoliyat ko'rsatayotgan hududlar**<sup>113</sup>

Hududda iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, yuqorida belgilanganidek, hududning o'ziga xos jihatlari, xususiyatlarini inobatga olishni taqozo qiladi. Ushbu munosabatda klasterlarning hudud iqtisodiyotini rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir (10-rasm).



**10-rasm. Hududning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimi**<sup>114</sup>

10-rasmda keltirilgan omillarni tahlil qiladigan bo'lsak, bular:

- **siyosiy omil:** siyosiy tuzum, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi, milliy va hududiy iqtisodiyotning ijobiy imiji yaratilganligi;

- **institutsional omil:** hududiy rivojlanishni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi me'yorlarni ishlab chiqish; rivojlanishni muvofiqlashtiruvchi davlat hokimiyati tashkilotlari tizimi, byud

- jetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- **iqtisodiy-geografik holatning omillari:** hudud iqtisodiyotining joriy holati,

ob-havo sharoitlari, transport aloqalarining joylashuvi va mavjudligi;

- **innovatsion omillar:** inson kapitali, yangi yuqori texnologik tarmoqlarning mavjudligi, texnologiyalar va nau-xaullarning mavjudligi, axborotlashuv jarayonining tarqalishi, innovatsion klasterlarning rivojlanishi;

- **infratuzulma omillari:** moliya-kredit tizimining rivojlanganligi, kommunikatsiya va transport tizimining rivojlanganligi;

- **ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** ishchi kuchi, aholining ta'lim darajasi, ish haqi darajasining oshishi, ishsizlikning pasayishi, ta'lim darajasini takomillashtirish;

- **globallashuv omillari:** globallashuv bilan bog'liq bo'lgan muammolarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

O'z navbatida, M.A. Borodina "Hududda iqtisodiy klasterlarni shakllantirish" deb nomlangan maqolasida hududda iqtisodiy klasterlarni shakllantirish sxemasini taklif etadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, hududda klasterlarni tashkil qilish tartibi tayyorgarlik ko'rish, klaster modellarini shakllantirish va yakuniy bosqichlarni qamrab oladi (11-rasm).

11-rasmda dastlabki bosqichda hudud iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi, lokalizatsiya koeffitsienti asosida aglomeratsiya samaradorligi tadqiq qilinadi, tarmoqlarning holati tahlil qilinadi va ayniqsa, sanoat tarmoqlari tahlil qilinadi. Tahlilning predmeti sifatida moliyaviy-iqtisodiy soha, resurs imkoniyatlari, hududning me'yoriy-huquqiy asoslari va boshqa ustuvorliklari. Tahlil natijasida tarmoqlarning kuchli tomonlari va muammoli jihatlari aniqlanadi. Klasterlar tashkil etilishi rejalashtirilgan tarmoq va yo'nalishlarda davlatning sanoat va ilmiy-texnik siyosati maqsadlarini aniqlash muhimdir.

Tarmoqlarda klasterlarni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin: hududda ishlab chiqarilgan jami mahsulot va xizmatlarda klasterda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning ulushi; klaster va uning ishtirokchilari rivojlanishining ijobiy dinamikasi va iqtisodiy samaradorligi; klaster tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi; tarmoqdagi eksportning importdan ustunligi.

Klasterlarni tashkil etishda sharoitlar va imkoniyatlarni baholashda iqtisodiy, resurs va tashkiliy imkoniyatlar baholanadi. Bunda iqtisodiy imkoniyatlarga kooperatsiya, raqobat va raqobatbardoshlik taalluqli. Resurs imkoniyatlarga tabiiy resurslar, ilmiy-texnologik infratuzilma, inson resurslari, shu jumladan, ta'lim olganlik darajasi, moliyaviy resurslar, axborot infratuzilmasi, boshqaruv infratuzilmasi va hokozolar kiradi.

Tashkiliy imkoniyatlarga deb, biznes, davlat hokimiyati va ommaning hududda iqtisodiy klasterlarni yaratishga tayyorgarligi tushuniladi. Bunda hududlarda klasterlarni tashkil qilishning ikki yo'li bo'lishi mumkin, birinchisi, bu hududda avval faoliyat yuritgan korxonalar asosida tashkil qilish bo'lsa, ikkinchisida, "noldan boshlab" klasterlar tashkil qilinadi. Albatta, ikkinchi holat eng murakkabdir.

Klasterlarni tashkil qilishda uchta yondashuvdan foydalanish mumkin<sup>116</sup>. Birinchi yondashuv, ishchi guruhlarini tashkil qilishga asoslangan bo'lib, unga hududning davlat hokimiyati mutaxassislari jalb qilinadi. Ikkinchi yondashuvda davlat hokimiyatining ilmiy tadqiqot muassasalari, konsalting firmalari va oliy ta'lim

muassasalari bilan hamkorligi asosida tashkil etiladi. Uchinchi yondashuvda mahsus tashkilot tashkil etiladi (iqtisodiy rivojlanish agentligi), u nafaqat loyihani ishlab chiqishda ishtirok etadi, balki istiqbolda loyihaning muvofiqlashtiruvchi tashkiloti sifatida ishtirok etadi. Klaster modellarini shakllantirishda uning tarkibiy qismlarini belgilashni taqozo qiladi – lider kompaniyani va u bilan bog'liq ishtirokchi tashkilotlar va kompaniyalar. Mazkur bosqichda tarmoq korxonalarining dastlabki statistik tahlili amalga oshiriladi va tahlil natijalarida quyidagilar aniqlanadi: sotilgan mahsulotlar hajmi; asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar (mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum, band bo'lganlarning soni, asosiy va aylanma vositalarning hajmi, nomoddiy aktivlar va h.k.); ishchi xodimlarning ta'lim darajasi; texnologiyalar va nomoddiy aktivlar (soni va ularning kelib chiqish manbai, xususiyat); infratuzilmaning xususiyati (elektroenergiya, suv ta'minoti, transport, moliyaviy va boshqa institutlar). Klaster modellarini shakllantirish bosqichida loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishidan ham iborat bo'ladi. Ushbu bosqichda investitsion loyihalarning samaradorligi baholanadi va ular saralanadi, klasterni tashkil etish va rivojlantirishning moliyaviy rejasi tuziladi. Klaster modelini shakllantirishning tashkiliy jihatlarida klaster ishtirokchilarining maqsadga erishish uchun ular o'rtasida funktsional vazifalarning taqsimlanishini belgilaydi. Bunda hududning boshqaruv hokimiyati bilan aloqadorlik mexanizmi aniqlanadi. Yakuniy bosqichda tashkiliy- huquqiy masalalar hal qilinadi, jumladan, klasterning yuridik maqomi aniqlanadi, klaster faoliyatini belgilovchi me'yoriy- huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ushbu bosqichda klaster ishtirokchilari o'rtasida aloqadorlik mexanizmlari sinovdan o'tkaziladi. Klaster tashabbusining monitoringi klasterni tashkil etishning samaradorligi bilan bog'liq va bu uchta pog'onada aniqlanadi: klaster ishtirokchilari darajasida, klasterda va hududda.

Tadqiqotimizning yuqoridagi qismlarda klasterni tashkil qilishning uchta muhim bo'g'inlari mavjud bo'lishi va ularning o'zaro aloqadorligi ta'minlangan bo'lishi kerakligi belgilangan, jumladan, korxonalar, ilmiy tadqiqot muassasasi, oliy ta'lim muassasasi va boshqa idora va tashkilotlar, klaster faoliyatidan kelib chiqqan holda bo'lishi mumkin. Ushbu jihatdan belgilash mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida turli sohalarda klasterlarni tashkil etish imkoniyati va sharoitlari mavjud. Zero, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda amalga oshirib kelinayotgan tub islohotlar o'z samarasini bermoqda va ularning tahlil qilinishi mamlakatda etakchi soha va tarmoqlarda klasterlarni tashkil etish to'g'risida xulosa qilish imkoniyatini beradi.

**Sanoat**<sup>117</sup>. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash maqsadida 2006 yildan boshlab, sanoatning eng muhim 14 ta tarmog'ida, xususan elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, neft-gaz, kimyo, avtomobil, paxta tozalash, engil sanoat, charm- poyabzal, yog'-moy va farmatsevtika hamda qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishda modernizatsiya, texnik va texnologik yangilanish dasturlari qabul qilindi va amalga oshirildi.

**9-jadval****2000-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoat ishlab chiqarishining o‘shish ko‘rsatkichlari (o‘tgan yilga nisbatan foiz hisobida)<sup>118</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2014	2021	2000 yilga nisbatan o‘shish, marta
Umumiy sanoat ishlab chiqarishi	105,9	107,9	108,3	108,3	107,3	2,99
Yoqilg‘i-xomashyo sanoati ishlab chiqarishi	102,7	102,6	103,3	104,7	104,7	1,62
Qayta ishlovchi sanoat Tarmoqlari ishlab chiqarishi	109,3	114,2	115,6	110,7	110,7	6,49
Sanoatda qo‘shilgan qiymat	101,3	103,8	104,2	105,2	106,1	1,79
Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish	106,2	116,6	112,0	109,4	109,4	4,91

9-jadval ma‘lumotlarida yalpi sanoat ishlab chiqarishi 3 barobar ortgan bo‘lib, o‘shishning asosiy qismi qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi hisobidan erishilganligi e‘tiborga sazovor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlash bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli farmoni doirasida mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, mahsulot ishlab chiqarishda energiya sig‘imi, mehnat va material harajatlarini kamaytirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, raqobatbardosh xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb etish ishlari ko‘zda tutilgan.

**10-jadval****Sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlar tarkibi, foizda**

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2014	2021
Jami sanoat tarmog‘i bo‘yicha	100	100	100	100	100
Elektroenergetika	8,5	11,3	8,1	7,3	8,1
Yoqilg‘i	15,3	16,2	19,8	13,3	13,5
Qora metallurgiya	1,2	2,3	2,4	2,7	2,7
Rangli metallurgiya	10,2	17,1	10,9	8,9	8,4
Kimyo va neft-kimyo	5,7	5,2	5,1	5,3	5,1

Mashinasozlik va metallga ishlov berish	9,8	13,0	16,1	19,2	19,7
Qurilish materiallari sanoati	5,4	3,6	4,9	6,4	6,7
Engil sanoat	19,1	16,6	13,3	14,1	14,3
Oziq-ovqat sanoati	13,3	8,2	12,8	15,1	15,4
Boshqa tarmoqlar	11,4	6,5	6,6	5,9	5,0

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.** Jahon iqtisodiyotida klasterlarni tashkil etish va rivojlanishida bugungi kunda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishgan ko'plab mamlakatlar tajribasining tahlilidan ma'lumki, klasterlar atrofida (sanoat korxonalaridan tashkil topgan klasterlarda) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarining mujassamlanishi klasterning faolligini ta'minlaydi. O'z navbatida belgilashimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi, ularga yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar klaster tarkibida erkin raqobat sharoitida faoliyat yuritishga barcha imkoniyatlar mavjud. Bunday islohotlar natijasida 2000 yilda mamlakatimiz YaIMning 31 foizi kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib, bu ko'rsatkich 56,7 foizga etgan. Hozirgi vaqtda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi ishlab chiqarilmoqda. Uning umumiy eksportdagi ulushi 26 foizni tashkil qilmoqda. Ish bilan band jami aholining 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda<sup>120</sup>.

Belgilash lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardagi ulushi, ayniqsa, YaIMdagi ulushning yildan-yilga oshib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda, jumladan, 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 54,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda mazkur ko'rsatkich 56,5 foizni tashkil etgan (11-jadval).

**11-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi (foizda)<sup>121</sup>**

	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2021 y.
<b>Yalpi ichki mahsulot</b>	<b>54,6</b>	<b>55,8</b>	<b>56,1</b>	<b>61,5</b>
Sanoat	23,1	28,1	31,7	43,6
Qishloq xo'jaligi	97,8	98,0	98,0	99,4
Investitsiyalar	35,3	32,7	35,4	36,8
Qurilish	71,1	71,5	69,5	67,7
Savdo	87,3	86,6	86,3	89,1
Pulli xizmatlar	44,9	46,2	48,6	52,5
Yuk tashish	44,2	47,3	50,9	54,7
Yo'lovchi tashish	83,1	84,5	85,5	89,3
Bandlik	75,6	76,7	77,6	78,9
Eksport	14,0	26,2	27,0	28,8
Import	38,6	42,4	45,4	46,5




Belgilash lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasi ularning jahon bozorlariga chiqishlari, raqobatbardosh bo'lishlari va o'z o'rinlariga ega bo'lishlari maqsadi yotadi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan amalga oshirilayotgan eksport faoliyatlari bilan ham baholanadi (12- jadval).

**Oliy ta'lim.** O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunlaridan boshlab ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, aholiga nisbatan ta'lim darajasi dinamikasining yildan-yilga o'sish tendentsiyasi kuzatilgan, 2010-2014 yillarda 16 yosh va undan katta yoshdagi aholining oliy ta'lim darajasi 1,4 foizli punktga oshgan bo'lsa, 25 yosh va undan katta yoshdagi aholining oliy ta'lim darajasi 1,8 foizli punktga oshganligi kuzatiladi (13-rasm).

### 12-jadval

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tovarlar va xizmatlar eksportidagi ulushi (foizda)<sup>122</sup>

	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2021 y.
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>14,0</b>	<b>26,2</b>	<b>27,0</b>	<b>27,8</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,2	17,0	28,4	34,8
viloyatlar				
Andijon	11,8	19,6	27,5	56,5
Buxoro	10,1	31,9	29,9	47,5
Jizzax	17,6	54,7	33,3	45,6
Qashqadaryo	18,0	28,8	21,9	17,7
Navoiy	6,3	16,8	17,3	19,0
Namangan	48,6	52,4	74,5	77,8
Samarqand	67,8	83,7	79,4	82,5
Surxondaryo	26,2	43,9	20,4	41,1
Sirdaryo	31,1	51,0	68,5	64,5
Toshkent	23,2	29,8	35,7	41,2
Farg'ona	13,6	22,5	26,3	40,5
Xorazm	10,1	28,7	27,8	41,9
Toshkent sh.	31,7	49,3	44,2	40,2




**13-rasm. 2010-2021 yillar O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim bo‘yicha aholining ta’lim darajasi dinamikasi, % hisobida (uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuv natijalariga asosan)<sup>123</sup>**

Uzoq istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri ishsizlikni oldini olish maqsadida oliy ta’lim bitiruvchilarini ish bilan ta’minlanishini prognoz qilinishi ham muhimdir. Prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra, 2015-2030 yillarda sanoat va muhandislik soha vakillari bilan bir qatorda xizmatlar sohasida oliy ta’lim bitiruvchilariga nisbatan talab yuqori bo‘lishi kutilmoqda<sup>124</sup>.

**Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat.** Iqtisodiyoti rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarning bugungi kundagi rivojlanish tajribasi shundan dalolat beradiki, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi shuningdek, global bozordagi holati va o‘rni, bevosita mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanganligi hamda innovatsion salohiyatiga bog‘liq bo‘lmoqda. Ushbu borada, milliy iqtisodiyotning mamlakat miqyosida va jahon miqyosida innovatsion rivojlanganlik darajasini aniqlash hamda bu orqali innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va mavjud kamchiliklariga baho berilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa milliy innovatsion tizimning monitoringini yuritilishini va mamlakatning xalqaro innovatsiyalar reytingiga (Global Innovatsiya Indeksi) kiritilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston bo‘yicha Global Innovatsiya Indeksi (GII) 2012 yildan hisoblanmoqda. Bu davrdagi o‘zgarish dinamikasi tahlili ijobiy tendentsiyani ko‘rsatmoqda, jumladan, 2012 yilda O‘zbekistonning indeksi 23,9 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda ushbu ko‘rsatkich 2 punktga ko‘tarilgan va 25,9 indeksni tashkil etgan<sup>125</sup>. Indeksning ko‘tarilishi 5 ta asosiy ko‘rsatkichlarning barchasi yaxshilanishi hisobiga erishilgan (14-rasm).



**14-rasm. O‘zbekiston bo‘yicha hisoblangan Global Innovatsiya Indeksining o‘zgarishi dinamikasi**<sup>126</sup>

14-rasmdan GII tarkibida institutsional muhit, infratuzilma ko‘rsatkichi, bozorning rivojlanganlik darajasi, texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi va ijodiy faoliyat natijalari bo‘yicha o‘shir kuzatilgan. Shundan eng ko‘p miqdorda oshganlari bozorning rivojlanganligi va institutsional muhitning yaxshilanganligi hisoblanadi. Alohida e‘tiborni tortadigan holat sifatida indeks tarkibidagi biznesni rivojlanganlik komponentini ajratish kerak. GIIda O‘zbekistonning 7 ta asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ustuvorliklari ham tahliliga ko‘ra, “Institutsional muhitda” biznesni boshlashning osonligi, bankrotlikning oson kechishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, belgilash lozimki, O‘zbekistonning ushbu ustuvor jihatlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlarning birontasida ustuvor sifatida ko‘rsatilmagan. GII indeksidagi o‘zgarishlar mamlakatlar egallagan reyting ko‘rsatkichlariga ham ta’sir ko‘rsatadi va tahlillarga ko‘ra, GIIning umumiy reytingi bo‘yicha O‘zbekiston 2012 yilda 127 reytingdan 2015 yilda 122 reytingga o‘zgarigan yoki 5 punktga ko‘tarilgan (13-jadval).


**Global Innovatsiya Indeksi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining reytinglari dinamikasi**<sup>127</sup>

	2012	2013	2014	2021	So‘nggi 4 yilda reytingdagi o‘zgarishlar
<b>Umumiy reyting</b>	<b>127</b>	<b>133</b>	<b>128</b>	<b>122</b>	<b>Q5</b>
Institutsional muhit	133	126	124	106	Q27
Inson kapitali va tadqiqotlar	35	86	77	76	-41
Infratuzilma	111	111	96	101	Q10

Bozorning rivojlanganligi	125	108	118	85	<b>Q40</b>
Biznesning rivojlanganligi	89	122	140	138	-49
Texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi	89	69	73	61	<b>Q28</b>
Ijodiy faoliyat natijalari	138	141	139	138	0

GII bo'yicha reytingning asosiy o'zgarishi bozorning rivojlanganligi, texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi, institutsional muhit komponentlari bo'yicha keskin ravishda ko'tarilgan. Reytingning yanada ko'tarilishiga biznesning rivojlanganligi, inson kapitali va tadqiqotlar komponentlari bo'yicha mos ravishda 49 va 41 o'ringa tushgani to'sqinlik qilgan. Ammo mazkur pasayish kuzatilgan komponentlarni BRICS mamlakatlari komponentlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra, O'zbekiston inson kapitali va tadqiqotlar indeksining – ta'lim subindeksi bo'yicha Xitoy va Rossiyadan keyingi o'rinni egallagan, shuningdek, bozorning rivojlanganligi indeksi bo'yicha Xitoy, Janubiy Afrika, Hindistondan keyingi o'rinlarni egallaganligini ko'rish mumkin (16.15-rasm).

#### “Ta’lim” subindeksi “Bozorning rivojlanganligi” indeksi



**15-rasm. 2017 yilda Global Innovatsiya Indeksining “Ta’lim” va “Bozorning rivojlanganligi” subindekslarining BRICS mamlakatlari va O‘zbekiston bilan qiyosiy tahlili<sup>128</sup>**

GII ma'lumotlarining tahlilidan ko'rish mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekistonda GII reyting ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar bilan o'tkazilgan qiyosiy tahlilda ham ko'rish mumkinki, ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston yuqori reytinglarni qo'lga

kiritganligi kuzatiladi. Natijada, GIning O‘zbekiston bo‘yicha innovatsion rivojlanish jarayonlari va salohiyati ko‘plab indikatorlarga asoslangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda mavjud kuchli tomonlari hamda e‘tibor kuchaytirilishi talab qilinadigan yo‘nalishlari mavjud.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotda klasterning tashkil qilinishi va samarali faoliyat yuritishi zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni tashkil qilishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Tashkil etilgan va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan klaster sanoat korxonalari, ilmiy va ta‘lim muassasalari o‘rtasida yangi texnologik aloqalarni o‘rnatishda muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Shuning uchun klasterlar milliy va hududiy innovatsion siyosatning asosi vazifalarini o‘tashi mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotda klasterning tashkil qilinishi va samarali faoliyat yuritishi zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni tashkil qilishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Tashkil etilgan va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan klaster sanoat korxonalari, ilmiy va ta‘lim muassasalari o‘rtasida yangi texnologik aloqalarni o‘rnatishda muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Ma‘lumki, klasterning asosini uchta muhim bo‘g‘in tashkil etadi va ularning o‘zaro samarali aloqadorligiga bog‘liq bo‘ladi, bular, korxonalar, ilmiy tadqiqot muassasasi, oliy ta‘lim muassasasi va boshqa idora va tashkilotlar (klaster faoliyatidan kelib chiqqan holda). Ushbu jihatdan belgilash mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotida turli sohalarda klasterlarni tashkil etish imkoniyati va sharoitlari mavjud. Zero, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda amalga oshirib kelinayotgan tub islohotlar o‘z samarasini bermog‘da va ularning tahlil qilinishi mamlakatda etakchi soha va tarmoqlarda klasterlarni tashkil etish to‘g‘risida xulosa qilish imkoniyatini beradi.

### **Tayanch iboralar**

Klaster, iqtisodiy samaradorlik, tizimli tahlil, raqobat, ilmiy salohiyat, ijtimoiy soha, innovatsion tizimlar, yangi texnologiyalar, Global Innovatsiya Indeksi, ta‘lim tizimi, bozorning rivojlanganligi, ilmiy salohiyat, baholash mezonlari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Klasterlarning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Korxonada innovatsion faoliyatni rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati qanday ?
3. Hududiy rivojlanishda klasterlarning ahamiyati qanday?
4. Korxonalar xavfsizligi va tijorat sirlari o‘rtasida qanday aloqa mavjud?
5. Milliy klasterlarning xususiyatlari nimada?
6. Xorijiy davlatlarning rivojlanishida klasterlarning ahamiyati qanday bo‘lgan?
7. Bozor sharoitlarida tijorat sirlari korxonaning reklama faoliyatiga zid kelmaydimi?
8. Korxonaning tijorat va boshqa sirlarini oshkor qilish qanday oqibatlarga olib

kelishi mumkin?

9. Korxonaning tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi o‘z ichiga nimani qamrab oladi?

## GLOSSARIY

**Aktsiyadorlik jamiyati** – aktsiyadorlar va muassislar mablag'i evaziga shakllangan kapitalga ega bo'lgan huquqiy shaxs maqomiga ega kompaniya. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning mablag'larni aktsiya sotish yo'li bilan jalb etishga asoslangan shakli.

**Aylanma ishlab chiqarish fondlari** – ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat predmetlari (xomashyo, materiallar, o'rov materiallari, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar va hokazo). Har bir ishlab chiqarish davrida to'liq sarflanadi hamda korxonaning aylanma mablag'lari hisobiga sotib olinadi.

**Aylanma mablag'lar** – ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish harajatlari, kelgusi davr harajatlariga sarflanuvchi korxonalar mablag'larining pul shaklida ifodalanishi.

**Aktsiya** – aktsiyadorlik jamiyati tomonidan chiqariluvchi hamda uning egasi, aktsiyadorlik jamiyatining a'zosiga jamiyatni boshqarish va foydadan dividend olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz.

**Aktsiyadorlik kapitali** – aktsiyadorlik jamiyatining asosiy kapitali, uning hajmi nizomda belgilab beriladi. Qarzga olingan mablag'lar va aktsiya chiqarish hisobiga shakllantiriladi.

**Amortizatsiya** – asosiy vositalar qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy vositalarning o'rnini qoplashga ishlatilishi.

**Amortizatsiya vositalari** – korxonalar asosiy vositalarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.

**Amortizatsiya fondi** – asosiy vositalarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

**Asosiy ishlab chiqarish fondlari** – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

**Asosiy vositalarning eskirishi** – asosiy vositalarning (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalarining) asta- sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo‘qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma’naviy turlari mavjud.

**Balans** – biron-bir holatning alohida tomonlarini taqqoslash va solishtirish yo‘li bilan tavsiflanuvchi ko‘rsatkichlar tizimi.

**Balans foydasi** – korxonaning balansida aks ettiriluvchi faoliyatning barcha turlaridan olinuvchi umumiy foyda miqdori.

**Bankrotlik** – kasodga uchrash, korxonaning (tashkilot, bank) o‘z majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni mablag‘lar yo‘qligi tufayli amalga oshirmasligini anglatuvchi tushuncha. Qoidaga ko‘ra, korxonani yopish yoki majburan tugatish hamda mol-mulkini qarzlarni to‘lash uchun sotib yuborishga olib keladi.

**Bashorat qilish** – kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli hodisa va jarayonlarni statistik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagi tadqiqotlar yordamida ilmiy asoslangan holda avvaldan aytib berish.

**Biznes** – bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sub’ektning ma’lum bir mahsulot yoki xizmat turini yaratish va sotish yo‘li bilan foyda olishga mo‘ljallangan iqtisodiy faoliyati.

**Biznes-reja** – korxonaning faoliyati dasturi, kutilayotgan harajat va daromadlar hisobini o‘z ichiga oluvchi kompaniya faoliyatining muayyan maqsadlariga erishish uchun muayyan chora-tadbirlar rejasi. Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqiladi.

**Veksel** – qimmatbaho qog‘oz turi, belgilangan tartibda yozma shakldagi qarz majburiyati, o‘z egasiga (veksel oluvchiga) veksel beruvchidan ko‘rsatilgan pul miqdorini belgilangan muddatda gap-so‘zsiz to‘lanishini talab qilish huquqini beradi.

**Venchor firma** – tijorat bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-texnik firma, yangi texnologiyalar va mahsulotlarning daromadlarini avvaldan belgilamagan holda ishlab chiqish va qo‘llash bilan shug‘ullanadi (tavakkalchilikka asoslangan kapital qo‘yilmasi).

**Dividend** – aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi, har yili soliqlarni to‘lash, ishlab chiqarishni kengaytirish, zaxiralarni to‘ldirish, obligatsiyalar bo‘yicha foizlar to‘lash va direktorlarni mukofotlashdan so‘ng aktsiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi.

**Jismoniy eskirish** – mehnat vositalarining foydalanish va



tabiat kuchlari ta'siri ostida moddiy jihatdan emirilishi. Mehnat vositalarining ma'naviy eskirishi ularning to'liq jismoniy eskirishdan oldinroq, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqoriroq va tejamkor bo'lgan mashina va qurilmalar paydo bo'lishi tufayli yuz berishi mumkin.

**Ijara** – mulkni ma'lum bir haq to'lash evaziga, vaqtinchalik foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomaga asoslangan holda yollash.

**Ilmiy-texnik salohiyat** – mamlakatdagi fan, texnika va muhandislik ishlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning fan- texnika muammolarini hal qilish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarining umumiy tavsifnomasi.

**Investitsion siyosat** – kapital qo'yilmalarning eng ustuvor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish.

**Investitsiyalar** – mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxonalar yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi.

**Investor** – biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

**Injiniring** – tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko'rsatilishi.

**Innovatsiya** – jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.

**Infratuzilma** – sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab chiqarishi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik tarmoqlari majmuasi. Transport, aloqa, savdo, moddiy-texnik ta'minot, fan, ta'lim, sog'liqni saqlashni o'z ichiga oladi.

**Ishlab chiqarish quvvati** – asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to'liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmi.

**Ishlab chiqarish rentabelligi** – umumiy (balans) foydaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va me'yorlashtiriluvchi aylanma

mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

**Ishlab chiqarish tuzilmasi** – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari – tsexlar, uchastkalar, xizmat ko'rsatish xo'jaligi aloqalarining yig'indisi.

**Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish** – yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo'lgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish.

**Ishlab chiqarishni yiriklashtirish** – mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.

**Ishlab chiqarishni kimyolashtirish** – mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun'iy materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.

**Ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi** – bir tomonlama, ko'pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tkazish.

**Kapital qo'yilmalar** – asosiy vositalarni qayta tiklash va o'stirishga sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslari harajatlari.

**Kapital sig'imi** – asosiy kapitalning mos keluvchi davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini – milliy daromad, sof daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**Kombinatsiyalash** – bitta korxonalar – kombinat doirasida sanoatning bitta yoki bir nechta tarmoqlaridagi turli xil ishlab chiqarishlarni texnologik jihatdan birlashtirishda ifodalanuvchi, ishlab chiqarishni umumlashtirish shakllaridan biri.

**Kompaniya** – tadbirkorlarning huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, pay kapitali asosida tashkil qilinuvchi birlashmasi.

**Konversiya** – korxonaning umuman boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi.

**Kontsern** – turli tarmoqlardagi mustaqil korxonalarining ishtirok etish tizimi, qo'shma tadqiqotlar, patent-litsenziya kelishuvlari, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi vositasida birlashuvi.

**Kooperatsiya qilish** – yakuniy mahsulotni birgalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish.

**Korxonaning qulay hajmi** – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bo'yicha imzolangan shartnoma va majburiyatlarni o'z muddatida, eng kam harajatlar bilan eng yuqori samaradorlikka erishgan holda bajarish imkonini beruvchi korxonaning hajmi.

**Korxonaning tijorat sirlari** – korxonaning ishlab chiqarish, texnologiyalar, boshqaruv va boshqa turdagi faoliyati bilan bog'liq, oshkor qilinishi korxonaning manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan, davlat sirlariga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar.

**Lizing** – mulkka egalik qilish huquqi ijaraga beruvchida saqlangan holda, mulkni uzoq muddatli ijaraga berishga asoslangan holda investitsiyalarni moliyalashtirish shakli; mashina, uskuna va transport vositalarining o'rta va uzoq muddatli ijarasi.

**Litsenziya** – qonunda belgilangan muayyan xo'jalik operatsiyalari, jumladan, tashqi savdo (eksport va import) operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha, vakolatli davlat idoralarning huquqiy shaxslarga beruvchi maxsus ruxsatnomasi.

**Marketing** - korxonalarining mahsulot ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotish yoki xizmat ko'rsatishga oid faoliyatini, bozorni va iste'molchilar talabiga faol ta'sir ko'rsatishni o'rganish asosida boshqarish tizimi.

**Materiallardan foydalanish koeffitsienti** – xomashyo va materiallarning oqilona tarzda sarflanishini tavsiflovchi ko'rsatkich. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi materiallarning ishlov berilgan materiallarning umumiy hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

**Mahsulot attestatsiyasi** – mahsulot sifatining texnik- iqtisodiy ko'rsatkichlarini ob'ektiv baholashni tizimli ravishda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi, tashkiliy-texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi.

**Mahsulot ishlab chiqarish va sotish harajatlari** – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi tabiiy resurslar, xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy vositalar va mehnat resurslari, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning boshqa harajatlarning qiymat baholari.

**Mahsulot rentabelligi** – mahsulot sotishdan olingan foydaning mahsulot tannarxiga nisbati (foizlarda) sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

**Mahsulot sertifikat** – mahsulot sifatini baholash va nazorat qilishning xalqaro me'yorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni; mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qaram bo'lmagan, mahsulotning xalqaro standart me'yorlariga mos kelishini nazorat qilish uchun kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlangan maxsus markazlarni yaratish bilan amalga oshiriladi.

**Mahsulot sifati** – mahsulotning inson va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini belgilovchi foydali xislatlari majmui.

**Mahsulot sifatini boshqarish** – mahsulotni yaratish va undan foydalanish yoki uni iste'mol qilishda zarur sifat darajasini belgilash, ta'minlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar.

**Mahsulot sifatini boshqarish tizimi** – sifatni boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslar, jarayonlar va javobgarlikni aniq taqsimlovchi tashkiliy tuzilma.

**Mahsulotning material sig'imi** – xomashyo, materiallar va boshqa moddiy resurslarning mahsulot birligiga sarflanuvchi harajatlari. Material sig'imini kamaytirish tayyor mahsulot va materiallarni ko'paytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga sarflanuvchi harajatlarni kamaytirishga imkon yaratadi.

**Mahsulotning mehnat sig'imi** – mehnat unumdorligi ko'rsatkichlariga teskari bo'lgan kattalik. Moddiy ishlab chiqarish sohasida sarflangan mehnatning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

**Mahsulotning texnik darajasi** – baholanayotgan mahsulotning texnik takomillashganligini belgilovchi, uning bazis ko'rsatkichlariga mos keluvchi ko'rsatkichlarni taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tavsifnomasi.

**Mahsulotning yashash davri** – mahsulot hayotining beshta bosqichi almashinish davri: ishlab chiqish, ishlab chiqarish, bozorga chiqish, o'sish, bozorning to'yinishi va ma'naviy eskirish.

**Mehnat unumdorligi** – insonlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi; xodim moddiy ishlab chiqarish sohasida ish vaqti birligida ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan o'lanadi. Mehnatning ijtimoiy unumdorligi ishlab chiqarilgan milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan har bir xodimga nisbatan hisoblanadi.

**Mehnat shartnomasi** – tadbirkor va ishga kiruvchi shaxs o'rtasidagi kelishuv, unda ko'ra xodimning mehnat vazifasi, ish joyi, lavozimi, oylik ish haqi, ish boshlash vaqti va hokazolar belgilab beriladi.

**Nizom (ustav)** – korxonani tashkil qilishning qonuniyligini tasdiqlovchi, korxonaning harakteri va faoliyat turi, qoidalari, a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolarni o'z ichiga oluvchi rasmiy hujjat.

**Raqobat** – bozor mexanizmining korxonaning va firmalarning mahsulot va xizmatlarni sotish, kapitalni foydaliroq joylashtirishda raqiblik asosida xo'jalik nisbatlarini shakllantirish bilan bog'liq elementi.

**Raqobatbardoshlik** – o'z faoliyatini bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirish va bunda ishlab chiqarishni ilmiy-texnik jihatdan takomillashtirish, xodimlarni rag'batlantirish va mahsulot sifatining yuqori bo'lishini ta'minlashga etarli bo'lgan foyda olish.

**Reklamatsiya** – haridor tomonidan sotuvchiga shartnoma asosida etkazib berilgan tovarning sifati va miqdorining shartnomaga to'g'ri kelmasligi tufayli bildiruvchi da'vosi.

**Sertifikat** – mas'ul idoralar tomonidan mahsulotni ekspertiza qilish asosida beriluvchi, mahsulot sifatini belgilovchi hujjat.

**Smenalilik koeffitsienti** – uskunalarning vaqt bo'yicha ish bilan ta'minlash darajasi ko'rsatkichi; sutka davomida ishlab berilgan mashina-smenalarning o'rnatilgan barcha smenalarning soniga nisbati orqali aniqlanadi.

**Standartlashtirish** – ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida faoliyatni tartibga solish maqsadida barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida qoidalar belgilash va qo'llash. Me'yoriy hujjatlar, standartlar, yo'riqnomalar, usullar, talablarda aks ettiriladi.

**Ta'sis hujjatlari** – yangi tashkil qilinuvchi korxonalar, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish va ularni belgilangan tartibda ro'yxatga olish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar.

**Texnik qayta qurollantirish** – ishlab chiqarish alohida uchastkalarining texnik imkoniyatlarni zamonaviy darajaga chiqarish jarayoni.

**Uskunalar zamonaviylashtirish** – harakatdagi uskunalar konstruksiyasiga, uning texnik darajasini oshiruvchi hamda texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilovchi sezilarli o'zgarishlar kiritish. Zamonaviylashtirish ikkinchi shakldagi ma'naviy eskirishning oldini olishga ko'maklashadi.

**Ustama harajatlar** – asosiy harajatlarga qo'shimcha bo'lib, ular bilan birga ishlab chiqarish harajatlari tarkibiga kiritiluvchi, ishlab chiqarish va korxonalar boshqaruviga xo'jalik xizmati ko'rsatish harajatlari.

**Fan-texnika taraqqiyoti** – fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning uzluksiz rivojlanish jarayoni.

**Firma** – huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lib, tovar ishlab chiqarish va sotishni bir umumiy boshqaruv (va umumiy firma nomi) ostida birlashtiruvchi, korxonalar yoki turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar majmuasi.

**Foyda** – korxonalar faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalari; pul tushumi va harajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

**Fond qaytimi** – asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori.

**Fond sig'imi** – fond qaytimiga teskari bo'lgan nisbat. Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

**Fondlar bilan ta'minlanganlik** – asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaning har bir xodimi yoki ishchisiga to'g'ri keluvchi hajmi).

**Franchayzer** – franchayzi bilan franchayzing shartnomasini imzolovchi yirik korxonalar (korporatsiya, firma va hokazo).

**Franchayzi (operator)** – yirik franchayzer korxonalar bilan bitim tuzuvchi kichik korxonalar.

**Franchayzing** – yirik va kichik tadbirkorlikning aralash shakli; o‘zaro foydali hamkorlik munosabatlari.

**Xolding kompaniyasi** – o‘z kapitalidan boshqa kompaniyalarni boshqarish, ularga rahbarlik qilish va dividend olish maqsadida ularning aksiyalarini sotib olishda foydalanuvchi aksiyadorlik kompaniyasi.

**Xususiylashtirish** – davlat mulkini boshqa mulkchilik shakllariga, jumladan, jamoa, aksiyadorlik va xususiy mulkka

o'tkazishda mulkchilik munosabatlarining o'zgarish jarayoni.

**Yalpi daromad** – korxonada faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha harajatlarning o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

**Yalpi pul tushumi** – tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori.

**Yalpi foyda** – korxonada yalpi daromadining barcha majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxonada ixtiyorida qoluvchi qismi.

**Huquqiy shaxs** – fuqarolik sub'ekti sifatida faoliyat yurituvchi, mustaqil balans, gerbli muhr va bankda hisob raqamiga ega, nizom asosida faoliyat yurituvchi hamda bankrotga uchraganda o'z mulki bilan javob beruvchi korxonada.

**Qayta tiklash** – mavjud ishlab chiqarishni texnik va tashkiliy takomillashtirish, asosiy vositalarni kompleks ravishda yangilash va zamonaviylashtirish asosida to'liq qayta qurish jarayoni.

**Innovatsiya** – bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir.

Innovatsiyaning minimal alomati mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy uslub, u mazkur firmada yaratilgan yoki o'zlashtirilganligidan qat'i nazar, mazkur tashkilotning amaliyoti uchun yangi (yoki sezilarli darajada yaxshilangan) bo'lishi zarurligidir.

**Innovatsion faoliyat** haqiqatdan innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko'zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlardir. Innovatsion faoliyat, shuningdek, qandaydir aniq innovatsiyani tayyorlash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni o'z ichiga oladi.

Innovatsiyani amalga oshirgan, o'rganilayotgan firma uni o'z hududiga raqobatchilardan (xalqaro firmalarni ham qo'shgan holda) avval chiqarsa, innovatsiyalar **bozor uchun yangi** hisoblanadi.

Agar qaysidir mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy uslublar boshqa firmalarda ishlatilayotgan bo'lib, lekin mazkur firma uchun yangilik (yoki mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayoni sezilarli darajada yaxshilangan) bo'lsa, innovatsiyalar **firma uchun yangi** hisoblanadi.

**“Oxirgi uch yil mobaynida takomillashtirilganlari”** – oxirgi uch yilda tashkilotda mavjud bo'lgan tugallangan innovatsiyalar, ya'ni bozorda joriy etilgan yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli o'zgartirilgan yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar yoki ularni ishlab chiqarish (ko'rsatish) uslublari, shuningdek, amaliyotga joriy etilgan yangi yoki



sezilarli takomillashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari, yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan marketing usullari, tashkiliy va boshqaruv o'zgarishlari.

**Texnologik innovatsiyalar** – yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek mahsulot va jarayonlarni sezilarli takomillashtirish, texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlar, yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish (ko'rsatish) usullarini ishlab chiqarish va joriy etish.

Texnologik innovatsiyalarga mahsulot innovatsiyalari va jarayon innovatsiyalari kiradi.

**Mahsulot innovatsiyasi** yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlarni joriy etishdir. Masalan, texnika xususiyatlari, komponent va materiallari, ichiga o'rnatilgan dasturiy ta'minoti, foydalanuvchi uchun qulayligi yoki boshqa funktsional xususiyatlari.

Masalan, *tovarlar bo'yicha*: boshlang'ich materiallarni xususiyatlari yaxshilangan materiallar bilan almashtirish; transport vositalaridagi pozitsiyalash global tizimini qabul qilish moslamalari; mobil telefonlardagi fotokameralar; kiyimlardagi ilgaklar tizimi; foydalanishni qulaylashtiruvchi dasturiy ta'minot o'rnatilgan maishiy asboblari; shaxsiy moliyaviy operatsiyalarni shakllantiruvchi va kuzatuvchi, firibgarlikdan himoya qilish uchun dasturiy ta'minot; ko'chma kompyuterlarni tarmoqqa ulash uchun o'rnatilgan simsiz moslamalar; yangi funktsional xususiyatli oziq-ovqat mahsulotlari (qondagi xolesterin miqdorini pasaytiruvchi margarin, yangi turdagi bakteriyalardan foydalanib ishlab chiqarilgan yogurtlar va h.k.); energiya iste'mol qilishi sezilarli pasaytirilgan buyumlar (energiyani saqlovchi sovutkichlar va h.k.); atrof-muhitni himoya qilish standartlariga mos kelishni ta'minlash uchun mahsulotni sezilarli o'zgartirish; dasturlashtiriladigan isitkich yoki termostatlar; Internet-telefonlar; ta'siri sezilarli darajada yaxshilangan yangi dori-darmon vositalari va h.k.

*Xizmatlar bo'yicha*: iste'molchilar uchun tovar yoki xizmatlarga yo'l ochib berishni sezilarli yaxshilovchi xizmatning yangi turlari, masalan, avtomobillarni ijaraga berish xizmatiga qo'shimcha ravishda mijozni uyidan kerakli joyga etkazish; Internet orqali DVD-disklarga obuna qilish xizmati, buyurtma bo'yicha video; bank operatsiyalari yoki hisoblar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish kabi Internet-xizmatlar; kafolatlarning yangi turlari, masalan yangi yoki ishlatilayotgan tovarlarning kafolat muddatini cho'zib berish yoki kafolat berishni boshqa, ya'ni kredit kartochkalari, bank hisoblari yoki mijozning loyallik kartochkasi kabi xizmatlar bilan birlashtirish; qarzni yangi turlari – masalan: belgilangan eng yuqori stavkali o'zgaruvchan qarzlar; tovarlar to'g'risida ma'lumot berish va mijozlarga yordam ko'rsatishning har xil turlari kabi iste'molchilarga yangi bepul xizmatlar taklif qilish uchun Internet tarmog'ida saytlar yaratish; smart-kartalar va ko'p maqsadli plastik kartochkalarni joriy etish; o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatuvchi yangi bank ofisi;

mijozlarga etkazib berilgan tovarlarning tarkibi buyurtmadagiga mos kelishini tekshirish imkonini beruvchi yangi “ta’minotni nazorat qilish tizimi”ni taklif qilish.

Mahsulot innovatsiyasiga quyidagilar kirmaydi: kichik o‘zgarish yoki yaxshilashlar; sezilarsiz modernizatsiyalar; muntazam mavsumiy o‘zgarishlar (kiyim assortimenti kabi); boshqa mijozlar uchun ishlab chiqarilgan mahsulotdan katta farq qilmaydigan alohida mijoz talabiga moslashtirish; tovar yoki xizmatning ishlashi yoki texnik xususiyatlarini o‘zgartirmaydigan dizayndagi o‘zgarishlar; boshqa korxonalaridan sotib olingan yangi tovar va xizmatlarni qayta sotish.

**Jarayon innovatsiyasi** yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki etkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalar va G’yoki dasturiy ta’minotdagi sezilarli o‘zgarishlarni joriy etishdir.

Masalan, *ishlab chiqarish bo‘yicha*: ishlab chiqarish jarayonini real vaqt tartibida yo‘lga qo‘yish uchun avtomatlashtirish tizimi yoki datchiklar kiritish; yangi yoki yaxshilangan mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan yangi uskunalar; lazerli kesuvchi asboblari; avtomatlashtirilgan qadoqlash; kompyuter yordamida mahsulotni loyihalash; bosib chiqarish jarayonini raqamli asosga o‘tkazish; ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish uchun kompyuterlashtirilgan uskunalari; ishlab chiqarish monitoringi uchun yaxshilangan nazorat-o‘lchash asboblari.

*Etkazib berish va turli operatsiyalar bo‘yicha*: tovarlarning hisobini va inventar ro‘yxatlarni yuritish uchun portativ skanerlar yoki kompyuterlar; etkazish zanjiri bo‘yicha materiallarning ko‘chib yurishini kuzatish uchun shtrixli kodlar yoki passiv radioto‘lqin identifikatsiyalash chiplarini (RTICh) joriy etish; GPS tizimidan foydalanib transport vositalarining bir joydan boshqa joyga borib-kelishini kuzatish tizimi; etkazib berish marshrutlarini to‘g‘ri tanlash uchun dasturiy ta’minotni joriy etish; sotib olish, buxgalteriya hisobi yoki texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari uchun yangi yoki takomillashtirilgan dasturiy ta’minot yoki standart tadbirlari; kliring hisob-kitoblari elektron tizimini joriy etish; ovoqli buyruqqa javob beruvchi avtomatik tizimni joriy etish; belgi qo‘yuvchi elektron tizimni joriy etish; ta’minot oqimini qulaylashtirish uchun yangi dasturiy vositalari; yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan kompyuter tarmoqlari va hokazo.

Jarayon innovatsiyalariga quyidagilar kirmaydi: kichik o‘zgarish yoki yaxshilashlar; ishlab chiqarish yoki logistika tizimiga, foydalanib kelinayotgan juda o‘xshash biror narsani qo‘shish hisobiga ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishning imkoniyatlarini ozgina oshirish.

**Marketing innovatsiyasi** – bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish), agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo‘lsa.

Masalan, *dizayn va qadoqlash bo‘yicha*: yangicha ko‘rinish berish va ko‘rkamligini oshirish uchun mebel dizayniga ozgina o‘zgartirish kiritish;

mahsulotga original ko‘rinish berish maqsadida kosmetik loson uchun idishning yangi dizaynini joriy etish.

*Joylashtirish (sotish kanallari) bo‘yicha:* litsenziya olgandan keyingi mahsulotning birinchi taqdimoti; to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish yoki eksklyuziv chakana savdoning boshlanishi; mahsulotlar taqdimotining yangi kontseptsiyasini amalga oshirish.

*Narx belgilash bo‘yicha:* mijozlarga firmaning Internet- saytida zarur xususiyatlari bo‘yicha mahsulot tanlash, keyin tanlangan mahsulotning narxini bilib olish imkonini beruvchi yangi uslubni joriy etish; tovar yoki xizmatning narxini ularga bo‘lgan ehtiyojga asosan belgilash usulidan birinchi marta foydalanish; magazinning kredit yoki rag‘batlantiruvchi kartochkalari egalarigina foydalana oladigan tovarlarni taklif qilishning ichki tartibidan birinchi marta foydalanish.

*Bozorga chiqarish bo‘yicha:* sotuv markalaridan birinchi marta foydalanish; mahsulotni birinchi bor videorolik yoki televizion dasturlarda namoyish qilish; yangi bozorda mahsulotning o‘rnini belgilash uchun butunlay yangi firma belgisini joriy etish; modalarni rasm qiluvchi jamoat fikri yo‘lboshchilari, mashhur odamlar yoki jamoat guruhlari orqali mahsulotni ommalashtirish usulini birinchi bor qo‘llash va hokazo.

Marketing innovatsiyalariga quyidagilar kirmaydi: mazkur korxonada avval foydalanilgan usullarga asoslangan mahsulot dizaynida, qadoqlashda, joylashtirishda, narxini belgilashdagi o‘zgarishlar; marketing vositalarining mavsumiy, doimiy va boshqa o‘zgarishlari; geografik jihatdan yangi bozorni yoki bozorning yangi segmentini (masalan, mijozlarning yangi ijtimoiy-demografik guruhini) o‘zlashtirish uchun marketingning avval foydalanilgan uslublaridan foydalanish.

**Tashkiliy innovatsiya** firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish. Tashkiliy innovatsiyalarga firma birinchi marta foydalanayotgan ish amaliyotini tashkil qilish, ish joylari yoki tashqi aloqalarni tashkil qilish kirishi mumkin.

Masalan, *ish amaliyoti bo‘yicha:* eng yaxshi harakat usullari, o‘quv materiallari va ularni yanada hammabop qiladigan boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yangi ma’lumotlar bazasini tashkil qilish; firma faoliyati integral monitoringi tizimini birinchi bor joriy etish (ishlab chiqarish, moliya, strategiya, marketing); ta’minot zanjirini, biznesni qayta tashkil qilishni, ishlab chiqarishni qisqartirishni boshqarish tizimini yoki sifatni boshqarish kabi umumiy ishlab chiqarish yoki ta’minlash operatsiyalarini boshqarish tizimini birinchi bor joriy etish; xodimlarni birlashtiruvchi samarali va funktsional kollektivlar tashkil etish uchun o‘quv dasturlarini birinchi bor joriy etish.

*Ish joylarini tashkil etish bo‘yicha:* firma xodimlarining ish mas’uliyatini taqsimlashda detsentralizatsiyani birinchi bor amalga oshirish; bilim olish uchun yo‘l ochib berish va turli bo‘linmalar xodimlari o‘rtasida bilim almashishni osonlashtirish uchun formal yoki noformal ishchi guruhlarini birinchi bor tuzish.

*Tashqi aloqalar bo'yicha:* ta'minlovchi va subpudratchilar uchun sifat nazorati standartlarini birinchi bor joriy etish; tadqiqot yoki ishlab chiqarishda autsorsingdan birinchi bor foydalanish; universitetlar yoki boshqa tadqiqot tashkilotlari bilan ilmiy- texnik hamkorligiga birinchi bor a'zo bo'lish va hokazo.

Tashkiliy innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi: firmada avval foydalanilgan tashkiliy uslublarga asoslangan ish amaliyotida, ish joylarini tashkil etishda va tashqi aloqalardagi o'zgarishlar; yangi tashkiliy uslubni joriy etish bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv strategiyasidagi o'zgarishlar; boshqa firmalar bilan qo'shilish va boshqa firmani sotib olish.

**Nou-xau** – ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo'lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to'liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma'lumotlaridir. Bular xo'jalik faoliyati jarayonida foyda keltiradigan yangi texnologiya, texnik yoki boshqa echimlar, bilim, tajriba bo'lishi mumkin.

**Tovar belgisi** – biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o'xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so'zlarning birikmasidir.

**Ixtiro** – turli sohalardagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamlari, o'simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy ob'ektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik echim. Agar ixtiro yangi bo'lib, ixtiro darajasiga ega va sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

**Foydali model** – moslamaga taalluqli texnik echim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste'mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi. Agarda foydali model yangi va sanoatda qo'llaniladigan bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

**Sanoat namunalari** – sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko'rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik echimidir. Agar sanoat namunasi yangi yoki original bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

**Seleksion yutuqlar** – ijodiy mehnat orqali o'simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi turini yaratish (aniqlash) kabi insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir. Agar seleksion yutuqlar yangi, boshqalardan farqli va barqaror bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2018. - 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. 2017 yil 7 fevral. PF-4947- son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida” gi Qonuni. 1993 yil 28 dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 noyabrdagi “Ilmiy tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojatnomasi. // Xalq so‘zi. 2018 yil 29 dekabr.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
9. Artamonovoy Yu.S., Xrustaleva B.B. Klasterno‘e politiki i klasterno‘e initsiativo‘: teoriya, metodologiya, praktika: Kol. Monografiya. 2013. S. 7.
10. Alexin M.Yu., Kochemasov A.R. Problemo‘ klasterizatsii i klasternoy politiki // Internet-jurnal «NAUKOVEDENIE» Tom7, №5 (sentyabr-oktyabr 2015). <http://naukovedenie.ru>
11. Borodina M.A. Formirovanie ekonomicheskix klasterov v regione // Vestnik Permskogo universiteta. №2(5). 2010. S. 41.
12. Burnashev K.G. Razvitie innovatsionno-orientirovanno‘x klasterno‘x struktur /Dis.kand.ekon.nauk. –M, 2014. S. 43-44.
13. Buresh O.V., Frolov A.V. Klasterno‘y podxod v razrabotke strategii regionalnogo razvitiya // Ekonomika i upravlenie. 11(96). 2012. S. 60.
14. Grushevskiy D.V. Biznes-klaster Saale-Unstrur, Jak Atalli i postsovetskaya mentalnost // Strategiya i taktika upravleniya predpriyatiem v perexodnoy ekonomike: mejvuzovskiy sb. nauchn. trudov. -Volgograd. 2006. S.13.
15. Granovetter M. Uspex innovatsionnogo klastera osnovan na otkro‘tosti, gibkosti i svobode // TheNewTimes, 2010, 6 april.
16. Ionis A.S. Problemo‘ realizatsii innovatsionnoy klasternoy politiki

s tochki zreniya gosudarstvennogo upravleniya // Klaster. Issledovaniya i razrabotki. №1 (1). 2015. S. 6.

17. Kochemasov A.R. Myagkaya transformatsiya mnogoprofilnogo sudostroitelnogo predpriyatiya v klaster nuyu strukturu kak element povosheniya konkurentosposobnosti otrasli // Internet-jurnal «NAUOKVEDENIE» 2015. №5.

18. Li S. Klastero' – novo'e formo' organizatsii innovatsionnogo protsessa // <<http://www.naukazar.kz>>. <<http://gazeta.kz>>

19. Lenchuk E.B., Vlaskin G.A., Timofeeva Yu., Rusinov V. Analiz zarubejnogo opo'ta povosheniya otraslevoy, regionalnoy i natsionalnoy konkurentosposobnosti na osnove razvitiya klasterov //

20. Lenchuk E.B., Vlaskin G.A. Klasterno'y podxod v strategii innovatsionnogo razvitiya zarubejno' x stran // <http://ckr-ugra.ru/upload/medialibrary/120/12024db33e858d44dc9ab6b5563be06e.pdf>.

21. Mitenev V.V., Kirik O.B. Klaster kak faktor razvitiya ekonomiki [Elektronno'y resurs]. URL: <http://journal.vsc.ac.ru/php/jou/34/art3406.php>

22. Morjakova K.E., Kryukova O.G., Osobennosti innovatsionno'x klasterov // elektronno'y nauchno-ekonomicheskij jurnal «Strategiya biznesa». №6 (26). 2016.

23. Nadjafov V.N. Obzor zarubejnogo opo'ta vnedreniya klasterov // <http://www.vestnik-mgou.ru/Articles/Doc/4056>

24. Porter M. «Konkurentsia» / Per. s angl. – M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2005. S. 329-330.

25. Proxorova V.V., Xachaturova M.S. Funktsii i instrumento' razvitiya klasterov v regionalnoy ekonomiki sovremennoy Rossii. Monografiya. 2015. S. 45.

26. Pogonin A.V. Ekonomicheskoe razvitie regiona s uchetom klaster nogo podxoda v kontekste ekonomiki goroda // Vestnik Permskogo universiteta. №4(15). 2012. S. 57.

27. Risola. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir” nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. T., 2016. 208-221-b.

28. Suxanov P.A. Indikativnaya otsenka regionalnoy innovatsionnoy sistemo' s uchetom klaster nogo podxoda. Diss... kand.ekon.nauk. Perm. 2015.

29. Fukuyama F. Doverie: sotsialno'e dobrodeteli i sotvorenie blagodenstviya (per. s angl. A.Etkind) // «Neprikosnovenno'y zapas». 2001. №2(16). S.23. URL: <http://magazines.russ.ru/nz/2001//fook.html>.

30. Uzbekistan: Modernizatsiya sistemo' vo'sshego obrazovaniya.

Dokument Vsemirnogo banka. Sektor po chelovecheskomu razvitiyu. Otdel po rabote so stranami Tsentralnoy Azii. Regionalnoe upravlenie po Evrope i Tsentralnoy Azii. 2014. S. 33.

31. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. –T., 2016. 18-b.

32. “O‘zbekistonda ta’lim - 2015”. Statistik to‘plam. –T., 2015.

33. Andersson T., Schwaag-Serger S., Sorvik J., Hansson E.W. The Cluster Policies Whitebook// [http://www.clusterplatform.at/fileadmin/user\\_upload/cluster\\_bibliothek/916\\_TheClusterPoliciesWhitebook.pdf](http://www.clusterplatform.at/fileadmin/user_upload/cluster_bibliothek/916_TheClusterPoliciesWhitebook.pdf)

34. Bortagaray S. Tiffin Innovation cluster in Latin America// <http://www.ic2.utexas.edu/ictpi/mirror/curitiba2000/papers/S11P01.PDF>

35. David B. Audretsch, [Maryann P. Feldman](#) Innovative cluster and the industry life cycle: review of industrial organizations

36. Innovation cluster in Europe: A statistical analysis and overview of current policy support/Europe INNOVA/PRO INNOVA Europe paper №5. 2007. P. 68.

37. Ketels C. Clusters, Cluster Policy, and Swedish Competitiveness in the Global Economy. Expert Report no. 30 to Sweden’s Globalisation Council, 2009.

38. Doloreux D. and Shearmur R. Maritime clusters in divers regional contexts: the case of Canada. Marine Policy. 2009. Vol. 33 no.3. p. 520-527.

39. Claudio R. and Riccardo V. Foresight and innovation in the context of industrial clusters: the case of some Italian districts. Technological Forecasting & Social Change. Vol.75. no.6. p. 817-833.

40. Porter M.E. On Competition. Boston: Harvard Business School Press, 1998.

41. Preissl B. Innovation Clusters: combining physical and virtual links/Berlin, July 2003. P. 27.

42. Oulu Region – The Direction for Expertise. Oulu: Painotalo Suomenmaa, 2003. P. 24.

43. Simmie J., Sennett J. Innovation in the London metropolitan region// <http://discovery.ucl.ac.uk/112605/>

44. Ketels Ch., Lindqvist G. and Solvell O. (2012) Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. The Role of Cluster Organizations [Online], available at: <http://gosbook.ru/note/84334> (Accessed 7 December 2016)

45. Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. Huff Post Social News September 21, 2009.

46. Powerful dusters: Main Drivers of Europe’s Competitiveness. Brussels, 17i1 October 2008.

47. The Global Innovation Index 2015. Effective Innovation Policies

for Development // Switzerland. P. 297.

48. Solvel O. Cluster. Balancing evolutionary and constructive forces, Ivory Tower Publishers, Stockholm, Sweden. 2008.

49. Muro M., Katz B. "The New 'ClusterMoment': How Regional Innovation Clusters Can Foster the Next Economy". Brookings Institution Metropolitan Policy Program. September 2010. 2010. 59 p.

50. Feser E.J. "Old and new theories of industry clusters" in Steiner M. (ed.) Clusters and regional specialization. Pion Press. London. UK. 1998. pp.18-40.

51. Clusters and Clustering Policy: a Guide for Regional and Local Policy Makers [Elektron manba].URL:

52. "Ekonomicheskaya bezopasnost predpriyatiya" Uchebno-metodicheskoe posobie. Olesya Arturovna Firsova, 2014.

53. Ekonomicheskaya bezopasnost: teoriya, metodologiya, praktika / pod nauch. red. Nikitenko P.G., Bulavko V.G.; Institut ekonomiki NAN Belarusi. – Minsk: Pravo i ekonomika, 2009. – 394 s.

54. Statisticheskiy ejegodnik regionov Uzbekistana. 2016. –T.: Goskomstat Uzbekistana, 2017. –130 str.

55. Maxmudov Nosir, Hakimov Hakimjon Abdullo O'li. "Iqtisodiy o'sish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo'nalishlari." Ekonomika i finanso' (Uzbekistan) 3 (2016).<https://cyberleninka.ru/article/n/i-tisodiy-sish-modellari-va-ulardan-makroi-tisodiy-tahlilda-foydalanish-y-nalishlari>

Xotamov, I. S. YaShIRIN IQTISODIYO'TNING MAMLAKAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari, 1(3), 8. Izvlecheno ot

[https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy\\_xavfsizlik/article/view/149](https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/149)

64. Xotamov I.S. Innovatsionnoe razvitie ekonomiki Uzbekistana kak faktor konkurentosposobnosti strano'. Materialo' nauchnoy konferentsii s mejdunarodno'm uchastiem. Institut promo'shennogo menedjmenta, ekonomiki i trgovli. 2018 Izdatelstvo: [Federalnoe gosudarstvennoe avtonomnoe obrazovatelnoe uchrejenie vo'sshago obrazovaniya "Sankt-Peterburgskiy politexnicheskij universitet Petra Velikogo"](#) (Sankt-Peterburg).

66. Xotamov I.S., Raxmonov M.R. Osobennosti innovatsionnogo razvitiya ekonomiki Uzbekistana. [WEB OF SCHOLAR](#) Izdatelstvo: [RS GLOBAL MEDIA](#) (Kiev) ISSN: 2518-167X eISSN: 2518-1688.

67. Khotamov, I., Khujanazarova, N., Gulirano Nosirova, G., & Nazarova, G. (2019). WORLD TENDENCIES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY AND INSURANCE IN UZBEKISTAN. *Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari*, 1(3), 7. Izvlecheno ot [https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy\\_xavfsizlik/article/view/71](https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/71)

68. Xotamov Ibodullo Sadulloevich, Foziljonov Ibroximjon Sotvoldixujaevich, Muminov Jasurxuja Rustamovich. Natsionalnaya sistema otsenki riskov v Uzbekistane. [NAUKA I INNOVATsII - SOVREMENNO'E KONTsEPTsII](#). Sbornik nauchno'x statey po itogam raboto' Mejdunarodnogo nauchnogo



### **Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligining rasmiy sayti.
4. [www.UzA.Uz](http://www.UzA.Uz)–O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
5. [www.review.uz](http://www.review.uz) – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti.
6. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
7. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali.
8. [www.eurasianews.com](http://www.eurasianews.com) – Evroosiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
9. [www.vip.lenta.ru](http://www.vip.lenta.ru) – Internet nashriyoti.
10. [www.InternetNews.com](http://www.InternetNews.com) – Yangiliklar serveri.
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)– O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
13. <http://cor.europa.eu/en/documentation/studies/Documents/Clusters-and-Clustering-policy.pdf>.
14. [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_82134/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82134/)
15. [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_123444/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_123444/)
16. [http://eteor.at.ua/\\_ld/0/20\\_HFk.pdf](http://eteor.at.ua/_ld/0/20_HFk.pdf)

2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Amaldagi ko‘rsatkich	Yillar bo‘yicha ko‘rsatkichlar			
				2023	2024	2025	2026
1.	Global innovatsion indeks reytingida O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash	o‘rin	86	74	68	62	56
2.	Innovatsion faoliyat <b>infratuzilma sub’ektlari</b> ( <i>texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akselerator</i> ) soni	dona	25	45	55	65	75
3.	Innovatsion faol <b>tadbirkorlik sub’ektlari soni</b> ( <i>sanoat ishlab chiqarish tashkilotlarining umumiy sonida</i> )	dona	613	930	1 215	1 500	2 250
4.	Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan <b>yangi innovatsion (spin-off) korxonalar</b> soni	dona	0	14	22	28	36
5.	Tashqi bozorlarga umumiy eksportda <b>yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining ulushi</b>	%	2,1	3	4	5	6
6.	Ichki va tashqi bozorlarda <b>tijoratlashtirilgan</b> ilmiy ishlanmalar soni	dona	150	250	275	300	325
7.	<b>Xususiy sektorning</b> ishlanma va tadqiqotlarga <b>investitsiyalari</b> hajmi	mln so‘m	2 804	3 500	4 750	6 000	8 250
8.	Ishlanma va tadqiqotlarga ajratilgan <b>xorijiy grantlar</b>	mlrd so‘m	0	35	83	141	224
9.	Innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratilgan <b>yangi ish o‘rinlari</b> soni	dona	6 000	9 000	13 500	18 000	25 000
10.	<b>Tadqiqotlar va ishlanmalar</b> uchun yalpi xarajatlar ( <i>YaIMga nisbatan foizda</i> )	foiz	0,15	0,17	0,19	0,21	0,24
11.	<b>Xususiy sektor</b> tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqot va ishlanmalarga yalpi xarajatlar ( <i>YaIMga nisbatan foizda</i> )	foiz	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5
12.	Yaratilgan yangi <b>texnologiyalar</b> soni	dona	69	89	186	288	284
13.	<b>Intellectual mulkdan</b> keladigan tushumlar ( <i>jami eksportdagi ulushi</i> )	foiz	0	0,02	0,03	0,04	0,05
14.	Ro‘yxatga olingan <b>yillik patentlar</b> soni	dona	30	39	82	131	184
15.	<b>Ilmiy tadqiqotchilar</b> soni	nafar	15 000	16 500	18 000	19 600	21 500
16.	Xodimlari orasida <b>ilmiy tadqiqotchilar bo‘lgan korxonalar</b> ( <i>jami korxonalariga nisbatan foizda</i> )	foiz	13	14	15	16	17
17.	Ilm-fan va muhandislik sohasida <b>bitiruvchilar soni</b> ( <i>jami bitiruvchilarga nisbatan foizda</i> )	foiz	35,5	36,9	38,5	40,1	41,8
18.	<b>Ilmiy texnik nashrlardagi</b> ( <i>Web of Science ma’lumotlar bazasida</i> ) <b>maqolalar</b> soni	dona	900	1 000	1 150	1 300	1 500

